


ASQAD MUXTOR

# DUNYO BOLALARI



| QISSALAR, HIKOYALAR |

ASQAD MUXTOR

# Dunyo bolalari

*hayotidan hikoyalar*

**Asqad Muxtor**

Dunyo bolalari hayotidan hikoyalar [Matn]: /  
A. Muxtor – Toshkent. „Pharos ambition“  
nashriyoti, 2022. – 144 bet.

Abdulla Qodiriy nomidagi  
viloyat AKM  
INV № 2023/23-108

© A. Muxtor

© „Pharos ambition“ nashriyoti, 2022

## **INSONGA QULLUQ QILADURMEN**

Quyosh subh yoqasini chok etib, ko'k maydonida jilva ko'rguzgach, Sohibqiron Qur'oni karimni lavh ustiga qo'ydilar. Kun saraton burjida edi, shiddati beedad. O'rda sahnida davlatpanohning oq chodirlari shukuh-u as'asa ila charaqlab kunga yuz tutdi.

Shu mahal xirgohning ko'rinishxona yo'lagida soch-soqoli o'siq, darvishona xirqa ustidan kumush fo'ta bog'lab unga esa tug'ro bezagi taqqan bir kimsa paydo bo'lib, mungli ko'zlarini yerdan olmay, shohona ostonaga qarab o'taverdi. Chodirning davlatxona qanotida Sohibqironga ko'rinish bermoq uchun muntazir o'ltingan kazo-kazo sultanat ustunlari, fuzalo-yu ulamo, sipohsolor-u no'yonlar, xos-u ra'iyadan kelgan kalontar-u kadxudolar – biri hayratda, biri g'azabda, noiloj qarab qoldilar.

Belidagi darxon-u tug'ro nishonlari buning uchun huquq beradirkim, ul zot naqshinkor eshikni beijoza ochib, ichkariga yuz tutdi.

– Shul nopok devona bila mahrami asror bo'libdurlar, davlatpanoh, – deb nadomat qildi kimdir.

Yana birov mahzal ila kuldii:

– Bir mahramlari kal Inoq, bir mahramlari bul ro'dapokim, boshi kesilib ketmaganidan holo mammun emas...

„Devona“ kirganida Sohibqiron jig'ali sallani boshlaridan olib, mehmonga joy ko'rsatdilar. U o'ltingach:

– Niyatlarimiz, iloho, mustajob bo'lg'ay, – deb Allohga takbir aytdilar. Sohibqiron chorpojadagi nardni

ham chetga surib, mubohasaga kirmoq uchun shaymiz degandek e'timod bildirdilar.

Ul zot hamon ko'zini yerdan olmay taammulda qolgani uchun, Sohibqiron uning yodiga soldilar:

– Mubohasa Iso alayhissalom xususida erdi...

– Bale... Alhol Bibi Maryam vaz' to'lg'oqida aftoda erdi, – fasohat bilan boshladi „devona“, tovushi ajab ohangdor, tiniq edi, – quloqlarig'a vahiy keldikim, ayo umminiso, bu kun sandin bir o'g'lon tavallud o'lg'aykim, bu olamda shoh-u gado va jam'i malikussalotin anga tiz cho'kib toat qilgay va abadul-abad atbo' bo'lurlar. Darhaq ul sabiy manglayida shu'layi gardish ila keldikim, to jonibi Quddusi sharif tamom munavvar o'ldi. Bu xabari arojif isroil qavmining Irod otlig' shahanshohiga yetib, zulm-u fazihatda mashhur erdi, aning oshubi haddin oshdi. Tahlikada qolgan ul g'addor amir-u umarosig'a, mirshab-u shabdonlarig'a, hatto jam'i yahuda doyaxonlarigacha amri darg'azab qildikim, ul karomatsaro sabiyni topsinlar va mahv etsunlar. Illo go'dakni topmadilar. Alhol, ul iblis alayhulla'na: „jam'i shahr-u kentni, tamomi Isroil mulkini justijo' qilib, shul kecha tavallud topgan o'g'lonki bor, barini qatli om qiling“, deya...

– Bas qil, mug'anniy... – dedilar Sohibqiron. – Fahmladikkim bizning go'dakligimiz afsonalarig'a shama qilursen.

– Ore, – dedi tinglaguvchining e'timodidan qulfi-dili ochilgan so'zamol suhabatdosh. – Ore, sening chirog'ing ni tangri yondiribdur. Iskandari Zulqarnayn tug'ilgan mag'orada Arastu hakimning lavhayi nomasi topilmish, ani eshitib bilursen. Hukamoyi Rum lavhani o'qidilar: Movarounnahrda bir o'g'lon tavallud topg'aykim, yetti iqlim salotinin zabun etgay, ismi Iskandari Soniy atalur

va rub'i maskun aning tasarrufida bo'lur, deb. Alhol, vahimaga tushgan yetti salotinning josuslari ulus aro yelib-yugurib...

– To'xta. Darhaq, biz ko'p jang-u zahmat ila ul yetti sultanatga muzaffar-u mansur bo'lib, alhamdulliloh, Movarounnahrda barini yaksar etdik...

– Tamomi mulki Turonzamin, Ho'qond-u Xo'jand, Andijon-u Marg'inon, Qoshg'ar-u Turkiston jatta zulmidin omon topdilar. Movarounnahrni itini inson go'shti bilan boqadirg'on jattalardan mosuvo qilib, parchin-u qirpichoq bo'lgan Chig'atoy ulusini davlati qaviy aylading...

– Illo sabiyliqdag'i sehr-u asrori karomat – bari fasonadur. Arastu ulamoyi yunon turur. Alarda asotir-u fasona bisyor bo'lur. Sen ham fasonachi erkansen, Ayri. Hamd-sano Allohga bo'lsin, lof bandasig'a noloyiq. G'iyosiddin Ali Yazdiykim, jangnomasida sha'nimizga lofni ko'p aytibdur, badiasini rad etdik. Yunonistonda dag'i Homer otlig' asotirgo'y o'tgan. Ulku batamom so'qir ermish. Sen esa bizni ayon ko'rib turibsen.

– Baribir, el, Amir Temur Alloh taoloning barguzidasidur, derlar. Zero, Zuhal ila Mushtariy burjida tavallud topibsenkim, Alloh taborak yer-u ko'kni shul soatda yaratmishdir. Nujumotning bu holati har sakkiz yuzlikda bir kelurkim, alarning chehrasida nuri ilohiy zuhur o'lgay. Avvalo Iskandari Zulqarnayn, andin so'ng'ra Muhammad alayhissalotu vassallam va dag'i sen, qiblagoh...

Sohibqiron, odatlaricha, lat yegan chap yelkalariga sal engashgancha silkinib kuldilar:

– Abas bu, nag'masoz! Hisobda g'alat ketding. Avvalo Iskandari sohibqiron kalimayi shahodatdin bexabar mushrikdur, bizning qatorimizdan emas. Sen Iso

alayhissalomdan boshlab eding, aning tavalludi... – deya yana o‘rinlarida tebranib kuldilar: – yo‘q, bu bari to‘qima, sen esa xizmatimizdasen, nomunosibdur.

– Yo‘q, men so‘z xizmatidamen, deb aytdim. So‘z esa haq xizmatidadur.

– Bale, she‘r-u shoir ilohdin. Demishlarkim, otamiz Tarog‘ay bahodirning to‘fang o‘qidin o‘lmagan raqiblari Qozog‘on no‘yon hazrat Sayfiddin shayxul-a‘lamning bir ruboiyalaridin telba bo‘lmish. Sen ham bizni abyotgo‘ylik ila telba qilmag‘ay erding, – deya yana kuldilar, ammo ko‘rdilarkim, hamsuhbatlari yuzida tabassum yo‘q. Shuning uchun jiddiy davom etdilar:

– Go‘dak chehramizda nuri ilohiy zohir o‘lg‘oni lofdur, illo ulamolar mashvarati joriy yuzlikda islomg‘a rivoj bergen shu zot deya bizga fatvo berganlari rost.

– Ha... Olam sehrlidur, Sohibqiron. Uning tarixi sening jang-u jadallaringdangina iborat emas. Anda ruhiyat, fusunkor afsona-yu ilohiy hikmatlar...

– Sening tungi navolaring...

– Ore, bari omuxtadurkim...

Hurmatli kitobxon, ijozatingiz bilan, biz muhobasani shu o‘rinda bo‘lib, diqqatingizni o‘zga bir nimarsaga jalb etamiz.

Kimdir bul tap tortmas shaddod?

Dunyoda hech kim, hatto ota-onasi ham senlamanigan jahongir hukmdorni senlab, u bilan muroqaba qilur? Nahot uning joni shirin bo‘lmasa?!

Voqeа bunday bo‘lgan edi.

Movarounnahr hukmdori Xuroson-u Seyistonni o‘g‘illariga suyurg‘ol qilib, Shom-u Ajam orzulari bilan fors hududlarida qarorgoh tortib turganlarida Mozandaron dorug‘asidan shikoyat yetdi. Sheroz ulusi

muzaffariylarning zulm-u musallatidan dodini kimga aytishni bilmay, qon yig'lab, Sohibqirondan imdod kutar emish. Bu payomdan sarkardaning tashvishlari chandon ortdiki, toqat-u halovatlari yo'q edi. Yo Rab, bu mumsik voli-yu hokimlar so'qirmiki, na Xudo qahrini, na ra'iyat kasrini ko'radir!

Sherozga lashkar tortish sardori mualloning mo'l-jallarida yo'q edi, xayollari besari poy bo'lib, oromlari ochdi.

Malomat ikki kelur, naqlidan bo'lib, ustiga ustak, shu kecha vatandan yalavoch chopar yetib, yana bir shumxabar aytdi. Yalavoch aqqib otidan bemajol yiqilib, o'lar holatda shivir berdikim, Dashti qipchoqdan To'xtamishxon yetovida kelgan katta sipohlari Mova-rounnahrni yag'mo g'orat qilib, Sohibqironning ona beshigi Zanjirsaroyni otashzada, Buxoroyi sharifni esa qamal qilibdurlar. Buxoroda tolibi ilm-u ahli fuzaloning qatlig'a jazm etmislar...

Davlatpanoh yuzlariga qon qalqib, u yon-bu yon yurgach, qo'llaridagi jo'ji cho'qmorini urib sindirib, jahl otidan tushgan bo'lib toshga o'tirdilar.

– Ey fosidi fuzuh! – dedilar To'xtamishni eslab. – O'g'limiz tengi, nuri ayn degan edik murtadni. Xoja Shams mozorida Qur'oni majidni dastiga yelib, „Sizga nauzanbilloh jihod qilmagaymen“, deya ont ichgan edi, qasamxo'r! G'addor!

Sohibqiron shu kecha birinchi marotaba horg'in qariyadek oromga yotdilar. Qasri Orifonda bezovta tunadilar. Tushlarida Bahouddin Naqshbandni ko'rdilarkim, qalandarsifat emish, aytdilar: „Ayo o'g'lon, jam'i kavkab hut burjiga kelibduri, qiron bo'lur.

Nuh to'fonida ham mundoq erdi, jatta hukamolari buni bilmas. Buxoroyi sharifga lashkar tortgil“, deb.

Ertasiga davlatpanoh mashvarati umaroga ayon etdilarkim, „Movarounnahrga darhol qayturmiz, yurtimiz musulmonlari bizdan najot kutadir“.

Tasarruflariga olgan yaqin-yovuq shahr-u kentga voliylar tayinlab, ruhi Rasululloh alayhissalomga tilovat bag'ishlagach, ertasiga bo'z ot minib qarqaroni dubulg'aga o'rnatdilar-da, nayza-qalqon qo'llarida, zarrin fo'ta bellarida, yaroq taqqan ming to'fangchi davrasida, yashil tug' ostida saf boylagan ikki tuman lashkarni shimol tomonga siljildilar.

Bunday paytda Sohibqiron marqabi kajavada emas, uzoq yo'lga ot minar edilarkim, aqqim otning yobon yo'llarida yelishi dillaridagi g'azab cho'g'ini andak sovitar degan umidda. Illo, yo'q, bil'aks, horib-tolganlarida ham osoyish topolmay yana To'xtamishni eslab ketdilar. Ul nobakor bir necha yil muqaddam Urusxonning qasdi qatlidan qochib, Sohibqironni qiblagoh deya panohlariga sig'inib kelgan edi. Samarqandda uni iltifot va siylov bilan kutdilar. Davlatpanoh unga O'tror-u Sabroyi uluslarini peshkash qildilar. Dag'i bir tuman lashkar boshiga qo'yib, „Bor, yog'iyingni daf' et“, deya fotiha berdilar. Mehr ko'rguzub, nasihat aytdilarkim, „Nuri aynim, zafarga ko'zing yetsa, yog'iyg'a omon bergil, bog'-bo'stonni vayron qilma, bachabag'ilni asir olma, avrot qo'lg'a kelsa, asokirg'a ayt – fasad qilmag'aylar“, deb. Ul nonko'r esa, barining aksini qilib, Dashti qipchoqdan befath-u zafar, mulzam qaytib keldi.

Sohibqiron bu noshukrni otasining qotili Urusxondan gina qilib, uning xunxor o'g'illari Qutlug' Bug'a va To'xtaqiya qasdidan uch tobqir qutqazdilar. To'rtinchn bor ham necha tuman lashkar berib, Mamayxonni mahv etishiga, Oltin O'rda taxtiga o'ltirishiga, Jo'chi ulusining

nufuzi ortishiga hamiyat qildilar. Endi esa ul gustohning ko‘zlarini fazihat pardasi bosib...

Qirq kun deganda Jayxunning Xorazm sohillarida Amir Temur lashkarlarining to‘zon bulutlari va „suron“ sadolari osmonni tutdi. Kokil qo‘ygan Temur sipohiyalarining muborizlik vajohatini ko‘rgach, kelgindi jatta saflariga g‘uluv tushib, parokanda qocha boshladilar. Sohibqironning Xudodod Husayn, Shayx Ali otliq tumanbegilari To‘xtamishni Sarig‘suv va Zarnuq yoqalarigacha quvib borib, Anbar tepaligida tamom musahhal etdilar...

Bu janglar tinganda hamal kirgan edi. Sohibqiron qarorgoh ko‘targan Xo‘jand suyining Akar tumanida navro‘zi ajam, xushbo‘y subhi saboda qizg‘aldoqlar tebranar, tundayoq ko‘prik qurishga chiqqan pulsoz sipohiy to‘dalarning taraq-turuqi olisdan eshitilar edi. Sohibqiron aslahasiz, yengil xil’atda xos chodirlaridan chiqib, tong nafasini olmoq uchun daryo sarig‘a yo‘l tutdilar. Izlarida, rusumga ko‘ra, sodiq qutvollari Inoq borar edikim, mulozimotlarida sidqidil, o‘limdan tap tortmaydigan qaviy jo‘sha va daler muboriz edi, ikov sohil ustiga dohil bo‘ldilar. Qo‘rdilarki, quyida bir to‘da juldur-u notavon jo‘chi asirlar yuzboshi amir Qatag‘on posponlig‘ida o‘tib boradir. Sohibqiron ko‘zlarida alomati savol zuhur etdi.

– Mahkum yog‘iylar, Sohibqiron, qatli om etilur, – dedi Inoq. Davlatpanoh andak taammulga toldilar va safdan birini ko‘rsatdilarki:

– Ani huzurimizg‘a chorlag‘il, – deb.

Inoq ul asirni oldiga solib olib keldi. Soch-soqoli o‘siq, darveshsifat bu zot, belbog‘ida kadusimon qo‘buzki, ko‘hnaligidan sayqallanib ketmish edi, ko‘zini yerdan olmadi.

O‘tgan kechasi Sohibqiron daryo jonibidan shul qo‘buzning dardli nag‘masini eshitib, uyqu va oromlari qochib, hushlari parokanda bo‘lib edi.

- Nasab-u nasabingni ayt, – dedilar Sohibqiron.
- Mahkum bandamen, – dedi asir behadik.
- Biz seni o‘limdan xolis qildik.
- Yo‘q, men alar bilan o‘limga borurmen, – dedi ul zot. Javobi dag‘al eshitildi. Sohibqironga „yo‘q“ deguvchn bo‘lmashdi. „Bir devona ekan“, degan andishaga bordilar.
- Ixtiyor ila o‘lmoq bandasiga gunoh.
- O‘z ulusingni qatliom etmoq undan ortiq gunohdur, – dedi darveshsifat asir.
- Bular xususan sen ham, behayo g‘animlar, bosqinchi jattalarsiz! – dedilar Sohibqiron g‘azab xurujini bosib.
- Yo‘q, men turk farzandimen, bular ham zoti-budi bilan turk-u tojik!
- Nechuk?
- To‘xtamishxonning odati borki, jang saflarida o‘zi qo‘ngan manzil atrofig‘a turon zamin farzandlaridin, qar-quri fuqaroni tizib qo‘yib ishrat qiladur. Bular o‘shal begunoh sho‘rliklardan. Amir Qatag‘on asir olib haydab keldi.

Sohibqiron hang-mang bo‘ldilar, qonlari chehralariga toshdi. Illo bu „devona“ o‘ziga yarashmagan bir fasohat bilan gapiradirki, aytganlari talbis yo makrga o‘xshamasdi. Uni xirgohga boshladilar. Inoqqa amr qildilarkim, „Bu mojaro taftish qilinsin, agarchandi gap haq bo‘lsa, „asirlar“ emas, amir Qatag‘on qatl etilgay.

„Darvesh“ Movarounnahr xoqonining toqi-ravoqiga har kuni kirib yurgan odamdek, na masnad-u maqomiga,

na hasham-u aslohiga hayrat ko'rguzdi. O'ltur, desalar, – o'tirdi, gapur, desalar – gapirdi.

– Tunda abyot aytib nag‘ma qilg‘an senmi eding?

– Men.

Oting nimadur?

– Ayri Qo‘buz derlar.

Sohibqiron, hazil qilur deya, jilmaydilar.

– Nechun „Ayri“?

– Termiz sayidlari yetakida murid ekanmen, yo‘qlikdan ayriga sim tortib chertar edim... asli ismim Muhammad.

– Bor. Libos yopurlar, xizmatimizda bo‘lursen.

– ... Men so‘z xizmatidamen, – dedi Ayri Qo‘bo‘z tap tortmay, – so‘z esa haqiqat xizmatidadur. Sohibimni senga ham almashmasmen.

Sohibqiron lol qoldilar. Bu nag‘makash so‘zida olampanohni biron marta ulug‘lamadi, endi esa betga chopib... Sohibqiron g‘azabdanmi, hayratdanmi vujudlarida andak titroq sezdilar. Hozir bu qulbachchani darhol chopib tashlasalar haqlari ham, hadlari ham bor edi. Ammo bu devonayi benavoning ko‘zimi, so‘zimi – nimasidir bunday say‘idan tindi, quloqlarida uning tungi sirli navosi yangrab ketganday bo‘ldi. – Bu hayotda ulug‘ piyrimiz va qaynotamiz rahmatli Ubaydulloh Sadr ash-shariatdin o‘zga hech kimsa bizni senlab aytmagan. Sen ikkilamchisen, – dedilar qayg‘adir, chet bir nuqtaga tikilib.

– Jasorat egasiga qo‘l ko‘tarmasligingni bilurmen, Sohibqironning mardligini yana bir bor imtihon qilishga jazm etdim. Zotan, mening uchun buning haddi baland emas, umrimning bu yog‘i tekinga qoldi, shohidsen.

– Unda jasur emas, tavakkalchi tentak ekansen.

– Eshitgan edimki, Sohibqirong‘a tab’i mahzul bir so‘zamol sozanda manzur bo‘lmish, mashshoqlar ichra davrada ko‘ngul ochar erdi. O‘zi esa so‘qir ekan. Bir kuni davlatpanoh andin: „Oting nimadur?“, deya so‘rading. „Otim Davlat“, dedi sozanda. „Davlatning ko‘zi ko‘r, bo‘lurmi?“, deding. Sozanda aytdi: „Davlat ko‘r bo‘lmasa, oqsoqning qoshig‘a kelurmu?!“.

Sohibqiron beixtiyor kulib, noxush sovigan vujudlari yayradi.

– Bu rivoyatdur... – dedilar.

– Mening Iskandari Soniyni senlab gapirishim ham bir kun kelib afsona bo‘lur... – dedi Ayri Qo‘buz. Shundan so‘ng bu tungi mug‘anniy Sohibqiron ko‘zlariga go‘yo boshqa bir qiyofada namoyon bo‘la boshladи. Nogoh uning kecha tunda kuylagan navoyi nolasi butunicha yodlariga keldi. U so‘zlar go‘yo musiqa birla eski mavjlarida sayrona edi:

Bargi sabz yoz bo‘yi kun nurin emdi. Kuch yig‘ib, dedi: „Bas, kun – o‘zim endi“. Hasaddin sarg‘arib, chirt uzildi-yu pildirab-shildirab qabrog‘a indi.

*Kuzning qaro tuni, momaqaldiroq,  
Yig‘och tegrasinda tentirar yaproq.  
Barq qilich sermab, yoqar gulshanlar,  
Sarosar tutanqib biqsir gulshanlar.  
O’shal gumroh bargidin tutashib olov,  
Ul durkun ham o‘rtanur lov-lov...  
Barg yengil, yengiltak mulhidi zardusht,  
Ona mulkin yoqib bo‘lur modarkush,  
Makruhdir kim kechsa u huvzatidin,  
Alhazar yomonning mazamatidin...*

Tunda daryo sohilidan yetgan bu ohanglar Sohibqironning oromlarini olgan edi, endi esa bor ma’noki

fikrasti bila uquvlariga keldi. Sohibqiron bu navoda avval go‘yo tamomi o‘z umrlarini, keyin sarbasar o‘t tutashgan dunyoni, Movarounnahrni ko‘rdilar. Agar gumroh yaproq To‘xtamish timsoli bo‘lsa, bu bandayi benavoning sehrli qo‘buzi bizning say'-qo‘shishimizga nshorat qilmasmu?

— Ayri Qo‘buz... ko‘nglimizg‘a kelurkim, navoyi abetning ila ertangi jang-u zafarimizni bashorat qilursen. Ayt, quvib borsak, nobakor To‘xtamishni mahv eturmizmu?

— Asrori g‘oyibni bilmam, Sohibqiron, fol-u ta’bir ham ochmam, qur’a ham solmam. Vale, Alloh dilimg‘a solsa, chertib, kuylag‘aymen...

Bu javob mujmal bo‘lsa hamki, To‘xtamish daf etilmasa xonadonda yong‘in o‘chmag‘ay, degan fikr Sohibqironning dillaridan ketmay qoldi. Kechalari Ayri Qo‘buz abetidan hikmat-u karomat izlab tong otdirar, shaddod qo‘buzchini juluslariga chorlab, yana muroqaba qurar edilar. Bu mubohasalar odat bo‘lib qoldi. Shoirning sirli, mavhum suhbatlari manzur bo‘lar, farosat-u basiratig‘a botinan tahsin aytar edilar. Shuyla, Ayri Qo‘buz, chapdast Inoq qatori, Sohibqironning o‘zgalar uchun hayratomuz, rasamad mantiqidan g‘ayri bir mahramlari bo‘lib qoldi. Baxshi o‘zini ortiq erkin tutishi bilan goho Sohibqironning g‘azablarini oshirar, ammo ul zot bu shaddodg‘a negadir „Bor, ozodsen!“ deya aytolmas edilar.

Endi aziz kitobxon, tushundingizki, hikoyamizning ibtidosida ular o‘rtasida to‘satdan boshlangan mubohasa ham shul jumladan edi. Sohibqiron bu g‘alati shoir bilan gohi xayolan ham olishar, aslida esa yolg‘izlikda o‘zlar bilan o‘zlar ziddiyatga kirar edilar. Ba’zan esa unda o‘zlarini ko‘rar edilar. Shiddatli voqealar asiri bo‘lib,

o‘limdan tap tortmay, beto‘xtov qonli janglarda minglab asirlarni ko‘rib diydalar qotgan Sohibqiron o‘zlarini gohi shu odamga, yoki dillarini bosim chirmayotgan bir mavhum ruhiyatga asirdek sezар edilar.

Dashti Qipchoqqa qochib daraksiz ketgan To‘xtamish halovatlarini o‘g‘irladi. Ul qayonda, tinchib ketdimi? Yo quvib borish lozimmi? Oq O‘rdaga lashkar tortish xususida mashvarati harb chorlashga ham ikkilanib, bezovta bir qyinoqda yurganlarida ul dog‘ulidan elchi kelib, noma tutdikim, mazmuni va uslubi chunon dabdabalikdir:

„Noma yetib Sohibqiron qiblagohimg‘a ma’lum bo‘lg‘aykim, avval hamd-u sano Tangri taborakkim, ko‘kni muallaq, yerni mutabbaq yaratibdir, duoyi durud Muhammad sallolohu va alayhissalomgakim, Allah taolo aning tufaylidin o‘n sakkiz ming olamni vujudg‘a keltiribdur, shariat andin joriy bo‘lib, zalolat cho‘lida qolg‘onlarni hidoyat yo‘lig‘a solibdur. Alqissa, bizning ham shu yo‘lg‘a kirishimiz vojib, oramizdag‘i behuda nizo-yu muhoribada ko‘p Allohi begunoh zabun bo‘ldi. Musulmonni musulmong‘a muxolif etmay, shariat taqozosi bila janobimdin sulhi xayr umnd qilurmen. Qiyomatning andeshasini qilaylik, deb muhr bosdim. Noma tamom – vassalom“.

Buni o‘qigach, Sohibqiron ruhlarida yengillik sezib, Xudoga shukrona aytdilar: „Inshoalloh, endi dashtni bejang-u jadal, bexun-u ajal musahhar eturmiz“, deb. Xushxabar suyunchisi uchun ulamoyi fuzalog‘a ikki qalqon zar in‘om berdilarkim, To‘xtamish taboh qilg‘an Samarqand madrasasi ta‘mirig‘a musarrif etilg‘ay.

Ko‘ngillari tinchib, ko‘p tunlar sirasida ilk bor jon-u tan rohatida uyqu olar edilar, ammo subhidamda

yobondagi qo'y ko'ralaridan bir nag'mayi ajib og'oz etdi. Beshak, Ayri Qo'buzning navozishi erdi, e'timodlarini tortdi:

*Tong kavkabin uyg'otgan sabo,  
Dala-tuzda mavjlan, marhabo,  
Qo'ychibonning nafasi, yoki  
Nay navosi, so'lim, dirlrabo...  
O'taringni tundan qo'riqla,  
Og'illarni, cho'pon, qulfla:  
Yeyu hadangingni unutma.  
Sovimasin gulxanning qo'ri,  
Hid oladi o'q yegan bo'ri.  
Qon hididan mastu makkor u,  
Qaytib kelsa – cho'ponning sho'ri.  
Quyruqini qisib keladur,  
Tulki yanglig' pisib keladur,  
Tun fribgar sokin g'aflatki,  
Sharpasini to'sib keladur...*

Buni eshitgach, Sohibqironning ko'z o'ngida Qipchoq dashtida yaralangan bo'riday tentirab yurgan To'xtamish gavdalandi. Sapchib, shabgoh hijobini yirib, oyoqqa turdilar. Ul qasamxo'rning balandparvoz nomasiga laqqa tushayozgan ekanlar, hozir tun o'rtasida oyoqyalang qaltirab turgan bu begona zotga nafratlari toshdi. U nomaning tazvir ekanligi ayon edi-ku! Qani u zobiti muzaffar?! Sohibqiron gohida o'zlariga bir dam chetdan nazar solib, illo bag'irlarini ko'p oluda qila bilmay, bu holatdan tezda chiqar edilar. Asfariy sallani boshga olgach, xulla qabo ustidan shohona fo'ta bog'lab, isfahoniylar qilichni salanglatib davlatxonaga chiqdilar. Sohibqiron holatidan hamisha voqif Inoq zumda paydo

bo‘lib, amirlarni mashvarati harbga chorladi. Shahzodalar tasarrufidagi uluslardan qo‘sishin talab qilib yorlig‘lar yuborildi, barlos, arg‘in, jaloyir, do‘ldoy, to‘g‘ay, arlot kabi qirq aymoqqa choparlar, elatlarga tovachilar ketdikim, boricha lashkar yuborsinlar.

Ikki hafta o‘tmay, salkam bir lak lashkar Qo‘rg‘on ostida Sohibqironning ko‘riklariga doxil bo‘ldi. Rahtiroh but bo‘lib, tilovati Qur’ondan keyin tabal degan dovul nog‘oraning sadosi falakni tutdi. Chor tarafdin el-u ulus kelib, navozishlar aytib, qiblagohning mulozimathlarida bo‘ldilar, duoyi fotiha bilan fath-u zafar tilab qoldilar. Alambardorlar ichida Sohibqironning oltin zirhlis dubulg‘alari yiltillaganda „Suron“ nidolari eshitilib, qorovul to‘dasini ketidan hirovul va chopovul qismlari siljidi. Chap va o‘ng qanotlar esa Sig‘noqning yaydoq yalangliklariga chiqqandagina bemalol yoyilib o‘z o‘rinlarini oldilar. Tuman-tuman otlig‘ – piyoda lashkar larzasidan osmon guvlar, nayza-yu qalqon chaqmoqday chaqnar, biydek Qipchoq dashtlarida siyrak yulg‘un tebranar edi.

Kun oqqanda ufqda g‘ubor ko‘rindi. Ko‘p o‘tmay qorovul to‘dasidan xabar yetdikim, jatta lashkari yetti bayroq ila keladir, chovurtkadan ziyoda, deb.

Haqiqat Sohibqironning boshlariga nayzadek kelib urildi: „Ana, Ayri Qo‘buzning yarador bo‘ri makri haqidagi tungi qo‘srig‘i ayni karomat ekan! Sulhi xayr deya noma bitib, o‘zicha bizni g‘aflatga qo‘yib, orqasidanoq lashkar solibdur, g‘addor! Mayli, ul bizni bu yerlarda kutmas, qanotlarni yoyib „quchog‘imizga“ olurmiz!..“

Yog‘iyga ikki farsang qolganida Sohibqiron tizgin tortdilar. Juvong‘or va barong‘or to‘dalarni ikki qanotga

keng yoyish uchun dasht kengliklari qo‘l keldi. Alhol, qorovuldan chopar yetdikim, qipchoqlar har otg‘a ikki bog‘ o‘tni surgatib, siyosat birla to‘zon to‘zg‘itib kelurlar. Sohibqiron mo‘g‘ul jangarilarining bu ko‘hna-yu jo‘n dasturini fahmlab jilmaydilar va to‘satdan bosqin qilg‘uvchi chopovul to‘dasini shabixunga, ya’ni tungi hujumga yo‘lladilar.

Shabixun mudhish chopqin bilan boshlandi. Firibi fosh bo‘lganini payqagan g‘anim orqaga yuz tutdi. Va qanot to‘dalari ichra arosatda qolib, qolgan-qutganlari parokanda holatda qochdilar. Sohibqiron lashkarlari dasht tunining jahannamidan chiqib, yog‘yni tongdin shomgacha, so‘ngra yana bir tongdin yana bir shomgacha quvib bordilar.

Endi faqat hirovul to‘dalari oldinda, jangovar holatda edi. Qolgan cherik aslaha-yu rizqi-ozuq zaxirasi bilan, har bir askar to‘rt xil yarog‘i, do‘rdig‘-u qozoni bilan orqada borar, oddiy safar tirikchiligi davom etar, kapalakday qo‘nib uchadigan chodirlar orasida gulxan yallug‘lanar, qumg‘on qaynar, mol so‘yilib, changaklarda go‘sht qoqlanar edi.

Ikki hafta o‘tib, rabbiul-avval kirganida hirovul to‘dalari bir kichik kent qo‘rg‘onining mustahkam istehkomlariga yo‘liqdilar. Josusning xabaricha, istehkomlar doira-doira bo‘lib, ularning necha qatlam ekanligi noma'lum. Har istehkom zabit etilganda yog‘iy himoyatning bari jonini fido qilar, aslo qaytmas edi. Ko‘p qon to‘kildi, Sohibqironning chopqinchini to‘dalari ham goh janglardan sovuti ushalib, o‘pchinu qalqonlari qilich zarbidan pora bo‘lib, talafot ila qaytar edilar.

Sohibqironni talafotlardan ham ko‘ra ul qo‘rg‘on elatnning jorfidolig‘i, behad qurbanlari, qonli taloto‘plar

**Abdulla Qodiriy nomidagi**

**viloyat AKM**

**INV № 2023/23-108**

charchatdi. Bu tosh yong‘oqni aylanib o‘tib, sadqayi sar, deya safarni davom ettirishni maslahat ko‘rvuchilar ham bo‘ldi. Ammo Sohibqironning bosgan iziga o‘z ma’muriy – valiyalarini tayinlamay orqada zabit etilmagan yog‘iy albotisini qoldirish odatlari yo‘q edi.

Yetti istehkomni qon bilan olgach, to‘xtadilar. Bu qo‘rg‘onni yanchib o‘tish asli hech gap emas edi. Illo, tinmay qirilayotgan bu fidoyi elatning ne asrori bor?

Alloh, bu ne hikmatkim, bu xil qon-u qirondin ko‘ra sog‘-u omon taslim bo‘lmoq kichik qo‘rg‘on uchun ming avlo emasmu? Bu Gilqo‘rg‘onning nimasini asraydur?

„Hay, shabixun qilib betalafot olurmiz“, deya, Sohibqiron shomda bu azobli o‘ylar bilan behalovat, xobgohlariga kirdilar. Safar charchog‘ida qarorgoh ham tez tindi. Bedor-u dilkun sokinlikda jang suronidan qutulgan yobonlar bir maromdag‘i munglig‘ chirildoq sadolariga to‘ldi. Buning ustiga, qaydadir Ayri Qo‘buz noxun chertib nola qilar edi. Uyquni boy bergen Sohibqironni yolg‘izlik, cheksizlik, ayriliq va darbadarlik ohanglari chulg‘adi. Baxshining esa bundan uzoq o‘z dunyosi, o‘z ertaklari...

*Piri komil raxt yuklab xarig‘a,  
Yurar erdi mulki Ajam sarig‘a,  
Yo‘lto ‘sarlar chiqib aning yo‘lidin,  
Xurjunini yulqib oldi qo‘lidin.  
So‘rdilar: „Ne xurjuningda, ey bobo?“  
Dedi: „Bunda bordur durri beba ho.“  
Shunda yirtib matosini otdilar,  
Durji bekunj – yig‘och quti topdilar,  
Andin dag‘i xarsang quti topdilar,  
Yig‘ochini bolta bilan choptilar,  
Xarsangini yanchib – tuyib otdilar,*

*Andin bitta qumaloq mum topdilar...  
Yo 'lto 'sarlar dur qidirar edilar,  
Bul mum ekan, o 'tga tashla, dedilar.  
Piri komil tiz cho 'kdi shundayoq:  
„Yolg'on dedim, men gunohkor, meni yoq!“  
Mum to 'fon mavjlarida ushibdur,  
Nuhning najot kemasidin tushibdur.  
Anda pinhon erdi bug'doy donasi,  
Ki habotot – nabototning onasi.  
Alqissa, pir o 'tga berib jonini,  
Asrab qoldi bani bashar nonini...*

Horg'in Sohibqiron mug'anniying nimasidir hikmatomuz bo'lsa ham, bunday uzoq va beg'am rivoyatiga miyiqda jilmayib pinakka ketdilar.

Yarim tunda shabixunga suron tortilib, Gilqo'rg'on zabit etildi. Qon ko'p to'kilib, muhofizadagi elatdin kam kishi omon qoldi. Tongda qo'rg'on o'rtasidan bir qur qariyalar Sohibqironga peshvoz chiqdilarki, ularning qurshovida bir yusufjamol o'smir bor edi.

– Bu norasida kimdur? – dedilar Sohibqiron.

– Bu bizning, Alloh muruvvati va shahodati bilan, bo'lg'usi shoirimiz, – dedilar mo'ysafidlar, – shu yoshidan ilohiy so'zlar va go'zal ash'or aytadur. Shoyat istiqbolda elatimizdan avliyo chiqar, degan umiddan o'zga hech narsamiz qolmadi. Xonumonimiz kuydi, faqat umidning joni qattiq, barchadan keyin o'ladir. Bu sabiyni himoya qilib, ko'p fidokor farzandlarimizning qoni-jonini qurban qildik. Uni siz Sohibqironga ham bermagaymiz.

– Biz... biz... – deb Sohibqiron hayratda anchagacha so'z topolmay, bu vayrona ichidagi nuroniy qariyalarga qarab uzoq turdilar, – ul sizningdur, biz olmaymiz... Illo, bizga ash'ordin aytsin.

— Aytmaydur, — deyishdi chollar. — Qo‘rg‘onimiz atrofida yer quchib nighun bo‘lgan yarim elatimiz hurmati, hozir Alloh aning dilig‘a hikmat kalomini solmag‘ay...

Sohibqiron, balki umrlarida birinchi martadir, so‘zni suhbatdoshida qoldirib, musallam orqaga qaytdilar.

Xirgoh darboriga yetmay Ayri baxshining tungi nolishi xotiralariga tushib, junjikib ketdilar. Nag‘mani birato‘la eslab, manglaylariga mushtlab afsus tortdilar: „O‘shanda shabixunni to‘xtatib, esni yig‘ib olish ayni muddao edi-ku, qartaydikmu, nima balo!? Alloh baxshining diliga soladur, nechuk bizning dilimizg‘a solmaydur?“

Uzoq o‘ltirib, ich-etlarini yeb, yana nadomat chekdilar. Shu mahal Ayri Qo‘buz, bamisoli ruh, odaticha beiyoza paydo bo‘ldi.

— Norasidani ko‘rdingmu? — dedilar Sohibqiron bosh ko‘tarmay.

— O‘zimni ko‘rdim... Elning orzu-umidini ko‘rdim, Sohibqiron.

— „Bani basharang rizqi...“, „Habototdin nabotot“! — deya nag‘ma baytlarini esladilar Sohibqiron tovushlarida andek qahr ila.

— Abetni eshitibmu erding? Bu rivoyat, darhaqiqat, elning ertangi maoniy va ruhoni rizqi xususida. El ani jon barobar bilib, o‘zini o‘tga tashlab, asrab qolibdur...

— Qirg‘in hisobig‘a... Imo-ishoratni qo‘yib, bizga kelib oshkora aytsang bo‘lmasmu edi?

— Ustozim shayx Sayyid Vaqqos aytur edilarkim, „O‘qilgan chala bo‘lur, o‘qilgan to‘la bo‘lur“, deb.

— Ishorat bashorat emas.

— Unday da’voym yo‘qligini aytib edim qiblagohga. Men Xudoning osiy bandasi, dilimga solg‘onidin o‘zgani bilmasmen.

– Biz...

– Sen sipohlaringiz – Sohibqiron emas sen.

Sipohlaring esa – davlatning bandalari.

– Alar Xudoning bandalari.

– Alar dunyo ishlari ila tamom band. Men alarga ilohiy sehriyat borligini eslatib, dillarini tikanak sim yanglig‘ chirmagan dunyo ishlaridin sal chalg‘itishga urunamen.

– Sen o‘tgan gal ham: „Olam sehrlidur, tarix jahongirning jang-u jadallaridangina iborat emas, ul afsungar afsona-yu ilohiy hikmatlar ila ham butun bo‘lur“, deding, bu xotirimizda.

– Sirr-u asror, ko‘ngil davlati, ilohiy so‘z, elmidi, norasidaning abeti kalomi...

– Bas... senga ne kerak?! – Sohibqiron bu so‘zlarining o‘rinsiz ekanini bilar, jahllarini bosishga urinar, ammo bu shaddodni quvib chiqarolmas edilar. Sezar edilarki, undan g‘ayri yanada aftodahol bo‘lg‘aylar.

– Mana, sen jang oldidan Qur’oni majiddin varaq ochib, oyat o‘qursen, – deb davom etdi Ayri Qo‘buz, – mening abyotim seni taammulga solur. Qariyalar so‘zidin bu holga tushding. Inchunin, bag‘ri tosh ermassen. Menga shu kerak...

Bir umr joni huzur-halovat ko‘rmay, jang-u jadal, qonli qironlarda diyda-yu bag‘ri tosh qotgan bu insonning ko‘nglini sal bo‘lsa ham yumshatish niyat edi bu devonaga.

– Jahongirlarga bosh egmadim, insonga qulluq qila-durmen, – dedi shoir. Umrida ilk bor eshitayotgan bunday shaddod so‘zlardan vujudlari qizib, uzoq bosh solib o‘tirgan Sohibqiron asta dedilar:

— Dayrda ko‘p savob-u gunoh ishlarni qildik. Har neki bo‘lsa, Allohning madadi, bandasining tadbiri biladur. Tadbirimiz taqdirga mos tushib, fath-u zafar ila shu kunga keldik. Illo biz To‘xtamishdek g‘anim-u fazihga berahm bo‘ldik.

Shoирга Sohibqironning sokin tovushlari xush keldi.

— Tasbeh deya qo‘yningga solganing ilon chiqibdur, ani yanchmoq vojib, — dedi Ayri Qo‘buz...

Biyobonda tong oqarib, shabnam hovurida ko‘tarilgan qo‘g‘a, yulg‘un hidlari havoda kul-u dud bilan qorishiq edi. Sohibqiron arkoni aqraboni chorlab amr etdilarkim, taslim bo‘lgan ulusga shohona marhamat ko‘rguzilg‘ay. Bakovullar yugurib-yelib elga ofiyat berdilar, ulus amirlariga sovg‘a-sovrung ulashib, ikki kun navozish qildilar. Ulusning barcha elatlarida shikva-yu shikoyat tinglanib, bariga xiroj, juzya, qo‘nalg‘a, boj, shilon soliqlaridan xolislik e’lon qilindi. Sohibqiron kechagi qariyalarga maluqona xil’atlar peshkash qilib, birini ulusga voliy tain etgach, tilovati Qur’ondan so‘ng yana yurishga tabal qoqtirdilar. Amir noiblari chortug‘-u burg‘ilar bilan chiqishdi, mag‘lublar ham el tutinib, ulardan ko‘p o‘qchilar, chopqichilar, nayzadorlar Amir lashkariga kelib qo‘sildi.

To‘xtamishxon to‘dalari Xo‘jand suyidan kechganidan so‘ng, necha kun qochib, Gilqo‘rg‘on ulusidek begunoh elatlar panasida, poyonsiz qipchoq yobonlarida pusgan edi. Qorovullar g‘anim saflari raftorini olib kelgach, ikki qanot to‘dalarn yog‘iyni g‘aflatda bosib, yana chopqin qnldilar, jatta yana ortga yuz tutdi. Sohibqiron amirlari hirovul to‘dasini pistirmaga joylab, chopovul bilan ot solib, yana quvdilar. Ot dupuridan biyobon tebranar edi, lak-lak lashkar g‘ubor ichida mag‘rib-ga snljir ekan,

kunmi-tunmi o‘tgani bilinmas, faqat sabohning namchil salqinlarida aroba g‘irchi-yu qo‘ychibon qurreylari, toy kishnashi-yu tuya pishqiriqlari qulogqa chalinar edi. Temur lashkarlarining mahobatli yurishi haqidagi ovozasi o‘zidan uch kun oldinda yurar, yog‘yni yo‘lda bog‘-rog‘ni yoqib, tirik jonne chirqiratib, xonumonini sovurib, dala-tuzni chovurtkaday qiyratib, yaylovlarni tap-taqir qirtishlab, jonholatda qochishga majbur etar edi.

Quvishning o‘n yettinchi kuni otlar o‘la boshladi. Bu o‘lat emas, qo‘nim kerak edi, qo‘nimga esa giyoh yo‘q, butun og‘irlik tevalar o‘rkachiga tushadigan bo‘ldi. Qayonga qochayotir, qayonga boshlab ketayotnr bu chiyabo‘ri?! Qaytsang bosib keladi, quvsang qochadi, tikka jangga xushi yo‘q nomardning. Inoqning xabariga qaraganda, bir guruh amir-u no‘yon sarosimada gap qilishibdur: „To‘xtamish biyobonlar ichkarisiga atay boshlab, borsa kelmas manzillarda ochlik va o‘latdan tamom toliqtirib, tiz cho‘ktirmoqchi ekan“. Chap qanot qanbulida ters munaqashalar sezilar emish. Lashkar to‘dalarida bu sarosimani Sohibqironning salobatigina bosib turardi.

Ko‘p o‘tmay zaxiralarning tagi ko‘rindi, o‘qdonlar bo‘shadi. Yurishning ikkinchi oyida sipohlar dala parrandalarining yumurtqasi bilan kun ko‘rib, keyinroq dasht o‘ti va turli ildizlarni tanovul qiladigan bo‘ldilar.

Itni suyiga yetmish farsang qolganda Sohibqiron tizgin tortib, bir qiyalikda qarorgoh yoydilar. Safi buzuq lashkar horg‘in va och edi. Tunda jabdug‘u ter hidi anqigan jolisi harb suronli bo‘ldi: haligi bir guruh amir-u no‘yonlar nayzayu qilichlarini qumga sanchib „Ul yuho domiga tortib firib beradur, bizni zabun etadur, tobora ichkariga boshlab, och-u horg‘inlikdan yiqlganimizda

kelib chopqin qiladur. Illo Sohibqiron amr etsalar, biz o‘limga borurmiz!“ deb shovqin soldilar. Inoq boshliq amirlar va Sohibqironning farzandlari esa chig‘atoy dasturiga ko‘ra davlatpanoh oldilarida tiz cho‘kib, „yo‘q, ul iblisni tirik qo‘yib bo‘lmas, quvib yetish zarur, toki bayrog‘ini tuban qilsun ul ulusni talonga tashlab qochayotgan nomard bilan yakkatalosh qilaylik, ilonni yanchmasak yana bosh ko‘taradur, hujumga amr eting!“, dedilar.

Sohibqiron chorpojada o‘tirib og‘irlik bilan tingladilar: yuzlaridan u yonga-bu yonga oqqanlari bilinmadi.

Keyin xos chodirlarida yolg‘iz to‘lg‘anib, horg‘inlikdan ikki rakaat namozga ham hollari kelmay yobonga qapishib qolgan qarorgohning go‘ristondagidek sukunatiga qulq osdilar. Azobli o‘ylardan yuzlari tosh qotgan, qarashlari qo‘rg‘oshindek zil: mijja qoqmas edilar.

Sohibqiron harbiy safarda hali bunday beqaror bo‘lganlari yo‘q edi, yobonda sochilib yotgan lak-lak lashkargina emas, go‘yo butun dunyo buyuk hukmdorning tonggi hukmini kutar, ammo u zotning xayollarida zidlik tarozusining shayini muallaq edi...

Og‘ir xayollar qiy nog‘ida ko‘zi ketib qolgan ekan, tongda harir bir epkindan uyg‘onib, tiniq idrok og‘ushida rohat topdilar: uzoqda yulg‘unzor kengliklarga qo‘buz navosi taralar edi. Sohibqironning qulqlariga yetdi:

*Ortda yobon-u kenglik,  
Yog‘iy bo‘lmay yuz tuban,  
Ot sol tonggi epkindek  
Omadingni top, top!  
Yog‘iy bo‘lmay yuz tuban,  
Ko‘zi qonga to‘lmish-ov*

*Yaho makrin tutibon,  
G'orga dohil bo 'lmish-ov.  
G'or sovug'i qahrli,  
O'z qa'riga tortadur.  
Ul mo'ltoni sohirni  
Bosish xayfi ortadir  
Yog'iyga ham yog'iy bor,  
Yo 'lining odog'i bor.  
Istiqlolida zulmat,  
Vahm-u rixlat dog'i bor.  
O'zi topgan mog'ora,  
Lahad bo'lur o'ziga.  
O'pirilib, tog' aro,  
Tuproq to'lur ko'ziga.  
Gul ochilsin yo'lingda,  
Yelkang uzra oftob  
Bayzo qilich qo'lingda  
Yovuz boshin chop, chop!*

Inoq ham bedor ekan, eshik ochilib qullug' qildi. Sabohga peshvoz chiqdilar. Yoyilib yotgan qarorgoh uyg'oq edi. Amir-u amirzodalar, tumanbegi, yuzboshi, yel-pohsolor bahodirlar, yana yaqin-yovuqdan oziq-ovqat, sovg'a-sovrun bilan tunda yetib kelgan kent sayyidlari, ulus amirlari va amaldorlar davlatpanohning dargohborida intizor edilar: „Buyuring, Sohibqiron, nima qilaylik?“ Rioyer vakillari tiz cho'kdilar: „Talonga tashlab ketmang, qiblagoh!“

Hukmfarmo Sohibqironning besabr jo'shib turishlaridan niyatlari ayon edi. Ko'zlari bilan olomonda Ayri Qo'buzni izlab, topolmagandan keyin, jilovdorga imo qildilar: „Yo hazrati Bahovuddin!“— deb uzangiga oyoq qo'yib, kumush qoshli egarga otlanganlarida qanotlar saf

tortgan edi. Ot yo‘rtib, qanot qanbullari, manglay qism lashkarlariga bir-bir ser solib, saflar salohiyatini ko‘ruvdan o‘tkazib kelgach, marqab meshidan uzoq-uzoq sovuq suv ichdilar. Bu sohibifarmoning barqaror xotirjamliklari belgisi edi. Demak, qarorgohda jangovar kayfiyat shay. Ulamo fatvo berib: „Yog‘iyning yuzi qaro bo‘lsin!“ – deya g‘anim tomonga bir siqim tuproq sochdilar, keyin sipoh-u riroyatdan rozilik bo‘lgach, dovul nog‘oraning sadosi keldi-yu har bir navkarni g‘ayratga kirgizuvchi mashhur „Suron!“ xitoblari ikki qit’a dashtlarini tutashtirib uzoq yangradi. Alambardorlar qo‘lida hilpiragan yashil bayroq o‘rtasidagi uchta to‘linoy mushkul safarning yangi kuniga peshvoz chiqqanday, tong nurida nuqradek yiltillab yuksaklarda suzar edi. Amirzodalar boshliq qorovul ilg‘orlari sarin havoni yorib, tog‘dan tushgan bahor toshqinlariday olg‘a yuradilar. Ortda – har qanotiga uch tuman lashkar qavjiroq sahro yong‘inlaridan ko‘kka o‘rlagan tutunday, necha yuz farsang masofani qoplab, ufqdan ufqqacha g‘ubor ko‘tardi. O‘rtada, zaxira qo‘sishinlar, daler bahodirlar qurshovida bosh qo‘mondon qarorgohi ummondagi buyuk bir orolday siljib boradi. Shotiru jilovdorlar Sohibqironning ipakday mayin qadami bilan qariyb yarim kurrani bosib o‘tgan sevimli oqyol tulporlarini boladay erkalab, sal terlasa yuvib-tarab almashtirib turar edilar. Inoq esa bu otlar haqida bunday der edi: „Sohibqironning qo‘ng‘ir tulporlari o‘limning yo‘qlig‘iga kafil bo‘la oladur!“

Hafta o‘tmay g‘ajarchilar xabar yetqizdikim, yog‘iy yoyiqning Turatur desan kechivuda pistirma qurmish. Pistirmalarni qora tunda bosish amir Shayx Nuriddinning hunari edi. Chap qanotda g‘animning Qozonchi yetovidagi cherigi Kaysuv bo‘yida qo‘nim

topmish edikim, shu kecha saflari buzilib tor-mor etildi. Ummoni Qulzum sohilida mo‘g‘uliy qaytag‘alarning ko‘p jangari to‘dalari joylashgan edi, xunrezlik ko‘p bo‘ldi, katta talofot Sohibqironning qonlarini chehralariga toshirdi. Bir kechasi sara qo‘sishin oldiga choh qazitib, bu yonini arobalar bilan to‘sib, gulxanlarni so‘ndirishni buyurdi, zaxira kuchlar oldida g‘ul bilan o‘zlarini ot surdilar. Sohibqironning salobatlari yog‘iyning Bek Yorliq o‘g‘lon, Xudodod Oqtov, Kunchi o‘g‘lon kabi mashhur muboriz bahodirlarini qochishga mahkum etdi. Shundan keyin zabit lashkar ikki qanotini rostlab yana yurdi-yu Itil bo‘yidagi Uvak degan joyda qattiq savashdan keyin To‘xtamishning bayrog‘i tuban bo‘ldi. Xoinning o‘zi esa o‘g‘lonlari, amir-u no‘yonlari bilan savash maydonini tark etib, Bulg‘or chakalakzorlarida jon saqlash uchun ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Shundan keyin u o‘zini o‘nglay olmay, xonlik martabasini tamom boy berdi.

Endi shimoliy dashtlar sohibi yo‘q edi. Oltin O‘rda uluslarida Sohibqironning nomlari xutbaga qo‘sib o‘qildi, u zotning ismi shariflari bitilgan tilla tangalar zarb etildi.

Sohibqiron o‘z jasur bahodirlarini tarxon unvonlari, kumush kamarlar, silovsin mo‘ynalari bilan, yana yuz ming kepakiy dinor ukulka hamda yaxshi otlar bilan rag‘batlantirdilar, navkarlarga sahovat bilan ulufa ularashdilar. Darband, Saroy va Hojitarxon qal’alarini qayta tiklamoqqa farmon berdilar.

Ibrohim Darbandiy qasrida sayyodi xosning ov go‘shtidan ziyofat yegach, Mavarounnahr sultonining muzaffar lashkarlari „sayqali zamin“ sariga as’asa-yu nusrat ila yo‘l oldilar...

Sohibqiron bilan Ayri Qo‘buzning so‘nggi musohabatlar shundan ko‘p yillar o‘tib. Shom-u Rum fathidan keyin Keshda bo‘lgan edi. Bu paytga kelib ikkalalari ham qaddi dol piri safed, bir-birlaridan nechun ajralolmasliklari xususida, dayr-u oxirat, gunoh-u savob xususida ko‘p o‘ylaydigan, Sohibqiron esa, ayniqsa, horg‘in va ko‘p asabiy bo‘lib qolgan edilar...

Oppoq sochi yelkasiga, oq soqoli ko‘ksiga tushgan baxshi „Sultoni rub‘i maskun!“ deya ta’zim bilan ostonada paydo bo‘lganida Sohibqiron odatlaricha masnadi maqomlaridan tushib, o‘ng qo‘llaridan joy ko‘rsatdilar. Bandalik niyatlarimiz mustajob bo‘lg‘ay – deya soqol silab omin tutgach, jim bo‘lib qoldilar. O‘ltirib Allohga takbir aytish hamisha andak sukut taqozo etadi, amma Sohibqironning o‘ychanliklari nechukdur to‘zimsizroq tuyular edi.

- Bu kech mirzab chertmading, Qo‘buz?
- Qaridim, davlatpanoh.
- Sendin dag‘i so‘rmoqchi edik: nechun abetingni tunlari ta’lif etursen?
- Tunlari osmoni falak yaqin, davlatpanoh.  
Sohibqiron horg‘in jilmaydilar.
- She‘rni Alloh dilingga soladur... aytgan eding.  
Illo, qo‘y bu mavhumotni, Qo‘buz. Ani sabiylarga de. Ma’lumkim, faqat Qur’oni karim Allohdin nozil bo‘lmishdur.
- Qur’oni karim ham nazmiy kalomdur, davlatpanoh.  
Kalom – Allohning irodasi. Lavhi Alloh, aqli kull va aqli avvaldur. Illo, az vaqteki, shoir jonin asrab qolding, men kalomni qilichg‘a zid qo‘ymadim.
- Xudo oldida shoh-u gado barobar, qolaversa, sen bizning vijdonimiz bo‘lding.

– Shoirning vijdoni esa so‘z, alhol, so‘z – haqiqatdур, deb aytgan edim.

– Kimning haqiqati, Qo‘buz? – deb keskin so‘radilar Sohibqiron.

– Haqiqatni bo‘lishdan urush chiqodur.

Sohibqironning qoshlari chimirilib, qoralg‘on keng yanoqlariga ajin yig‘ildi. Aftidan, qalqib kelgan jahlni tiyib, aytar so‘zlarini aytmadilar. Baxshi buni payqadi, o‘ychan uzoq tikilishib o‘tirdilar. Keyin sovib, „Ha, qarib qoldik...“, deganday, boshlarini ohista sarak-sarak qildilar.

– Ayo, Ayri Qo‘buz... – dedilar Sohibqiron bosh egib o‘tirganlaricha, – farosot-u bashoratingg‘a tahnin ko‘p aytdik, emdi... bizning qazoyimizni bashorat qilaolurmusen?

– ... Nauzanbilloh... – deb sapchib tushgan keksa baxshi nursiz ko‘zlarini katta ochib, serrayib qoldi.

– Rub‘i maskunga fotihi muzaffar bo‘lib, saltanat qurib, ismimiz Iskandari Soniy, jam‘i malikul-mulkni ilgimizg‘a oldik. Kimsaki, bizga yurak bermaydur, bir o‘limdin g‘ayri. Yer yuzida bizga bosh egmagan shu qoldi. Andin bizga omon bo‘lurmu, qachon bizga duch kelg‘ay, ayt.

Sohibqironning qora bulutdek bosib kelgan bu xunuk kayfiyatidan astoydil cho‘chigan baxshi bu dargohda ilk bor o‘zini yo‘qotdi.

– Bandasi mehmon... – dedi ovozi qaltirab.

– Qazoyi qadar vahdati vujudning lavhi mahfuzida, ya’ni daftari a’molida qayd etilmishdirkim, andin qutulib bo‘lmas, Sohibqiron.

– Yo‘q, ayt, qachon duch kelgay? Biz bilishimiz kerak. Yetti iqlimning oshubi gardanimizda, ulgurishimiz kerak.

— Faqir avliyo emasmen, bashorat qilmam, agarchandikim, malikulmavt yuz ko'rguzsa aytib yig'lagaymen.

— Io'q, chalg'itma, ayt, qachon?!

Yo Rab! Kulli yavmin batar... Sohibqironning chehralari qorayib, ko'zlari yondi. Nahotki, moumanlik aziyatidin vos-vos bo'lib, nafsilavvomadin pushaymonlik yetib, vahimada qolg'on bo'lsalar? Alhol, yuzlarig'a so'z aytmoq ham xavfli edi. Ammo Ayri „yo'q“qa yana „yo'q“ dedi. Sohibqiron vujudlarini o't olganday, o'rinlaridan turdilar.

— „Kalom“ dersen, „Mehmon“ dersen, dag'i „vahdat vujud...“ Saroyimizda isqirt jandangni tark etmay, necha yil yurding, indamadik, so'fiy! Ustoizing Shoh Mansurning terisini shilgan edilar, yo seni ham...

Ayrining shu jandadan bo'lak yo'qotadigan shay? yo'q, so'z esa uning sohibi edi, aytdi:

— Bu xirqani murshidim yelkamg'a yopganlar, u zotning ramzi hollaridurkim, yechilmag'ay. So'fiylarning shayxul mashoyixi Hoja Ahmadga esa Yassida muhtasham maqbara insho etgan sen eding, davlatpanoh. Men so'fiy emasmen, ilmim g'arib.

— Bas! Har ikki so'z aro bizni mot qilmoq dilingda iddaodur... Ko'lankang ko'rinsa o'lim yodimg'a tushar nega aytmaydur, nega aytmaydur, deb shivirlaydu shaytoni la'in. Tunlari nag'mang halovatimizni ola-dur, illo... aytmaydur, aytmaydur... Sen shoir emas shumqadamsen!

Ayri Qo'buz angladikim, asab tarangligi tobiga yetdi endi gap qaytarish u yonda tursin, tasalli so'zi ham ko'qilmas. U so'zsiz, ta'zimkorona bosh egaroq, orqasi bilan yurib, ostona tomon chekindi. Eshikka yetay deganda

haligi tarang asab uzildi chog'i, gapni bo'lib beruxsat chiqib ketayotgan xirqapo'shni ko'rgan Sohibqironning jahl xurujiga kuchlari yetmay, „Mirg'azab!“, deb yuborganlari eshitildi. Bo'lar ish bo'lgan edi. Mardud shoir shu sovuq tovushdan suringandek, shartta orqa o'girib saroydan chiqib ketdi.

So'nggi paytlar Sohibqironda bunday nogahoniy holatlar bo'lib turardi. Sovuq ter bosgan manglaylarini ushlab, egilib qoldilar. Nima bo'ldi? Nima qilib qo'ydik? Bu dargohga beijoza tashrif etish uchun shoir shu sovuq tovushdan suringandek, shartta orqa o'girib saroydan chiqib ketdi.

Beixtiyor eshikka qayrilib qaradilar. Ostonada qizil gardanpo'sh yopingan, yuzi murdaday oq, lekin soqoli qop-qora mirg'azab qo'lini ko'ksiga qovushtirgancha ikki bukilib turardi.

– Yo'qol! – deb qattiq tovush bilan jerkidilar Sohibqiron titrab. Sharpasiz kirib kelgan jallod xuddi shunday sharpasiz g'oyib bo'ldi.

Sohibqiron beedad iztirobda to'lg'anar edilar. Xonadan-xonaga shaxt bilan yurib daru darichalarni lang ochtirdilar, go'yo havo yetishmas, dunyo tor edi. Bunday paytda jonlariga ora kiradigan, taskin so'zini, yo haqiqat so'zini topib aytadigan, goh beozor, goh dilozor mahramlari qani?! Bormidi u, yoki tushlariga indimi?

Yo'q, u hali, mumkinki, kirib keladi. Ijozatsiz, ayni mavrudida kirib keladi... Xudo xohlasa!

... Ammo Ayri Qo'buz qaytib kelmadi.

Uning o'rniga shunday xabar yetdikim, shoiri devona tun uqlamay, shu tong oldidan rixlat topibdur. Xudo rahmat qilg'ay.

Qandoq?

Shundoq. Tinch va beozor. O‘z hujrasida cho‘zilib yotib, gap-so‘zsiz jon taslim qilibdur, tongda kirsalar, o‘s soqoli engagiga tarashaday tikkayib turganmish. Takyada bakovulining aytishicha, marhum tuni bilan uxmlamay yuvinib-poklanib, saripoy oq kiyibdi. Va aytibdik emishkim, „Inshoalloh, tekinga qolgan bu jon ham asqotdi: ul buyuk zotni bir gunohdan asrab qolishga yaradi“, deb...

Bu xabar Sohibqironning ichlarini laxcha cho‘g‘day o‘rtab o‘tdi. Og‘ir yaralardan siqtamagan, yolg‘izlikda noiloj ingrab yubordilar. Sovuq edi, badanlari sovuq, ark sovuq, olam sovuq...

Hutning avvalida Chin-mochindan yalavoch chopa kelib, yana bir sovuq xabar yetkazdi. Qoshg‘arga qalmida qaytag‘alari oralab, musulmonlarni qaqshatib talon qilayotgan emish. Jattaning bu elati yovqur bo‘ladi, nima qilmoq kerak?

Bunday savol tug‘ilganda Sohibqiron hamisha tolischa harb chorlab, musolahat qilar edilar. Bu gal arkonashraf-u umaro Shahrisabzda mashvarat qurdi: yurish kerakmi-yo‘qmi?

Sohibqiron turli fikrlarni, goh jo‘shqin, goh so‘lg‘ir nutqlarni uzoq tinglardilar-u, ammo zohiran nechukdin loqayd qoldilar. Keyin Konigil tepaligida chodir qu‘rib, Xitoy elchisini qabul qilganlarida, uning chinniyat sovg‘alarini olib ra‘iyaga ulashganlarida ham, ziyofa berib amirzodalarga maluqona xil’at yopganlarida ham yurish xususida ma’lum qarori qat’iyatlari bilinmadid. Nimanidir yo‘qotganday, bo‘shang, hamon loqayd va parishon edilar. U zotning beqaror ikkilanishlari amir-usipohlar ko‘nglini ham ikkiga bo‘ldi. Inoq bahodir Chin-mochinga yurishning qizg‘in tarafdoi edikim, uning

atrofida bir sipohiy guruh jolis qilar, „Yovning yag‘mosini kutmasdan saflarini buzib g‘orat qilurmiz!“, der edi Inoq bahodir. Qoshg‘ardan kelgan chopar ko‘p sergap ekan, ziyofatda kayfi oshib, lof urdikim, tushkun kayfiyatdagi sipohlarning qulog‘i uning og‘zida edi:

– ... Uch fil ustida temir daraxtidin bir hujra, – der edi chopar hovliqib, – andin siyosat bilan ovoz chiqaradikim: „Ey, turk, bu fillar har biri necha shahr-u kentni vayron qilg‘on besh yuz yoshar jangarilardur, kim muqobil bo‘lsa raxtini yelkaga olur, taxti-baxtini barbod urur“ deb.

Qarorgohda g‘ovur tinmadi, olampanoh esa sukutda edilar....

Axiyri, Sohibqiron lashkar-u arkoni davlat bilan O‘tror mavzeyiga ko‘chishga amr-farmon berdilar. Ul mavzeda yurish oldidan lashkarlarning uch oylik ko‘rigi bo‘lishi lozim edi. Ammo bu safarga bari bir Sohibqironning oyoqlari tortmas, shashtlari past, tunlari dillarida zafar umidini porlatguvchi Ayri Qo‘buz abyoti ham yangramas edi! U zot bunday so‘nuq pallalarda lashkar tortib o‘rganmaganlar.

Saryom shahri yaqinidan Aras suyi oqib o‘tar edi. Bu yerning osmoni sokin, qishning ayoz tunlari uzun va behalovat. Bedor kechalarda Sohibqironning quloqlariga qo‘buz ohanglari kelib urilar, sayr soatlari go‘yo Ayrining arvohi ta’qib etar edi:

„Gunohimizdan kech, ey shoiri devona, zafarimizni karomat qilg‘il...“

Shunday behalovat ayoz tunlarning birida Sohibqiron o‘rda ravvoqidan horg‘in yurib chiqib, sohildagi soy toshiga kelib o‘ltirdilar.

To‘qson edi. Uzoq va ma’yus o‘y surdilar, xotiralar og‘ushida qoldilar. Bu vaqt ulug‘ zotning o‘g‘illari

Shohruh Hirotda hokim, Mironshoh to‘ra Bag‘dodda sulton, nabiralari Sulton Muhammad Kandahorda valiyahd – barini yodladilar. Mashriqdan Mag‘ribgacha hukmlari yurar, yetti yuz mo‘tabar bekzodalar xizmatlarida qoyim, barini yod etdilar. Xirqapo‘sh, nag‘makashning so‘zlarini xotirladilar: „Jahongirlarga bo‘yin egmadim, insonga qulliq qiladurmen...“ Yo‘q, Ayri, afsus, jahongirdan hayiqar eding. Shuning uchun nimanidir aytmading, nimanidir yashirib olib ketding. Nega?

Uzoq va ma'yus o‘y surdilar Sohibqiron. Shunda tonggi sohilning bir bodi badi muxolif kelib, tuslari tag‘ayyur tepib... Falakning yuzi qoraydi...

## **DAHSATLI MAXLUQ**

Mana Afrika!

Kemamiz to'xtagan yurt dengizning qoq qirg'og'i, mangu cho'g'day qizib yotgan mayda toshlar bilan qoplangan, benihoya mungli tekislik. Bu yurt begona nom bilan – Fransuz Somalisi deb ataladi.

Men yosh dostlarimga ana shu yurtda eshitganim bir mudhish voqeani hikoya qilmoqchiman.

\* \* \*

Bizga Jibuti shahrini ko'rsatishi kerak bo'lgan yigit o'zi donakil millatidan bo'lsa ham, ona tili arab tili ekan, oti ham arabcha – Abu-Dib. O'zi soddagina, uyatchanroq, lekin ochiq yigit bo'lgani uchun, unga do'stona, sodda qilib „Dib“ deb murojaat qilardik.

Dib – sarg'ishroq, quyuq jingalak sochli, qirg'iyburun, qotmagina, chuqur botgan ko'zlarida qandaydir eski, yashirin kulfat, hasrat nishonasi kul bosgan qora cho'g'day xira yiltillab turar, endigina yigirmalarga borgan bo'lsa ham, hassa tayanib yurar, cho'loq edi.

– Bundaylarni endi ko'rishim, – dedi Dib mening maktablar, bolalar hayotiga qiziqqanimni eshitib. – Bizga kelgan sayyoohlар: „Dengiz tagidan marjon izlovchi g'avvoslarni ko'rsat, yovvoyi qabilalar bormi?“ deb hol-jonimga qo'ymasdi.

Shaharda maktablar oz, ular ham ba'zi davlatmand odamlarning xayr-ehsoni hisobiga bir amallab ishlab turarkan. Dib bizga shunday maktablardan birini ko'rsatishga va'da berdi.

Biz fransuzlar turadigan serhasham ko‘chalardan, qip-qizil gullagan akatsiya xiyobonlaridan o‘tib, „yerliklar“ mahallasiga bordik. Bu xaroba mahallalarda avvalo ikki narsa ko‘zga tashlanadi: biri – jazirama issiq. Tangaday soya yo‘q, ko‘cha tuprog‘idan, devorlardan jizg‘anak nafasi gupillaydi, havo lovullab yongandek, yomg‘ir ham, kranlardan oqqan suv ham issiq. Ikkinchisi – bolalarning ko‘pligi. Shaharning yevropacha serhasham ko‘chalarida, haligi salqin xiyobonlarda biron ta bola ko‘rmagan edik; ammo bu yerda... Muncha ko‘p bular, yuzlab, minglab! Ularning qiy-chuvilaridan havo doim zing‘illab turganday. Egnilarida kiyim degan narsa deyarli yo‘q, bazan badanlaridagi kiyimmi, ko‘cha tuprog‘imi ajratib bo‘lmaydi. Boyinlari, mumday qora badanlari doim terdan yilt-yilt qilib turadi.

Biz maktab deb kirgan joy uch xonali kichkinagini uy ekan. Ozoda, tinch. Bir xilda, yaxshigina kiyangan bolalar ko‘chadagilarga sira o‘xshamas, negadir keksalarga o‘xshab sopolik bilan, sekin qimirlab, gap-so‘zsiz u yoq bu yoqqa o‘tib turishardi. Bu yerda yigirma oltita baxtiyor o‘qir ekan. Bizni ko‘rganda juda qiziqsinib, dovdirab-javdirab qolishdi. Ularning ko‘plari yetim, qolganlari qashshoq-kambag‘allarning bolalari ekan. Mening ham nazarimda ular sira quvonch, o‘yin-kulgi ko‘rmagan, bolalikdayoq qarib qolganday, chehralari so‘lg‘in, ko‘zlarida bolalikning bebosho‘xligi ko‘rinmas edi.

Bugun bu yerga maktabning homiysi, ya’ni shu bolalarning o‘qishi, kiyimi, ovqatiga necha yildan beri katta mablag‘ ehson qilib turgan janob Deladye tashrif buyuradigan kun ekan. Bu tantanali, qandaydir yashirin tashvishli va odobli jimjitlikning boisi ham shu.

Tasodifhi qarangki, olıyjanob xayr-ehsonchi, bolalar homiysi janob Deladyeni biz ham ko'radigan bo'ldik.

Tarbiyachilar quvonchli sarosimada, yolakchalarda oyoqlari yerga tegmaganday tovushsiz yurib, homiyni kutishga taraddud ko'rар edilar. Ulardan biri – boshiga katta soyabonli, kraxmallangan oq qalpoq kiygan, o'zi qop-qora, keksa arab xotin – homiy haqida og'zining suvi kelib, katta hurmat va hayajon bilan gapirdi:

– Msye, Deladye! O, u kishining saxovat va himmatlarini ta'riflashga til ojiz.

Tarbiyachining aytishiga qaraganda, msye bu yurtga o'tgan asrdayoq ko'ngilli bo'lib kelib, maktab ochgan. Parijdan maxsus ko'ngillilar maktablari uchun darsliklar keltirgan, qanchadan-qancha bolalarni fanga, ma'rifatga maftun etgan ekan.

– Ajrihu Bissavoba! – deb arabcha qo'shib qo'ydi oq qalpoqli xotin.

Msye Deladye izvoshda keldi. U haqiqatan o'tgan asrlik kishiga o'xshardi, juda keksa, boshdan-oyoq qora kiyingan, faqat yoqalari qorday oppoq, yelkaga tushgan uzun sochlari ham oq, yuzi salqi, boshida qora silindr, qo'lida hassa. Tarbiyachilar uni mulozamat bilan salomlashib, qo'ltig'idan ushlab izvoshdan tushirishdi. Keksa msye ko'k tomirlari bo'rtib chiqqan qo'lini ko'ksiga qo'yib, xristian ruhoniylariga xos odatda ko'z qorachig'lari bilangina salomga iltijo qilib, eson-omon yetib kelganiga shukur qildi.

– Shukur, otaxon, shukur, – deyishdi tarbiyachilar unga ta'zim qilib.

Msye maktabga kirganda, tizilib turgan bolalar gup etib cho'kka tushib, peshonalarini yerga tegizishdi. Mehribon homiy ularni bir-bir turg'izib, peshonalaridan

o‘pdi. U chinakam otaxon edi. Bolalarga banan ulashdi. Ularning xursandligini ko‘rib, yasharib ketganday bo‘ldi, xonalarni ko‘rdi, ta’minotni surishtirdi, ko‘ngli to‘ldi. Unga razm soldim: uncha keksa emasga o‘xshardi, ruhoniylarga xos toat-ibodat, qora kiyimgina uni shunaqa keksa qilib ko‘rsatar ekan, shekilli. Janob Deladyening ancha baquvvatligi bilinib tursa-da, o‘zini munkaygan, besh kunligigina qolgan bechora sifat qilib ko‘rsatishga urinardi, chamamda.

Silindrni yechib, uzun oq sochini ikki qo‘llab silab, o‘zi kelganda o‘tiradigan maxsus yumshoq kresloga cho‘kdi, haddi sig‘ib yaqinlashgan bolalarning birini etagiga oldi, biriga popukqand berdi.

Maktabni ko‘rgani kelganimizni eshitib, bizga juda xushnudlik bildirdi. Bu odam birovga yoqmasligi mumkin emas edi. Shunday yayradiki, bolalar bilan inoqlashib kechgacha o‘tiradiganga o‘xshardi.

Biroq bexosdan bizning Dibga ko‘zi tushdi-yu, bir narsa bo‘ldi bu otaxonga. Birdan yuz-ko‘zidan nur, iliqlik qochib, qarib-churib munkillagan chol bo‘ldi-qoldi. Salqi yuzi oqarib, murdaga o‘xhab ketdi, ko‘zlarini xira parda bosdi. Titrab o‘rnidan turdi, hassasini so‘radi.

Dib ham buni sezdi-yu, o‘zini qayoqqa qo‘yishni bilmay, hech narsani tushunmay, xijolatda atrofga alanglardi. Qiziq, unga nima yoqmadi? Tarbiyachilar janobning atrofida parvona edi, xijolat, sarosima...

Dib bizni ketishga shoshiltirib, o‘zi oldin yo‘l boshladi va chiqib ketdi. Biz ham murdaday bo‘lib qolgan janob bilan tovushsizgina bosh egib xayrlashib, chiqib ketishga majbur bo‘ldik.

Nima bo'ldi? Buni tushunish kerak edi. Juda qiziqib qoldim. Buni faqat Dibdan so'rab bilish mumkin, lekin Dibdan gap olish juda qiyin, indamas bo'lib qoldi.

– Bilmayman. Men bilmayman, – deydi xolos.

Ammo payqab turibmanki, bu uyatchan yigit bir muhim sirni bilar edi. Kunda qistayverib, nihoyat, uni gapisirshga ko'ndirdim. Shunda ham u:

– Bir shubham, taxminim bor-u, lekin sizga gapirib bersam, bordi-yu, bu msye o'sha bo'lmasa-chi? Yaxshi odamning sha'niga tuhmat bo'lmasmikan, – dedi xijolatda qiynalib.

– Siz gapira bering, oramizda qoladi, – deya so'z berdim.

– U meni tanigan bo'lishi mumkin emas, cho'loqligimdan qo'rqliq, – deb hikoya qila boshladi Abu-Dib. – Bizni bu yerda „duragaylar“ deb atashadi. Onamiz odatda qora tanli yerliklardan bo'ladi, otamiz esa – „oq“. Biz ularni tanimaymiz, bizning tug'ilishimiz – tasodif, tirik qolishimiz bo'lsa – mo'jiza. Bizni „qora“lar ham o'z qatoriga qo'shmaydi, „oq“lar ham. „Duragay“ degandan ham qattiqroq haqorat yo'q.

Men xunuk bir kampirning uyida, belanchakda esimni tanidim. Odam esini taniguncha belanchakka yotadimi, dersiz. Ha, men shunday zaif edimki, besh-oltiga kirganimda ham kampir meni belanchakda belab boqar edi. Biz to'rttami-beshta edik. Bizga kampir chaynalgan nonni lattaga o'rab emizar, kecha-yu kunduz qarg'ar edi.

– O'lmaydi-ya, Xudoyo Xudovando, muncha joning qattiq, yer yutkur, duragay! – der edi basharamizga qarab.

Biz kun-tun yig‘lar edik, u bo‘lsa bizga o‘lim tilar edi-yu, lattani tag‘in og‘zimizga tiqardi. So‘rila berib lattadagi nonning ta’mi qolmagach, u soqqadek loyga aylangan bo‘lardi. Men keyin tushundimki, kampir bizga o‘lim tilasa ham, o‘ldirgisi yo‘q. U biz tufayli kun ko‘radi. Bordi-yu, o‘lib qolsak, bizning ko‘zga ko‘rinmas otalarimiz unga haq to‘lamay qo‘yadi. Biz ma’lum davrgacha o‘lmasligimiz zarur – toki go‘dak ekanmiz, kampirning nasibasimiz. Lekin ma’lum davrga borib o‘lishimiz ham shunchalik zarur, chunki daromad keltirmay qo‘yamiz, bizning o‘rnimizga kampir duragayning kichikrog‘ini, chaynalgan non so‘rishga ko‘nadiganini oladi. Shuning uchun kampirning o‘sha lattasi bizning hayot shamimizni o‘zi istagancha boshqaradi: istasa – xiragina yondirib turadi, istasa – so‘ndiradi.

Shunday qilib, men oltigami-yettigami to‘ldim. Endi o‘chirilishim kerak edi. Buni fahmlab yotgan kunlarimdan birida baxtim ochilib qoldi.

Kampirning hujrasiga boshdan-oyoq oq kiyangan bin janob keldi. U juda baquvvat, yuzlari oppoq, ko‘zi o‘tkir, serharakat bir kishi edi.

Men sizga taxminimni aytgani qo‘rqaman. Agar bu o‘sha janob Deladye bo‘lmay boshqasi bo‘lib chiqsa, mening hikoyam unga tuhmat bo‘ladi...

Abu-Dib hassasi bilan qum chizib, o‘ylab qoldi. Biz Qizil dengiz yoqasida tosh yonida o‘tirar edik. Nariroqda beliga bir parcha latta tutgan ozg‘in odamlar dengiz tubidan tuz kurab, xirmon qurmoqda. Oppoq tuz xirmonlari orasida ularning qora tani, sho‘rlab, yorilib ketgan boldirlari oftob chog‘ida yiltillab ko‘rinar edi.

Dib davom etdi.

— Janob Deladyega bola kerak ekan. Kampir xuddi ashaddiy savdogarlarday mollarini maqtay ketdi. Lekin janob u maqtagan bolalar oldiga bormay, to‘g‘ri mening yonimga keldi. Men kampirning hayratiga tushunib turibman: meni nima qiladi bu janob? Men bu bolalar ichida eng zaifi bo‘lsam... Uning ustiga, tug‘ma cho‘loqman... Yo‘q, janob meni oldi. Shundan keyin mening yangi hayotim boshlandi.

Janob Deladyening ham uyi bir chekka mahallada joylashgan bo‘lib, qorong‘i, zax hujra edi-yu, lekin kazarmaday katta, keng edi. Bu yerda biz ko‘pchilik edik, yigirmadan ortiq bola. Qornimiz to‘q, janob meni yaxshi boqdi, kuch yig‘ib baquvvat bo‘lib ketdim. Qurg‘oqchilik, ochlik yili bunday omad hammaga ham nasib bo‘lavermaydi. Men janob nima ish buyursa, hammasini qilishga tayyor edim. U bo‘lsa menga nuql oson ish buyuradi: „Falon kvartalga borib, falon atelyening muyulishida, qo‘ltiqtayog‘ingga suyanib, qalpog‘ingni yerga to‘ntarib qo‘yib, kechgacha tur“. Bundan oson ish bormi, deyman o‘zimcha, qorin to‘q bo‘lsa! Hali tubanlik nimaligini bilmaydigan yosh bolaman-da.

Shunday qilib, bu ishning havosini bilib oldim. Janobga har oqshom bir qalpoq qora chaqa keltiraman. Kechalari bo‘yrada maza qilib uxbol olamiz, ertalab yana ishga ketaman.

Avvallari men bu yerdagi boshqa bolalarning nima qilishini bilmasdim. Keyin payqasam, ular ham boshqa mahallalarda xuddi men qilgan ish bilan band ekanlar. Keyin-keyin men yana ko‘p narsani payqadim. Razm solsam, o‘rtoqlarimning deyarli hammasi mayib ekan. Menday cho‘loq – yo qo‘li yo‘q, yo bukur, yo bo‘yni qiyshiq... Meni vahima bosa boshladи. Qayerdan toplangan

bular?.. Orada juda xunuklari, ko'r va qaltiroqlari ham bor edi. Bora-bora men yomon tushlar ko'ra boshladim. Bir kuni kechasi bosinqirab qichqirib yuboribman. Qarasam, bolalar hammasi uyg'onib, meni o'rab o'tirishibdi. Bu eng dahshatli tushdan ham qo'rqinchliroq edi: bari tungi ko'yakda, birining suyagi turtib chiqqan, birining oyog'i shalvirab eshilib ketgan, birining qaltirog'i tutib, og'zidan ko'pik oqib turibdi. Hammasi menga qaraydi; menga rahmlari kelib qarashyapti shekilli-yu, yuragimni sovuq vahima changallab, burchakka tisarildim.

— Sizlar... kimsizlar? Qayoqdan to'plangansizlar? — dedim tilim zo'rg'a aylanib. Ular indashmadid. „Sog' ekan“ deb qanoat hosil qilishdi chog'i, joy-joylariga tarqab ketishdi.

Shundan keyin kechalari sira uxlay olmaydigan bo'ldim. Atelye tuyulishida qo'litiqtayog'imga suyanib, kunduzlari sal mizg'ib olaman. Shu sababdan ham ba'zi kunlari qalpoq to'lmaydigan bo'lib qoldi. Janobning juda dahshatli maxluq ekanini ana shunda angladim.

— Qani pulning qolgani? — dedi u kechqurun. U yig'gan pulimizni o'z xonasida, yolg'iz o'zi sanab olar edi. Bu xonaga boshqa vaqtida bizning kirishga haqqimiz yo'q. Bu xona ham biznikiday zax, qorong'i-yu, lekin kichikroq. Janob unda o'zi turadimi-yo'qmi, bilmasdik; ammo pulni qabul qilish vaqtida doim shu yerda hozir edi.

— Qolgani qani deyman, itvachcha! — takrorladi janob, ko'zlariga qon quyulib ketdi. Qayoqdandir, o'tirgan kursisining yonidan bir yog'och asbob olib, mayib oyog'imni iskanjaga oldi. Buni shunday tez qildiki, men payqamay ham qoldim.

— Ayt! — dedi tish orasidan vishillab. Og'riq yuragimga borib sanchildi. Bu shunday og'riq ediki,

bir zumda badanim qirov bosganday sharros suv bo'ldi. Keyin birdan og'riq bitdi-yu, meni shunday dahshat chulg'adiki, bu og'riq yana takrorlansa, albatta o'lishimni bo'yninga olib qo'ydim. Muyulishda ko'zim ilinib qolganini aytib, aybimga iqror bo'ldim va janobning qarashidan tushundimki, endi unday mizg'ish mening ajalim bilan teng ekan.

Lekin kechalari baribir uyqu yo'q edi. Yog'ochday qotib yotganim-yotgan. Bir kuni yarim tunda go'dak bolaning ingrashi qulog'imga chalindi. Jinni bo'lib qoldimmi, deb oyladim. O'sha ingrash bir necha marta takrorlandi. Endi men bu tungi dahshatli chinqiroqning goyibdan qulooqqa chalinayotgan tovush ekanligiga shubha qila boshladim. Chunki aqlim joyida edi, kasal emasman.

Shu xilda kunlar o'ta berdi. Bizning to'damizga yangi-yangi mayiblar qo'shilardi. Biz shaharning ko'cha, maydon va mahallalarini aniq reja bilan bo'lishib olgan edik. Menga buni haligi og'zi ko'piklanadigan, tutqanoqli bola tushuntirdi. Janob shunday kuchli, obro'li, badavlat odam ekanki, shaharda bizdan boshqa hamma tilanchilarning urug'ini quritibdi. Butun shahar bizniki. Mayib tilanchi sheriklarimning ba'zilari bu bilan faxrlanar ham edi. Ular orasida janobning sodiq aymoqchilar ham yo'q emas edi. Faqat tutqanoqli bola bilan men bir-birimizning ko'nglimizdagini ko'z qarashimizdan tushunib, bu fojeali tubanlik fabrikasiga, uning dahshatli xo'jayiniga zimdan nafrat saqlab yurardik. Lekin biz ham ichimizdagini bir-birimizga ochiq aytishga jur'at qilolganimiz yo'q.

Bir kuni kechasi haligi achchiq ingrash yana takrorlandi. Men chiday olmay o'rnimdan turib, alanglay boshladim. Shunda tutqanoqli bolaning ho'l, yopishqoq

qo‘li yelkamdan bosdi. Undan qo‘lansa ter hidi gupillab turardi. Yotdim.

– Nima bu? – deb pichirladim, unga tovush chiqqan eshikni imlab.

– Janob mayib tayyorlayapti... – dedi u ham pichirlab va darrov qo‘li bilan og‘zimni to‘sdi. Qichqirib yuboradi deb o‘yladi shekilli. Mening miyam falaj bo‘lib qoldi. Tilim shishib ketayotganday edi. Sherigim ahvolimi sezib, nam barmoqlari bilan qo‘limni ushladi. „O‘zingni bos, esingni yig““ demoqchi bo‘ldi, chamamda. Anchadan keyin pichirlab ogohlantirdi:

– Qochishni kallangdan chiqarib tashla. Qayerda bo‘lsang ham yo‘q qildiradi. Sendaqalar bo‘lgan...

Lekin men o‘limdan emas, o‘sha kechasidagi ingrashning takrorlanishidan qo‘rqardim, xolos. Axin birov, soppa-sog‘ go‘dakni olib kelib, yonginangda oyog‘ini yo qolini sindirsa, iskanjada majaqlasa, bunga tirik odam quloq solib yota oladimi, o‘zingiz ayting...

Abu-Dib allaqanday bo‘lib, ko‘karib ketdi. Qo‘lidagi bambuk hassa qirsillab, darz ketdi. Labi titrab, yuzining allaqayerida tomir tortishdi. Men uni ortiq gapirishga unday olmadim. Uning bu do‘zaxdan qanday qochib qutulganini juda bilgim keldi-yu, so‘rashga botinolmadim. Chunki menga qaraganida ko‘zida shunday g‘ussa, alam, yolvorish va umid chaqnab ketdiki, unga yana gapir deyish odobsizlik bo‘lardi. Hozir unga sukut zarur edi...

Ikkinci kuni ham uni o‘sha parishon holda uchratdim. Kechasi bilan uxlamaganga o‘xshaydi. Uning janob Deladyega duch kelishiga sabab bo‘lganimga pushaymon qildim. Chunki uning unutayozgan bolalik dahshatlari qayta yodiga tushdi. Menga shunday tuyuldiki bundan keyin u buni sira ko‘z oldidan ketkaza olmaydi

bu xotiralar uning chuvakkina vujudini bir umr qiyaydi, azob beradi.

— O'sha, — dedi u ishonch bilan, — endi men sizga aytaman. Aytmasam, ko'nglim bo'shamaydiganga o'xshaydi. O'sha, janob Deladye. Endi u har cho'loqni, har mayibni ko'rganida shunday murda singari oqarsa kerak. Maktabga xayr-ehson qilishi esa qariganda o'zining vijdon azobidan qutulish uchun chora qidirishi. Bu dunyoda go'daklar joni, go'daklar azobi evaziga rohat ko'rib, endi u dunyoda ham go'daklar duosi evaziga ruhini pok qilmoqchi. Go'rga kirishiga ko'zi yetganda u dunyoligining g'amini yeapti...

Men qora surtuk, oq yoqa, yaltiroq shayton teri qoplangan silindrni, samoga beozor tikilgan savobtalab ruhoni basharani ko'z oldimga keltirdim.

Dahshatli maxluq...

## KAKTUS

Pirey portidan Yunoniston poytaxti Afinaga qadar o'n besh chaqirimcha mashinada yuriladi. Bu juda chiroyli yo'l. Zangori dengiz orqada qolgandan keyin ikki tomonda qadim Elladaning o'rkach-o'rkach bo'lib ufqqacha tizilib ketgan yam-yashil qirlari boshlanadi.

Biz birpas tomosha qilaylik, deb gavjum bir daraxtzorda avtobusni to'xtatdik. Bu yerda boshqalar ko'p go'zalliklarni tomosha qilishdi-yu, lekin men bir yunonning g'alati ishiga alahsib hech narsa ko'rolmay qoldim.

Bu, yigirma beshlarga kirgan, qop-qora, chayir yigit edi. Daraxt soyasiga joylashib olib, g'ildirakli qutichada kaktus sotayotgan ekan. Kaktus degani chuchmalroqqina bir arzon meva. Mening hayratda qolgan joyim shu bo'ldiki, haligi baquvvat yigit mana shu bemaza mevaning bir donasi tufayli yupungina bir xaridor bilan astoydil janjal boshladidi. Nima ham bo'lib xaridorning etagiga ortiqcha o'tib ketgan bir dona kaktusni qaytib olmaguncha shovqin qilaverdi haligi yigit.

Unga tikilib qoldim. Yosh, kelishgangina bo'lishiga qaramay, juda qurumsoq ekan, deb o'yadim.

Yo'q, bir lahzadan keyin bu fikrimdan qaytdim. Shu atrofda chopqillab o'ynab yurgan bolalardan biri, yuz-qo'li kir, jajjigina qizcha, yigitning yonida to'xtab qutichasiga suq bilan qarab qoldi. Shunda yunon kaktusning pishgan-pishganidan tanlab, uchtasini haligi begona bolaning etagiga solib berdi.

– Bor, jo'na! – dedi u va yana qichqirib molini maqtay ketdi: – Kaktus! Og'zingizda erib ketadi, kaktus!

Yozuvchilar ko‘pincha odamdagи ana shunday, bir qarashda mayda va tushunib bo‘lmaydigan qaramaqarshiliklarga, odam ruhiyatining sezilar-sezilmas mavjlariga e’tibor qilib qoladilar. San’atkorlik didi bilan bir nimani payqaydilar, chog‘i. Ko‘pincha bundan katta narsalar kelib chiqadi. O‘sha yozuvchi sezgan narsa ba’zan chindan ham odam hayotidagi muhim voqealarga borib ulanadi.

Nazarimda, haligi yigitda bir gap borday tuyuldi-yu, afsuski, u Afina yo‘lidagi kashtan soyasida qolib ketdi-da.

Avtobusimiz jonadi. Biz yana qadim Elladaning go‘zal qirlariga mahliyo bo‘lib, derazalariga tikildik.

Men hamon kaktus sotuvchi yigit haqida oylar edim. U nega shunday qildi? Bir dona meva uchun kambag‘al bir xaridor bilan shuncha janjal qildi-yu, begona bolaga bir etagini tekinga berib yubordi? Bola-chaqani yaxshi ko‘rar ekan-da, nimasi bor, dedim ozimcha. Lekin bu xulosadan o‘zim qoniqqan emas edim. Ikki kundan keyin uning o‘zini tasodifan yana uchratmaganimda bu hikoya yozilmay qolgan va men ham o‘zim guvohi bo‘lgan voqeanning mohiyatiga tushunolmay qolgan bo‘lar edim.

Bu safar u Akrapol qasrining vayrona zinapoyasida duch keldi. Yana o‘sha quticha-aravasida kaktus sotayotgan ekan. Meni tanib, jilmaydi. Gaplashib ketdik. Men o‘zimni bir necha kundan beri qiyanagan savolni shartta o‘rtaga tashladim.

— E-e, girios<sup>1</sup>, — dedi yunon, — bola narsa ovqatga suq bilan qaradimi, rayini qaytarish yaramaydi. Vaqtingiz ziq bo‘lmasa, men sizga boshimdan kechgan bir voqeani aytib beray.

---

<sup>1</sup> girios – birodar (*yunon*).

Bu yigit ancha sergap chiqib qoldi. Men „xo‘p“ deb, shu yerda yumalab yotgan Parfenon marmariga o‘tira qoldim. O‘zim ham charchagan edim. Qaysi mamlakatga borsangiz, odat shu ekan, sayyoohlarga nuqlu qadimiy vayronalarni ko‘rsatishadi. Men bundan zerikib ketgan edim, navbatdagi tomoshalardan voz kechib, shu sergap, sodda yigitning hikoyasini tinglashni ma’qul topdim.

— Men endi o‘n beshga qadam qo‘ygan edim, — deb boshladi hikoyasini yigit, — lekin Marafon tog‘larining har bir so‘qmog‘ini ko‘z yumib borib ham topa olardim. Shuning uchun tog‘ga qochgan vatanparvarlar menga ancha og‘ir topshiriqlarni topshirishar edi.

Bir kuni qishloqdan tog‘ga bir qop kaktus eltib berishni buyurdi „bobo“. Bu kishi yoshgina bo‘lsa ham, biz uni „bobo“ derdik, komissar deyish taqiqlangan edi. „Xo‘p“, dedim. Dedim-u, tanim jimir etib ketdi. Kuppa-kunduzi, yo‘llar xavfli, dushmanlar izg‘ib yuribdi, har so‘qmoqda ro‘parangdan chiqib qolishi mumkin. Lekin „xo‘p“, dedim. Tog‘dagilar och, o‘simplik tomirini yeb kun o‘tkazishayotganini bilardim (non bo‘lsa qishloqda ham yo‘q). Bir qop kaktus, har biriga bittadan tegsa ham, tog‘dagilarning bir kunlik tirikchiligi degan gap edi. „Xo‘p“, dedim.

Lekin menga qayoqdagi bir bolani qo‘shib berishdi. Navbatlab orqalaysizlar yoki zambil qilib olasizlar, deb. Men bu shal pangqul oq bolani yomon ko‘rardim. Polizdan qizilcha o‘g‘irlardi, bilaman. O‘sha, Kosta degan bola.

Tog‘ga chiqqanda zambilning orqa tomoni og‘ir bo‘lmaydimi, toza adabini yedi. Uni oldinga qo‘yay desam, yo‘l bilmaydi. Qarasam, chakka tomirlari bo‘rtib, ko‘zi chiqib ketayotganday ko‘rindi. Oyog‘i tiyg‘anib,

toshlarni shitirlatadi. So‘kay desam, rahmim keladi, u juda ozg‘in, bo‘yni, oyoqlari ingichka edi.

Tog‘ o‘tlari sarg‘ayib, tikanaklar zaharday san-chiladigan payt. O‘ngirlar jimjit. Orqamda Kostaning hansiragani eshitiladi.

– Birpas to‘xtaylik, – yalindi u.

To‘xtadik. Kosta o‘tirarkan, yiqilib ketay dedi. Uning boshi aylanayotgan ekan.

– Oftob urdimi?

– Yo‘q!

– Ochmisan?

– Yo‘-o‘q. Gullarning hidi yoqmaydi. Qovjiragan tog‘ gullari... ko‘nglim aynab ketdi.

Men qop og‘zini ochib, kaktusni jindak shamollatdim. Mevaning dimog‘ni qitiqlaydigan shirin hidi havoni tutib ketdi. Men beixtiyor „qult“ etib tupugimni yutib qo‘ydim. Buni ko‘rgan Kosta menga g‘alati qilib qaradi, bo‘yni cho‘zilib, yana ham uzun bo‘lib ketganday ko‘rindi ko‘zimga.

Yo‘q, meni hech qanday shirin hid alday olmaydi. „Bobo“ning bu ishga meni tayinlagani ham bejiz emas. Men chidamli, chiniqqan, dag‘al, irodali bolaman. Buni kattalardan eshitganman. Yetib borguncha kaktusning bittasiga tegadigan bo‘lsam – vijdonsizman!

Men qasam ichayotganday pichirlardim. Yo‘l tobora tikkalashar, chaqir tosh oyoqqa botar edi. Charchadim. Agar shunday paytda kaktusning bir necha tomchi shirasini tilga tomizsang bormi, tog‘ni talqon qiladigan bo‘lib ketasan, kishi. Lekin yo‘q, bu shaytonning gapi. Shayton pichirlayapti quloqqa. Qopdagi kaktus tog‘dagilarning hammasiga yetishi kerak, bir donadan bo‘lsa ham. Bir donadan bo‘lsa ham. Bir dona...

Orqamda Kostaning pishillashi eshitiladi. Negadir birdan jahlim chiqib ketdi. Nega buni menga qo'shib berishdi-ya! Nainki mening chidamliligimga shubha qilishgan bo'lsa! Bu meni sinab, kuzatib borayotganday, chamamda. Kim o'zi bu? Kosta, qizilcha o'grisi! U hatto mendan bir yosh kichik ham! Shu meni sinov qilarmishmi?!

Biz yana to'xtadik. Quyosh pasayib bormoqda edi. Tungacha yetib borib bo'ladimi-yo'qmi? Tog'-tosh oshib, holdan toyib yetib borsang-u, jon boshiga bittadan yetmay qolsa. Yo'q, yetishi kerak. Bittasiga tegmayman. Tegdirmayman ham.

Men yana qopni ochib shamollatdim. Kosta joyidan qimirlab qo'ydi. Buncha tikiladi bu?! Cho'zinchoq yuzining allaqaysi payi tortishib, kekirdak suyagi bin yuqoriga chiqib tushdi.

– Bittasi urinib qopti, buzilmasmikan? – dedi u Men mevaga qaradim. Har kaktuslarki, qizarib, shiraga to'lishib, bilqillab turibdi. Bittasini bo'lib yesa, bilinmas edi hamku-ya... Lekin yo'q, Kosta boshlasin. Menga to'gri kelmaydi. Kosta boshlasa mayli. Lekin u jur'at qilmayapti. Uh tortadi xolos.

– Ha, charchadingmi?

– Yo'q, sen yursang yuraveraman.

Orqamda uning oyoq tovushini eshitaman. U oyog'in sudrab bosyapti. Qayrilib qaramasam ham bilib turibman qopdan ko'zini uzmayapti, ko'z qorachiqlari kengayib ketgan...

Men nima qilganimni o'zim ham bilmay, zambiln taq etib qo'yib, orqamga qayrildim-da:

– Buncha tikilasan, so'lagingni oqizib! – deb qichqirib yubordim. Kostaning nam ko'zlar yerda edi.

— O‘zing ham qarading-ku, qaragan bilan kamayib qoladimi?

— Men qachon qaradim?

— Sen menga ishonmaysan. Ko‘tar! Qani, kim birinchi aytarkin, dam olaylik, deb.

Men uni ayab, bu safar o‘zim orqaga o‘tdim. O‘tdim-u, pushaymon yedim: Kostaning tebranib ketayotgan qoq yelkasini, so‘nggi darmoni bilan qaltirab bosayotgan ingichka oyoqlariga qirrali tosh bosganda yelka chuquridan ter oqqanini doim ko‘rib borish mening asabimni charchatib yubordi.

Lekin Kosta to‘xtamas edi. Men bo‘lsam, to‘xtaylik, deyishga nomus qilardim. Lekin tizzam qaltirab, cho‘kkalab qoldim. To‘xtadik. Men darmonim yetsa, sira to‘xtamas edim. Har to‘xtaganda kaktusga ko‘z tushib, bittasini yejish kerakmi-yo‘qmi, deb o‘ylay beradi odam. Kostaning qopga tikilishi bo‘lsa, odamning yurak-bag‘rini tilib yuboradi.

Lekin bu safar Kosta qopga qaramadi. Kekirdak suyagi ham qimirlamadi. Uning sovuq ter bosgan yuzi qoyatoshdek oppoq edi. Bu yerda gul hidi ham yo‘q, baland tog‘ havosi toza. Kostaning og‘zi ochiq, yupqa qonsiz lablari titrar edi.

— Kosta, ol, bittadan yeymiz, — dedim men uning ahvolidan qo‘rqib. Dedim-u, o‘zimdan o‘zim xafa bo‘lib, ta‘bim xira bo‘lib ketdi. „Uning ahvolini bahona qilib o‘zing ham yemoqchisan“, deganday bo‘ldi kimdir qulog‘imga. Shu vaqt Kostaning „yo‘q“, deb bosh silkiganini ko‘rib, o‘z-o‘zimga g‘azabim yana oshib ketdi. O‘zimga o‘zim juda ayanch ko‘rinib ketdim.

Shundan keyin Kosta o‘rnidan turolmadi. Shu yerda tunab qolamiz shekilli, dedim atrofga qarab. Kech ham

kirgan edi, darrov oy qalqdi. Kostaga tikilib yuragim shu etib ketdi: oy yorug‘ida u murdaday ko‘rindi ko‘zimga burun kataklari katta-katta, yonoq suyaklari toshning qirrasiday turtib chiqqan...

Ertasiga men Kostaning o‘ligini orqalab lagerga yeti bordim. Doktor uni ko‘riboq ochlikdan o‘lganini aytdi. Ko‘mish paytida men hushimni yo‘qotgan ekanmar chashma suvi bilan hushimga keltirishib, qo‘limga bitti kaktus berishdi. „Hammaga yetibdi. Jon boshiga bittadan Yetibdi...“ derdim o‘zimcha. Lekin qo‘limdagi kaktusga qarab birdan ko‘nglim ag‘darilib ketdi. Qo‘limda yumalab tushdi. Oyog‘im bilan ezib tashladim-dan nariroqqa ketdim. Kaktus hidi ko‘nglimni behuzu qilardi...

Shundan beri kaktus yemayman. O‘siraman sotaman-u, lekin yemayman. Bu juda qiyin, giriros!

– Boshqa ish qilsangiz bo‘lmaydimi? – so‘radim unga achinib.

– Nima ish? Qani ish?.. – dedi u qo‘llarini yoyib.

Biz jim qoldik. Akrapolning qadim vayronalar orasida ajnabiylarning sayyoohlarning gurungi eshitilar edi. Hazi bir o‘y keldi boshimga: bu yigitning ko‘nglida nimad kechyapti-yu, u yerdagilar nimalarni gaplashishyapti. G‘alati. Bir-biridan uzoq ikki dunyoda..

## QANOTI SINGAN ORZU

To‘rt motor – har biri uch ming ot kuchiga ega bo‘lgan to‘rt motor birin-ketin harakatga kirib, pag‘a pag‘a ko‘k tutun purkab, bizni osmonga olib chiqib ketdi. Ufq doirasi birdan chekinib, uzoq-uzoqlarga ketib qoldi. Pastda, zaxira maydonidan qizil sisternalarni sudrab, kompressorni oldiga solib ketayotgan traktor xuddi chumolidek bo‘lib ko‘rinardi.

Saygon aerodromi ko‘m-ko‘k parda ostida qoldi, biz Tokio tomon yo‘l oldik. Oppoq momiq to‘shalgan cheksiz sahro yuzi goh-goh o‘pirilib, tubsiz zangor quduqlar ko‘rinar, biz darrov okeanga chiqib ketgan edik.

Men, xuddi ko‘zoynakning bir pallasiday plastmassa gardishli derazaning ipak pardasini surib qo‘yib, bulutlarning rango-rang tovlanishini tomosha qildim. Ba’zan, oydinga chiqib qolganimizda, botayotgan quyoshning olovli gardishi okeanning bir chekkasini yondirayotganday ko‘rinar, u g‘oyib bo‘lganda esa bulutlar tepasidagi cheksiz qorong‘ilikning sirli dahshati yurakka sovuq qo‘rquv solar edi.

Derazadan ko‘zimni oldim. Ichkari yorug‘, issiq, qayerdandir siren hidi kelib ketdi, yo‘lovchilar bermalol yechinib o‘tirib, bahs, suhbat boshlashgan: kimdir chekar, kimdir kular, kimdir bolasini erkatalardi... Xuddi uydagiday.

Ro‘paramdagagi kursida sakura gullik kaltagina ko‘ylak kiygan yapon qizi chiroyli boldirini ko‘z-ko‘z qilganday, oyoqlarini bir-birining ustiga tashlab, jilmayib o‘tirar edi. Undigina o‘n beshga to‘lgan bo‘lsa, ehtimol, lekin yetuk

qizning husni bor edi istarasida. Men unga uzoqroq qar qolgan bo‘lsam kerak, yonimda o‘tirgan onasi yengimdu shishlab shivirladi:

– Chiroylimi, mening Xakkayam? Juda chiroylimi shunday emasmi?

Onaning o‘zi ham qiziga suq bilan tikilib qoldi Xakkaya chindan ham go‘zal edi. Bodom qovoqlarini ostida ham qora chiziq, qisiq ko‘zlari ustida ham qo‘chiziq – ingichka qiyg‘och qoshlari. Ikki yuzida, nozurlari kulgichi; saqichday qora quyuq sochi ikki qubba qili boshiga turmaklangan. Qizcha o‘ziga qarashayotganini o‘zining go‘zalligini o‘zi ham g‘urur bilan his etti „mana, ko‘ringlar“, deganday, dam yoniga burilar, da derazaga qarash bahonasi bilan tikka turib, yosh bambay poyasiday kelishgan, nozik qaddini rostlab ko‘rsatdi. Men bunday nafis va har jihatdan mutanosib bo‘bastni go‘zal san’at asarlarida yoki balet sahnalaridagi ko‘rganman.

– Xakkaya raqqosa bo‘lsa bo‘ladimi nazaringizda? deb so‘radi onasi ko‘nglimdagini uqqanday.

– Ha, juda ajoyib raqqosa yetishib chiqadi undan! dedim men ham shavq-zavqimni yashirolmay.

– Albatta bo‘ladi, – dedi ona ko‘zida baxt nusqa chaqnab, – Xakkaya hozir baletga o‘qiyapti.

Men bu go‘zal qizning o‘ziga munosib go‘zal san’at tanlay olganidan, hayotda o‘rin topganidan, oddiy yapsa xotinning onalik quvonchidan ko‘nglimda rohatbaxsh bo‘soyish sezdim. Ishqilib, toleying yor bo‘lsin, qiyg‘o‘qoshli qiz!

Mening o‘ng yonimda ko‘rinishdan juda asabiy bo‘dam o‘tirar edi. Qizchaning kelajagini, baxtini gapirg‘animizda ko‘zoynagini olib, zahil yuzini burishlirib,

oralagan baroq qoshlari ostidan bizga bir-ikki tikilib qo‘ydi. Uning millatini bilolmadim-u, biz inglizcha gaplashganimiz uchun u ham shu tilda so‘z qotdi:

– Kamroq va sekinroq gaplashishlaringdan umid qilsam bo‘ladimi?

Zahar sirqib turganday sariq ko‘zli, yupqa titroq lablari doim ko‘piklanib turadigan bu odamga hech narsa yoqmas, birovning quvonchi esa asabiga tegar edi.

– Bu sabilning karyerasi haqida qag‘illashga hali baribir vaqt erta, optimist janoblar, – dedi u ustiga to‘nini tashlab.

– Xakkayaning kelajagi real... – deb o‘z mulohazamni boshlamoqchi edim, haligi odam qo‘l siltadi.

– Urush!.. Hozir eng real narsa – urush, janob! – dedi-da, boshi bilan burkanib oldi.

Men yapon xotinning vujudi titrab ketganini sezdim, ko‘zida qandaydir yashil yolqin ko‘ringanday bo‘ldi, chehrasidan nur qochdi, xavotir bilan qiziga tikilib qoldi. Men ham o‘tirolmadim, tanim qizib ketdi. Indamay, onaning kursi tayanchidagi qo‘lini „tetik bo‘ling“ deganday mahkam qisdim-u, o‘rnimdan turdim.

Pilot kabinasiga kirdim. Bu yerda mening ajoyib oshnam bor edi. Pilot Jerar, fransuz; u „Normandiya – Neman“ eskadrilyasida mening halok bo‘lgan akam bilan birga xizmat qilgan. Biz Jerar bilan Stokgolmdayoq topishdik. Rimda ham, Karachida ham birga qahva ichdik, aeroportlarning dim yotoqxonasida tunadik. Mana hozir u yarim oyday yaltirab turgan shturvalga qo‘lini qo‘yib, ro‘parasidagi son-sanoqsiz lampa, plastmassa tugmacha va siferblatlarning ko‘k, qizil, binafsha shu'lalariga tikilib o‘tiribdi. O‘z qobiliyatlarining oliy nuqtasida. Biroz g‘amgin, kansuxanligi mardona qiyofasiga juda munosib

tushgan. U okean ustida cheksiz bulut olamini yorib sakkiz ming metr balandlikda uchayotgan ellik tonnalik gigant bilan birikib ketganday, bir vujudday bo'lib ko'rinar edi.

— Meteosvodka! — dedi u ko'ksidagi mikrofonga Shunda meni ko'rib jilmaydi, yonidagi qizil charm qoplangan to'garak kursini ko'zi bilan ko'rsatdi: „O'tir!“

Qorong'i tunni ba'zan chaqmoq tilib o'tadi, tubsiz bo'shliqda shamol quturadi, motor tovushi uzluksiz momaqaldiroqday guvillaydi.

Ko'p o'tmay oq bulutlarga bosh qo'ygan to'lin oy ko'rindi, qanotlarda yupqa muz qatlami yaltilladi. Jerar men tomon o'girildi.

Men uning xronografiga qarab, soatimning milini yarim kun oldinga surdim.

— Geografiya faktlari ham teskari bo'lib ketdi, birodan bu zamonda, — dedi u norozilanib.

— Nechuk?

— Mana, siz Yaponiyaga borish uchun sharqqa emas avval g'arbg'a — Shvetsiyaga qarab uchdingiz, keyin janubga... Frankfurt, Karachi, Saygon orqali yurib, bish yarim soatlik yo'lni olti kunda bosib kelyapsiz.

— Haqiqatan... — dedim men, — Moskva elchisi Nikolay Safariy 1675-yilda „Sibirdan o'tgach, okean-dengizda Ispan yeri bor“, deb yozgan ekan. Yaponiya Rossianining yaqin sharq qo'shnisi ekanligini o'sha vaqtdayoq yaxshiblishgan. Lekin bizning raketa asrimizda buni tanolmaydiganlar chiqib qoldi...

Men Jerar bilan suhbatlashishni yaxshi ko'rardim Ko'pni ko'rgan, aqli yigit.

Lekin bu safar radiooperator suhbatimizni bo'ldi. U qabul apparatining odatdag'i betinim „ti-ti-ta, titi-ta“sin

o'chirib, shturmanga yaqinlashdi. Rangida qatra qon yo'q edi. Avval tili aylanmayotganday, telba ko'zlarini tikib, ancha turib qoldi.

- Radiogramma... – dedi-da, yana tindi.
- Gapir!
- Radiogramma... Tokio beryapti: samolyotimizda mina bor ekan... soat olti-yu ellikda portlashi kerak.

Men radistning yuzidagi dahshatga tik qaray olmadim. Ko'zim soatga tushdi. Katta qora xronograf siferblatda ko'k fosfor shu'lasi bilan yonib turgan raqamlar ustida tirik narsaday titrab, beshdan o'n daqiqa o'tganini ko'rsatib turar edi. „Demak, hali qirq daqiqa bor. Qirq daqiqa. Qirq daqiqa“ degan so'zlar beixtiyor takrorlanar edi miyamda. Nazarimda, boshqa narsaga noqobil bo'lib qolgan edi.

- Qayerdamiz? – so'radim Jerardan.

U indamadi. Peshonasida no'xatday-no'xatday ter tomchilari. Ko'zi altmetrga qadalgan. Temirdan yasalganga o'xshardi, bu odam. Dahshatli xabarni eshitib, o'rnidan ham qimirlamadi.

– Okinava bilan bog'lan! – deb qichqirdi u mikrofonga. Lekin radist buni buyruqsiz ham qilib ko'rgan, hozir u yana shturman yonida titrab turardi.

– Yo'q, Okinava yo'lovchi samolyotini qabul qilmaymiz, deyapti.

– Yaponmisan axir? – so'radi Jerar shturvalni tirnoqlari botguday qisib.

- Ha. Aytdim, lekin... – dedi boshini quyi solib.

U go'yo suyaklari majaqlab tashlanganday, qo'llari osilib tushgan, ko'zida hayot yo'q, juda ayanch, aftidan, bu dunyodan umid uzib ulgurgan edi.

- Samolyotda biror zot bilmasligi kerak, eshitdingizmi? – buyurdi Jerar uni silkib. Keyin menga qaradi:
  - Hali o'ttiz sakkiz daqqa bor. Minani izlang! Yo'lovchi saloni sizga, janob. Lekin bilib qo'ying, yo'lovchilar payqab qolsa, halokat muqarrar.

„Demak, hali-hozir halokat muqarrar emas, ekan“, deb ko'nglimdan o'tkazdim. Men Jerarga negadir, juda ishonar edim. Bu odamning tetikligi, qat'iyligi menga ham kuch bag'ishladi. Yo'lakda oynaga qarashga yuragim betlamay to'g'ri yo'lovchilar yoniga chiqdim. Basharam qanaqa ekan, o'likday oppoq emasmikan – eng qo'rqqan joyim shu edi.

O'rninga borib o'tirdim. Qalamimni tushirib yuborgan bo'lib, kursilarning tagini paypaslay boshladim. Qayerda bo'lishi mumkin... dahshatli ajalimiz? Bu yerda qancha odam! Hammasini bu begona osmonda fojeali o'lim kutayapti. Qayerdadir yirtqich qo'l bilan yashirilgan strelka hammamizning so'nggi daqiqalarimizni sanamoqda. Men qo'lim qaltirayotganini sezaman. Janobning asabiy tanbehi eshitiladi:

- Janob, bas qiling, axir, men sizga o'z qalamimni beray, hammani bezovta qildingiz.

Men bir-ikki soniyaga joyimga o'tiraman. Xakkayaning qo'ng'iroq kulgisi eshitiladi, asabiy janob zahil basharasini burishtirib, unga ham tanbeh beradi. Men endi gaplarni anglamayman. Nahotki butunlay anglamasam? Yo'q, ana, Xakkayaning onasi gapiryapti, menga gapiryapti:

- Xakkayani marhum otasi noilojdan geyshalikka berib, umrini xazon qiladigan edi. Bir italyan o'rtog'i besh-olti oygacha avrab yurib, bu fikridan qaytardi. Raqqosa bo'ladi, deb turib oldi. Koshkiydi bo'lsa! Pul qani Tokiodagi bitta-yu bitta balet matabiga to'lagani?

Kamakuradagi kichkina baqqollik do‘konimiz o‘zimizni zo‘rg‘a boqib turardi...

Mening qulog‘imga yana uning tovushigina eshitila boshladi, yana so‘zlarini anglamay qoldim. Men endi to‘rtinchi qatorda odamlar oyog‘i ostidan „qalamim“ni qidirar edim. Ona davom etdi:

– Otasi bechora axiyri sotdi do‘konni. Qizim raqqosa bo‘ladi, deb bor-yo‘g‘ini qoqishtirib berdi. Yarim yupun yashagan bo‘lsak ham, qizimiz o‘qishga kirib oldi. Faqat otasi bechora o‘pka kasaliga duchor bo‘lib, o‘lib ketdi. Nima qilay... qizimning toleyiga shukur deyman. Hamma bo‘y-bastiga qarab, zukkoligini ko‘rib, bir gapni aytadi: „Faqat balet uchun tug‘ilgan, mashhur raqqosa bo‘ladi!“ Mana, siz ham shunday dedingiz... qanisiz?

Men oxirgi qatorning tagini paypaslamoqda edim. Yo‘lovchilar xafa bo‘lishar, arzimagan narsani deb bezovta qilganim uchun norozi bo‘lib shovqin solishar edi. O‘rnidan turib olgan asabiy janob bo‘lsa shu darajaga keldiki, pichoq ursa bir tomchi qoni chiqmasdi shu tobda.

Men besh-o‘n daqiqa ichida darmondan qoldim. Tizzalarim boshashgan, boshim lovullar, butun vujudim qora terga botgan edi. Baribir hech narsa topolmadim...

Pilot kabinasiga qaytib kirganimda birinchi ko‘zimga urilgan narsa yana soat bo‘ldi. Fojeaga yigirma sakkiz daqiqa vaqt qolgan edi.

– Nima qilamiz? – dedim.

Jerar qanotlardagi qalin muz qatlamini ko‘rsatdi. Altmetr soatiga sakkiz yuz kilometr tezlikda ucha-yotganimizni ko‘rsatar edi. Bu samolyot uchun nihoyatda xavfli tezlik. Muz qatlami qalnlashib, samolyot og‘irlashar, boshqarish mexanizmiga bosim kuchayar, bu uchishda korabl minasiz ham havoda chilparchin bo‘lib

ketishi hech gap emas. Lekin Jerar qolgan bir soatlida yo‘lni yigirma sakkiz daqiqada bosib, samolyotni yerdan portlatishga qasd qilganga o‘xshaydi. Uning cheksiz okean ufqiga tikilgan ko‘zlariga chirkin dahshat soya solgan edi. Bu vaqt eng yomon narsa yuz berdi: salondagi yo‘lovchilar haqiqatdan xabar topibdi. Stuardessa radistning ma’shuqasi ekan – aytib qo‘yibdi. Samolyot muvozanatni yo‘qotib boshladi, chunki yo‘lovchilar vahimada nima qilishni bilmay, o‘zlarini dam u tomonga, dam bu tomonga tashlashdi edilar. Bunday paytda birov birovga qulq solmaydi, birov qichqiradi, birov chala o‘lik bo‘lib, yiqilib qoladi. Asabi janob o‘n daqiqadan keyinroq aqldan ozdi...

Mina hech qayerda yo‘q edi. Vaqt o‘tyapti. Radist ham qo‘lini osiltirib kelib, tilsizday tikilib qoldi. Uning ayanchi ahvolini ko‘rib, Jerar unga parashutda tashlashni buyurdi. Radist esa parashutni sevgilisiga taqdim etish uchun yalinib ruxsat so‘radi. Stuardessa yigitni yig‘lab quchdi, qorong‘i quduqday ochilgan lyukdan o‘zini tashladi. Parashut ochilmadi. Okean ustidagi tubsiz bo‘shliqda yu’bergan bu yolg‘iz o‘limni sevgilisi ko‘rmadi.

Men Jerarga tikilar edim. Nimani o‘ylayaptiykiring. Uning hech kimi yo‘q. Nazarimda, u o‘zi halda bo‘lib ketishga tayyor, faqat yo‘lovchilarni qutqarishni bo‘lmasmikan, degan umidda butun asabini, butun zehnini qolgan hamma kuchini shturvalga tikkan. Rostini aytsa men yo‘lovchilar yoniga chiqishga qo‘rqdim, eshiklari, taqillar, nimadir sinar, vahshiy nidolar eshitilar, samolyot qanoti singanday lapanglab-lapanglab ketar edi. Shuning uchun ahvolda shturvalni tuta olgan Jerardan ko‘z ololmas edi. Uning yonida men soniya sayin yaqinlashib kelayotganda halokatimizni ham unutayozdim.

– Men sen bilanman, Jerar, – dedim qulog‘iga.

Mening ko‘z qarashlarim manosiz bo‘lib qoldi shekilli, u menga qayrilib qaradi.

„Gapiring. Meni gapga solmasangiz, butun hayotimni eslay boshlayman“.

„Yo‘q, Jerar, buning keragi yo‘q, biz o‘lim oldida emasmiz!“

„Xudo bizni uzr etadi. Bizning niyatimiz pok“.

Tanish „ti-ti-ta“ yangradi. Radiooperator efirga mo‘ljal berar edi. Baxtsiz yigit sevgilisining „xavfdan xoli“ bo‘lganidan biroz tasallli topib, vujudiga jon kirdi.

Ro‘parada charaqlab kattakon quyosh chiqdi. Okean negadir yaqinroq ko‘rindi. U shunday tiniq zangor tusda ediki, men bunday rangni hech qachon ko‘rgan emasman. Motorlar samolyotni titib yuborguday zirillar, xuddi mashina ham halokatni sezayotganday, o‘limning qorong‘i o‘pqoniga oshiqayotganday edi.

...8 daqiqa qoldi.

„Qo‘nish oldida portlab ketish juda alam qiladi-da. Yo shoshmay qo‘ya qolaymikan?“

„Yuragingga qulq sol, Jerar“.

Soniylar shafqatsiz o‘tib borardi.

Shturman samolyotni pastlatib, bulutlar ichiga sho‘ng‘idi. Tez pastlash – halokat, lekin sekinlash ham halokat.

„Qo‘nishda yonmasak bo‘ldi“.

Undan ko‘ra portlagan yaxshi.

Bulut qatlaminib yorib o‘tganimizda birdan lop etib qizil chiroqlar ko‘rindi. Qo‘nishga ruxsat berildi. Qo‘nish uchun sekinlash kerak, lekin bizga sekinlash mumkin emas. Uch daqiqa qoldi. Ikki daqiqa...

Aerodromning barcha tomlarida, maydon va yo‘llarida son-sanoqsiz qizil chiroqlar xavfdan ogohlantirardi. Bu

qonli dog‘lar orasida faqat birgina boshqarish minorasi biz qo‘nadigan birgina trassani yoritib turardi. Korablimiz birdan to‘lg‘anib ketdi – yo‘lovchilar yerni ko‘rishi shekilli. Vaqt tugayapti. Hayot tugayapti. Yer ko‘rinib turibdi. Lekin so‘nggi daqiqa shu qadar qisqa!..

Soat 6 dan rosa 50 daqiqa o‘tganda motor tovushi tinganday bo‘ldi. Go‘yo yurak zarbi ham tindi. Go‘yo olamda tirik jon yo‘q edi...

Shturman menga qaradi.

„Xayr, birodar“ o‘qidim men uning ko‘zlaridan. Lekin lablari boshqa gap aytdi:

- Sizday mard yigitlarni juda kam uchratganman.
- Jerar, vaqt o‘tib ketdi!..
- Hozir qo‘namiz. Vaqt o‘tdi, lekin bu xavf o‘tdi, degan gap emas.

U shassini chiqardi. Samolyot o‘q tezligida borib yerga tegadi, chiroqlar orasidagi yo‘lga qo‘nib, tezlikni keskin yo‘qotganda dahshatli hushtak tovushi eshitildiyu... portlash eshitilmadi. Darrov ochilgan zaxira eshiklardan badboy rezinka hidi kirdi. Odamlar samolyot to‘xtamasdanoq o‘zlarini yerga tashlay boshlagan edi. Atrofda hech kim yo‘q, hamma vabodan qochganday bizni uzoqlarda pusib tomosha qilar edi.

Samolyotga trap qo‘yib bo‘lmadi. Odamlar balanddan bir-birining ustiga o‘zini tashlamoqda, hamma vahimada baqirar, o‘zini eplolgani darrov chetga qochar edi. Jerar qayerdandir mashina minib yetib keldi. O‘rnidan turolmaganlarni kuzovga olib, tezroq chetga olib chiqib ketmoqchi edik. Qandaydir, qonli plashlarga, chirmalgan ikki xotinni yerdan ko‘targanimizda, tagidan... Xakkayaning chala o‘lik gavdasi chiqdi. Uning chap oyog‘i sinib, shalvirab osilib qolgan edi...

Men uni ko'tara olmadim. Nimadir birda darmonimni olib qo'ydi. Yonimdag'i samolyotning ha daqiqada portlab hammani yakson qilish xavfi ha esimdan chiqib ketdi. Men Xakkayaning onasini, o'sha doim oziga tasalli berguvchi istarasi issiq yapon xotini topolmadim. Uni izlab yursam, ro'paramdan asabiy janob chiqib qoldi. U endi asabiy emas, jinni edi.

— Men raqqosa bo'ldim. Qalamingizni topaman, dedi jinni.

Men bu jahannamdan o'zimni tezroq chetga olishga shoshildim. Uzoqqa borib, odamlar yoniga turdim. Bi samolyotning portlashini kutardik. Soatimga qarayman endi vaqt uncha tez o'tmas, daqiqalar toshbaqaday imilla edi. Endi men negadir bu badbaxt mashinaning tezroq portlab ketishini istardim.

...Lekin u portlamadi.

Mayib bo'lganlarni sanitarni mashinalariga yuklab olib ketishdi, Xakkaya ko'z o'ngimdan ketmasdi...

Axir nima gap o'zi, nima bo'ldi? Nega shunchaki vahima bo'ldi-yu, samolyot portlamadi?

Keyin buni surishtirib bildik: samolyotda hech qanday mina ham, bomba ham yo'q ekan. Bizning samolyotimiz qarashli shaxsiy aviakompaniyaning raqibi bo'lgan ikkinchi bir aviakompaniyaning odamlari shunchaki raqobat manfaatidan efirga shunday vahima radiogramma berishgan ekan. Ishning ko'zini bilgaga korchalonlar o'z raqibining samolyotidan yo'lovchilarini bezitish uchun bunday tadbirdan tez-tez foydalani turishar ekan.

Chindan ham, keyin bilsam, o'sha samolyotga bizda keyin to ikki oygacha yo'lovchi topilmabdi.

## QUYOSH DOIM MUSAFFO

Hammasinga yapon shahzodasi... yo‘g‘-e, Efiopiya qiroli sababchi bo‘ldi. Bo‘lmasa Xay Yan bilan Sanya bir ko‘chada tug‘ilib o‘sgan qiyomatli o‘rtoq edilar.

Ko‘cha dedim-u, lekin Chjenning hali ko‘cha degulik ko‘chasi ham yo‘q; aytganday, oti ham yo‘q: Chjen, shunchaki, qishloq degani. U sakkiztagina vaqtincha solingan omonat fanzadan iborat.

Sanyaning dadasi yoshligida Vaxsh daryosini, katta bo‘lganda esa Angarani bo‘g‘ishda qatnashgan muhandis. Bu yerga, Xao Szyan daryosiga to‘g‘on qurish uchun bir to‘da mutaxassislari bilan birga kelib qolgan.

Sanya hali ona yurtini ko‘rmagan. „So‘rovnomaga Bratskda tug‘ilganman, deb yozsam, maylimi, dada?“ deb so‘radi u bir kuni. „Nega? – dedi dadasi, – Xao Szyan sohilida tug‘ilganman, deb faxr bilan yoza ber. Bu yerlar ham kelgusida jahonga mashhur bo‘ladi, o‘g‘lim!“

Sanyaning dadasi bu yarlarni chindan ham yaxshi ko‘rardi. Xao Szyanni jilovlashning yangi loyihasini tuzgan mutaxassislar guruhining boshlig‘i ham shu – Sanyaning dadasi. U tog‘onga poydevor bo‘ladigan metin qirg‘oqni topishda Vaxshdagi tajribasini ishga solibdi. Yangi loyiha bo‘yicha to‘g‘onga shunday joy tanlanibdiki, endi bu yerda to‘g‘on bilan elektrostansiyagina emas, yangi dengiz ham paydo bo‘lar ekan.

Xay Yanning ham dadasi o‘sha yerda ishlaydi, ish boshqaruvchi. Dadalariga ko‘zada qatiq tashib yurib, ikkalasi ham Xao Szyan sohillaridagi toshli so‘qmoqlarni, o‘rmon yo‘llarini, kechish joylarini, gulzor o‘tloqlarni juda yaxshi bilib olishdi.

Xao Szyan sohillardan, tog‘i-tosh, dara-uva oralab, otalarining oldiga birinchi borganlarida ular bu yerkarni ham, bir-birlarini ham yaxshi bilishmas edi. Bir qarashda muloyimgina ko‘ringan fil o‘lanining oyoqni ustaráday tilishi, o‘tgan yilgi zarrin xazon to‘pinning tagida zaharli ilon yashashi, boyqushning vahimali tovushi qobon kelayotganidan darak berishi, yovvoyi ho‘kizni ham chaqsa yiqitadigan kichkina chiroyli kapalaklarning bo‘lishi, do‘ppining tagiga bostirib kiysa, boshni doim mayingina qashib turadigan chigirtkalar borligini ular mana shu yurishlarda bilib olishdi.

Bir kuni ular Quyoshni cho‘miltirish bayramiga borishdi. Bu bayram har yili bir marta, tog‘da bo‘ladi. Odamlar azonda turib, oilalari bilan, quyoshning dengizdan chiqib kelishini tomosha qilish uchun tog‘ cho‘qqisiga chiqadilar. Bayram bir necha daqiqagini davom etadi, lekin juda zavqli bo‘ladi.

Ikki og‘ayni salqin tongda, yengil tumanni yorib, qirov tushgan ko‘l maysazorlarini yalangoyoq bosib, jilg‘alarni kechib o‘tib, tog‘ga chiqib ketishdi. Ular bu maysazorlarni, bu daralarni suv bosib, yaqin orada dengiz paydo bo‘lishini dadalaridan eshitgan edilar. Shuning uchun ham bu yerkarda yurish, ayniqsa, qandaydir afsonalar bilan bog‘liq bo‘lgan Quyoshni cho‘miltirish bayrami tongida, ularning ko‘ngliga g‘alati romantik ruh bag‘ishlar edi. Mana, zaytun daraxtlari mung‘ayib turibdi. Gullar tagidan notanish qushchalar pir etib uchib ketdi... Bular hammasi yaqinda suv ostida qoladi. Bu yer dengiz tubi bo‘ladi.

Mana, Xay Yan egilib, szisu o‘tining shal pang barglarini silayapti. Bu o‘t yetti xil kasalga dori bo‘ladi, deyishadi... Sanya uni siypab, hidlab ko‘rdi, lekin hozir

uzoq tomosha qilishga vaqt yo‘q: Quyosh cho‘mila boshlaguncha tog‘ga chiqib borish kerak. Quyosh cho‘milib suvdan chiqqanda hamma unga ko‘nglidagi eng yaxshi tilaklarini aytib ulgurishi kerak. Ikkala og‘ayni tog‘-toshga tirmashar ekan, hansiragancha allanimalarni pichirlashar edi.

Bu tumanli ertada tog‘ning ilon izi so‘qmoq yo‘llari gavjum edi. Birov bolalarini yetaklagan, birov keksa onasini suyab chiqmoqda. Bir necha daqiqadan keyin Dengiz, Quyosh, Odam bir-biri bilan uchrashadi.

Og‘aynilar cho‘qqiga chiqib olishdi. Ikkisi ham ko‘ksini qoyaga berib yotib, nafasini ichiga yutib, qizarib kelayotgan dengiz ufqiga tikilishdi. Quyosh zarrin to‘l-qinlarni chil-chil sindirib, top-toza yuvilgan yalang‘och yelkasini ko‘rsatdi. U yorqin, musaffo, oltinrang, ulug‘vor edi. Tuman, bulut va soyalar hurkib, ufqqa tomon qochdi. Cho‘milib chiqqan quyosh yer uzra qalqib, og‘aynilarning pichirlashlariga, eng aziz tilaklariga quloq solganday, yuzlarga, toshlarga, barglarga, kipriklarga, ko‘ngillarga iliq nur sochdi!..

...Mana shunday ajoyib tonglar, ajoyib safarlar ikkala do‘sit hayotida ko‘p bo‘lgan. Ular sira tugamaydigandek edi. Ammo...;

Bir kuni Xay Yanning o‘rtog‘i Volodyadan bir marka keldi. Yapon shahzodasi simidi, Efiopiya qirolimi... Ishqilib, nima bo‘ldi-yu, Xay Yan uni „tarixiy shaxslar“ katagiga yopishtiramiz, dedi. Sanya bunga ko‘nmadi: shahzoda ham tarixiy shaxs bo‘ptimi? Napoleon – tarixiy shaxs! Janna D’Ark – tarixiy shaxs! Shahzoda-chi?

Atom asrida, kosmos asrida shahzodaning hech qanday ahamiyati yo‘q.

Xay Yan bunga qo'shilmedi. Tarixda bormi, yashab o'tgan yoki yashab turibdimi – demak, tarixiy shaxs. Inonmasang, Volodyaga yozamiz. Qani, u nima der ekan?

Sanyaning battar jahli chiqdi. Shunga ham Volodyami? O'zimiz ham esi pastlardan emasmiz-ku! Hadeb Volodya ekan-da!

Sanya ikkalasining o'rtasiga goyibdan aralashib qolgan o'sha Volodyadan o'rtog'ini qizg'anar edi. Qo'pol gapirib qo'ydi. Volodyangni ko'rmagan bo'lsak – balki puchuqdir, balki maqtanchoqdir, balki ahmoqdir...

Bu gap Xay Yanni qattiq xafa qildi.

– O'zing ahmoqsan! – deb yubordi u.

Shu-shu bo'ldi-yu, oraga sovuqlik tushib, ikki o'rtoq arazlashib, gapplashmay qo'yishdi.

Lekin ertasigayoq ikkalasi ham zerikib qoldi. Ayniqsa, Xay Yanning tobi qochib qolganda, Sanya o'zini qayoqqa qo'yishni bilmay, dalalarda yurar, bambuk tayog'i bilan maysalarning boshini urib uchirar, suv bo'yida o'tirib, ba'zan yig'lab yuborguday bo'lar edi.

Xay Yanning keksa onasi Xay Yan-ma „tilla nilufar“ oyoqlilardan emas, ko'pni ko'rgan, mehnatkash, bir vaqt-lar inqiloblarda qatnashgan xotin edi. Uning ertaklarini tinglagani bolalargina emas, kattalar ham to'planar edi. Ayniqsa, Xay Yanning tobi qochib qolganda, Xay Yan-ma o'z atrofiga uning tengdoshlarini to'plab, qog'ozdan kaptar yasab turib, ertak hikoya aytgani-aytgan edi. Bu gurunglarda Sanyaning ko'rinmay qolganini payqagan Xay Yan-ma nevarasidan hech narsani surishtirmadi. Lekin bir kuni gurungda Sanyaning dadasini ko'rib, ichida xursand bo'ldi. Dadasining soyasiga biqinib Sanyaning o'zi ham o'tirar edi burchakda. Aftidan, uni dadasi yetaklab kelganga o'xshaydi.

Mana shu kuni Xay Yan-ma shunday hikoya aytib berdi:

— Yosh edim. Chiroyli edim. Taqdir meni Sibirda Kolchakka qarshi janglarga olib kirdi. Komandir topshirig‘i bilan oqlar ichiga sir bilgani borib, bir qancha vaqt restoranda ishlagan bo‘lib yurdim. Shu payt meni bir oq ofitser yaxshi ko‘rib qoldi. Nihoyatda ko‘hlik, savlatli, yosh, ko‘zlaricha qaqnab turgan, olov yigit edi. Avval qo‘rqdim, yaqinlashmang, dedim, lekin u meni astoydil yaxshi ko‘rar edi, kunda mening yonimga kelaverdi. Axiyri, men sening dushmaningman, menda dushmanlarga rahm-shafqat yo‘q, deb ochiq aytdim. Ma'yus bosh egib ketdi-yu, ikki kundan keyin yana keldi. Men uni qancha haydab solmayin, u baribir kelaverdi. Men endi unga har kuni o‘z fikrlarimni uqtiraverib, uni o‘z tomonimga og‘dirib oldim, u mening gaplarimni astoydil ma’qullay boshladи.

Bir oydan keyin komandirning topshirig‘ini ikkalamiz birga bajara boshladik. U bilimli ofitser edi, juda ko‘p yordami tegdi.

Ammo kunlarning birida biz qo‘lga tushdik. Mening ehtiyyotsizligim bilan qo‘lga tushdik. Ikkalamizni otishga hukm qilishdi.

Mana, jarlik tepasida turibmiz. Tong endi yorishgan edi. Tubigacha quyuq o‘rmon g‘ovlab ketgan jarlik oppoq tuman bilan to‘la. Sovqotib turgan yupqa shinelli ikki askar ofitserning buyrug‘i bilan bizni nishonga oldi. Men faqat Vanyani o‘ylardim. Vanya edi uning oti. Mening muhabbatim bilan balki baxtli bo‘ldi, endi o‘lib ketsa uvol, juda ham uvol, deb o‘ylardim ichimda. Askarlarning tepkidagi barmog‘iga tikilganimcha, sekin: „Vanya, qoch!“ dedim. Shu vaqt vang‘illab o‘q chiqdi,

men bir sapchib ko'ksim bilan Vanyaning gavdasini to'sib ulgurgan edim, u jarlikka, tuman ichiga sho'ng'ib, yo'qoldi. Men ham yumaladim. Yumaladim-u, lekin tayganing o'q tovushidan yangraganini eshitib turardim: faqat yarador bo'lган ekanman.

Sovuq qotgan askarlar uzoq tekshirib o'tirmay jo'nab ketishdi. Shu-shu, Vanya o'rmondagi aks sadoday g'oyib bo'ldi. Tirikmi, qochib qutuldimi – bilmayman. Nazarimda – qutuldi, lekin men uni keyin uchratolmadim...

Xay Yan-maning bu hikoyasidan keyin Sanyaning dadasi g'alati bo'lib ketdi. U indamay, juda o'ychan holda Sanyani yetaklab, bosh egib, uyga qaytdi. Kechasi yotgan joyida esa o'zidan o'zi gapirib qoldi:

– Sanya, bilasanmi, sening bobong ham ofitser edi, oqlar otishga hukm qilganda uni kimdir qutqargan.

– Bobomning oti Vanya emas-ku! – dedi hayron bo'lган Sanya o'rnidan turib.

– Ha, bobongning oti Vanya emas... nega turib o'tirding, yota qol, – dedi dadasi, – meni ham gapga solma, dam olish kerak, indinga dengizga suv quyamiz.

Sanya yotdi-yu, lekin uxlolmadi. U ertasiga o'zini qo'yarga joy topolmadi. Ko'ngliga qandaydir yaxshi bir narsa g'ulg'ula solib qo'ygan edi. Qani endi Xay-Yan bo'lsa-yu, bobosi haqida, Xay Yan-maning hikoyasi haqida, hamma-hamma narsalar haqida ikkalasi miriqib gaplashishsa! Bo'lmaydi-da, ular arazlashib qolishgan. Kel, yarashaylik, deb borishga kimning bo'yni yor beradi, deysiz!

Bu orada Xay Yanning kasali og'irlashdi. Uzoq shahardan doktor kelgan kuni Sanya ularning derazasi tagiga pusib qulq soldi. Qani, nima gap ekan, doktor nima deydi?

Ichkaridan hech ovoz chiqmadi. Doktor ayvonga chiqqanda „Szisu guli topilmaydimi?“ deb so‘radi. Xay Yan-ma afsuslanib: „Qayoqda deysiz, bu yerda tuzukroq dorixona ham yo‘q“, deb shikoyat qildi. Ular sekin gaplashishar edi. Aftidan, szisu guli topilsa, Xay Yan ertagayoq tuzalib ketadigan ekan, doktor esa bu dori gulni shahar dorixonasidan faqat to‘rt kun deganda yetkazib berishi mumkin ekan.

Sanyaning ko‘zлari yonib ketdi. Xao Szyan sohilidagi pichanzorda o‘sgan szisu bo‘tasi ko‘z oldida tebranib turar edi. Hozir tun... Soat necha bo‘ldi?

Sanya shoshib uyga bordi. Soat o‘n ikki. Agar to‘rtda chiqib ketolsa, daraga yetganida tong otadi. Eng qo‘rqinchli joy o‘sha. Qobonning qimir etganini sezib, shum ovoz bilan yig‘laydigan boyqush ham o‘sha yerda.

Sanya uxlamasligini bilsa ham, uydagilarga hech narsa bildirmaslik uchun yotdi. Shu payt ichkaridan dadasingin ovozi eshitildi-yu, uning kechagi gapi yodiga tushdi: „Indinga dengizga suv quyamiz“. Kecha uncha diqqatini tortmagan bu gap bugun miyasiga bigizday sanchildi, qulog‘i zing‘illab ketdi. Sanya yotolmadi, yotsa, butun vujudi yonib ketayotganday edi. Asta turib, botinkasi bilan bambuk tayog‘ini yelkasiga oldi-da, derazadan tushib, tun qorong‘isida g‘oyib bo‘ldi...

Ertalab Sanyaning dadasi sarosimada hammani oyoqqa turg‘izdi. Shunday mas’uliyatli tig‘iz kunda bir kori hol bo‘lib ishdan qoldirib o‘tirmasa hali. Sanyaning qayoqqa ketganini hech kim bilmas, hamma garang, hamma tashvishda edi.

- Sanyani ko‘rmadingizmi?
- Yo‘q.
- Ko‘zingiz tushmadimi?

- Bexabarman.
- Xay Yanning o‘rtog‘i-chi, sochi sariq, qotmagina, oyoqlari uzun...
- Ko‘rganim yo‘q, esizgina-ya...

Shu vaqt Xay Yan bir nimani esladi. Doktor kelgan kuni derazadan uning sariq boshini ko‘rgan edi.

- Menga szisu gulini qidirgani ketmadimikin?
- Qayoqqa?!
- Xao Szyan darasiga. O‘sha yerda gullab turganini ko‘rgan edik, – dedi Xay Yan.

Sanyaning dadasi soatiga qarab, rangi oqarib ketdi. Yana 13 daqiqadan keyin darani suv bosadi!

Bir nafasda Chjen ko‘chalarida hech kim qolmadi. Huvillab qolgan fanzada Xay Yanning o‘zi yolg‘iz, shipga qarab yotardi. Birdan yuragi duk-duk etib tepe boshladi. „Ular topisholmaydi, ular bizning so‘qmoq yo‘limizni bilishmaydi! Mensiz uni hech kim topolmaydi!“

Xay Yan ko‘rpani otib tashlab, kiyindi-da, han-siragancha chopdi.

Tong qizarib qolgan edi. Bugun ham darada ko‘mko‘k tuman, maysalar ho‘l. O‘rmonzorlarda esa o‘tgan yilgi barglar ko‘rpaday yumshoq, issiq. Darrov darmoni qurib qolgan Xay Yanning birpas yotgisi keldi-yu, lekin hozir mumkin emas. Biroq tepalikdan tushmasdanoq uni qizil bayroqcha tutgan kishilar to‘xtatishdi.

– Qayt! Qayt! – deyishdi ular vahima bilan. – Hozir darani suv bosadi.

– Sanya... Sanya... – dedi holsiz Xay Yan uzoqni ko‘rsatib. Yugurib kelib uning qo‘lidan tutdilar. Uning isitmasi baland edi.

Bu vaqt tog‘larni larzaga keltirib, qatorasiga bir necha dinamit portladi. Uning ovozi anchagacha havoni zirillatib

turdi. Hammaning tong nurida qizargan yuzida quvonch porlasa, Xay Yanning uzoqqa, daraga tikilgan yosh to‘la ko‘zlarida vahima bor edi. Portlashdan keyin unga e’tibor bermay qo‘yishdi. Allaqayoqlarda shovillagan tovush, daraxtlarning qasir-qusur ag‘darilishi, yovvoyi echkilarning ayanchli ma’rashi, yirtqich hayvonlarning bo‘kirishi, qushlarning vahimali qiyqirishi eshitilar edi.

Xay Yan kasalini unutdi. Odamlarning etagidan tortqilab, bir nimalar deb yalinsa ham bo‘lmadi – hammaning diqqati tumanli darada bolayotgan g‘alati dahshatli o‘zgarishda edi.

Xay Yan nima qilishini bilmay, darmonsiz yiqilay deb turganida uzoqdan o‘z otini eshitib qoldi:

– Xay Yan! Xay Yan!!!

Bu Sanyaning chinqirig‘i edi. U pastdan, daradan, quyuq tuman ichidan chopib chiqib keldi. Ko‘ksida bir quchoq yovvoyi gul.

– Mana! Szisu gul! Sen tuzalib ketdingmi?

Xay Yan hozir chindan ham tuzalib ketganday edi. U gulni hidlash bahonasi bilan, hansirab kelgan o‘rtog‘ining ko‘kragiga yuzini qo‘ydi. Sanya uning ko‘nglida nimalar bo‘lib o‘tganidan, hozir nimalar bo‘layotganidan bexabar edi. Ular yarashish haqida gapirib o‘tirishmadi. Orada go‘yo hech narsa bo‘lmaqandek edi.

– Yaxshiyam tuzalib ketibsan, bo‘lmasa mana bularni ko‘rolmay qolarding! – dedi Sanya shodligini ichiga sig‘dirolmay.

Ular hamma narsani unutib, dengiz paydo bo‘lishini tomosha qila boshladilar. Quyoshning dastlabki iliq nurlari ho‘l ust-boshlarni quritib, tanga xush yoqar, pastda daraxtlar orasida paydo bo‘lgan katta-katta ko‘llarni yaltillatar edi. Ko‘p o‘tmay yangi dengiz suvi

ikki do'stning oyog'i ostidagi qoyalarga kelib chayqala boshladi. Suv yuzi hali xazon, xas-xashak bilan qoplangan edi.

– Endi Quyosh cho'milishiga qandoq boramiz? – dedi Xay Yan yangi suvning narigi qirg'og'ida pastakkina bo'lib qolgan tog'larga qarab.

– Quyosh endi mana shu yangi dengizda cho'milar ekan! – dedi Sanya.

– Bu suv iflos-ku!

– To'lqin urganda tozalanib ketadi. Quyosh tiniq suvda cho'miladi. U doim ozoda...

## BOBO VA NABIRA

Avvalo, bechakning nima ekanligini tushuntiray. Bu – uch g‘ildirakli velosiped, Jakartada shahar transportining asosiy turlaridan biri. Orqasida ikki kishilik soyabonli joy bo‘lib, oldinda – egarda o‘tirgan kishi bechakni xuddi velosiped singari haydab ketaveradi.

Bechaklar ko‘pincha o‘spirinlardan bo‘lib, ular aravachalarni nihoyatda mehr qo‘yib bezatishadi, alomat-alomat otlar topib qo‘yishadi: „so‘na“, „shayton“, „qilich“, „burgut“... Shaharda ikki yuz mingta bechak bo‘lsa, ikki yuz mingta nomi bor. Qanotidagi suratlari ham, otlari ham bir-biriga o‘xshamasligi kerak ekan.

Men Mardeka maydonidan chiqaverishda bechakchilarining to‘xtam joyiga duch kelib qoldim. Ular yuzlab, minglab xil ovoz bilan baqirib-chaqirib, bechaklarini maqtashar, kirachilarni, yo‘lovchilarni chorlashar edi. Qo‘qqisdan, bir bechakning nomi ko‘zimga issiq ko‘rindi, g‘ildirakning ko‘k qanotiga qizil bilan chiroyli qilib „Sputnik“ deb yozilgan edi. Jahonning uzoq bir chekkasida, begona shaharning sershovqin ko‘chasida men bu so‘zga uzoq tikilib qoldim. Bechak ajoyib jungli manzaralari bilan shunday bezatilgan ediki, bunda mohir rassom qo‘li borligini darrov xayolimga keltirdim. Qiziqib qolganimni ko‘rib, bechakchi o‘spirin yo‘limni to‘sib turib oldi: „O‘tiring, o‘tira qoling, bozorgacha bo‘lsa ham!“

Mening fikri-xayolim suratda edi: Golland mavzesida kecha-yu kunduz yugurib bechak haydaydigan bu qop-qora, doim terga pishgan, chayir bola bu chinakam badiiy manzaralarni o‘zi chizgan bo‘lishi mumkin emas.

Lekin bola shunday qistadiki, men nima qilishimni bilmay, to‘xtab qoldim. Bechakka o‘tiray desam, ko‘nglim tortmaydi: bizga odat emas, seni ot o‘rniga qo‘shilishib odam tortsa-yu, sen pul to‘ladim, deb soyabon tagida kerilib o‘tirsang.... vijdon yo‘l qo‘yadimi?! Bechak biroz mexaniklashgan bo‘lsa ham, o‘sha qadimgi rikshaning qoldig‘i-da! Riksha obrazi esa bolalik chogimdan qullik nishonasi bo‘lib miyaga o‘rnashib qolgan-da!

Ammo o‘spirin qo‘ymadi, yalinaverdi. U hali bola edi, bizda bu yoshdagi bolalar o‘yinqaroqlikdan boshqa narsani bilishmaydi. Tirikchilik tashvishiga butun vujudi bilan berilgan bu yosh bechakchi o‘rnida o‘zimizning bolalardan bo‘lganda edi, buni o‘yinga olib „navbatlashib tortishamiz“, deb darrov „Sputnik“ka minib o‘tirmasmidim?

– Oting nima? – dedim bolaga.

– Otim Bang-Bang! – dedi u sevinib. „Kirachini undirdim“, o‘yladi shekilli ichida. Belidagi „Sarong“ deb ataladigan lattasini siqib bog‘lab, darrov egarga otlandi, tovoni yorilib ketgan qoqsuyak oyoqlarini pedalga qo‘ydi. Endi uning ra'yini qaytarolmadim.

– Navbatlashib haydashamiz! – dedim mumkin qadar sho‘x, bolalarcha gapirishga urinib va sakrab chiqib oldim. Gapimga hayron bo‘lgan Bang-Bang „esi joyidami“ deganday qayrilib qarab qo‘ydi.

– Qayoqqa?

– Tog‘riga, – dedim tavakkal qilib.

Chiroyli bezatilgan „Sputnik“ yengil va ravon yelardi. Zavqim kelib:

– Chu, Sputnik! – deb qichqirib yubordim.

Bang-Bang ham soddaligimni ko‘rib, bolaligi tutib ketdi – boshqa bechaklarni quvib o‘tib, rosa tezlatdi.

„To‘g‘riga“ deb bilganday aytgan ekanman – birpasda shaharning chekkasiga chiqib qoldik.

– To‘xta, endi men haydayman, – dedim.

Bang-Bang to‘xtadi-yu, gapimga ishonmay, shubha bilan qarab jilmaydi. Men tushib uning o‘rnini oldim, qop-qora qalin sochlari orasidan sitilib chiqqan yaltiroq ter tomchilarini artib, o‘rinni ko‘rsatdim: „Chiq, shabadada tering qotadi!“

Bang-Bang necha yil bechak haydab, yuqoridagi soyabon tagida o‘zi sira o‘tirmagan bo‘lsa kerak. Birovning to‘riga chorig‘ bilan chiqayotgan kishiday, iymanib, noqulaygina o‘tirdi. U xavotirli jilmayar, og‘zini yopolmas, yuzida ham tashvish, ham kulgi bor edi.

– Chu, Sputnik! – dedim-da, men ham changitib haydab ketdim.

– Qayoqqa borishingiz kerak? – deb qichqirdi Bang-Bang shamolda.

– Bu yo‘l qayoqqa boradi?

– Qishloqqa!

Biz sho‘x baqirib gaplashar edik, ovozimizni shamol uchirib, uzoqdagi shakarqamish o‘rmonlariga eltib singdirar edi.

– Qanaqa qishloq?

– Kintamoni. Bizning qishlog‘imiz!

Ko‘prikdir o‘tgach, maysazordagi mango daraxti tagida to‘xtadim. Gurkirab gullagan tropik bog‘lar aro toshlarni yumalatib tog‘ daryosi oqardi. Uning tiniq sharqirashiga quloq solib, men Farg‘onaning Yangisoyini esladim.

„Bizning qishlog‘imiz!“

– Qishloqda turaman degin?

– Ha, bobom hech qayoqqa ketmayman, deydi. Jakartada joy berishdi ham, bormadi.

– Bobong xizmat ko‘rsatgan kishimi?

– Mening bobom Subanto-da. Men Subantoning nevarasi bo‘laman, – dedi Bang-Bang go‘yo uning bobosini hamma bilishi kerakday. „Subanto, Subanto“, deb pichirladim men, lekin bu nom menga tanish emasdi.

– Bechakni kim bezadi? – deb so‘radim.

Bang-Bang bu savolimdan ranjiganday bo‘ldi, g‘alati qilib qaradi-yu, javob bermay, ozg‘in tizzalarini quchoqlab o‘tiraverdi. Bechakdagি manzaralarga qarab turib, miyamda lov etib bir fikr yondi.

– Subanto?! Rassom Subanto?! Gadja Subanto?!

Bola menga juda tanish, yaqin kishisiday iliq nazar tashlab, o‘rnidan turdi, hovliqib ketib, bobosining kasbini o‘rganayotganini, bechakni ham o‘zi bezatganini, „Sputnik“ degan otni ham o‘zi topganini, bobosi bilan yolg‘iz turishi, qishlog‘ining chiroyliligi – hammasini bir nafasda to‘lqinlanib gapirib berdi.

Men Gadja Subantoni o‘ylardim. Uning rasmlarini allaqaysi bir muzeyda ko‘rganman. Yavaning nihoyatda mohir keksa rassomini ko‘rib ketish nasib bo‘lsa-ya?!

– Kintamoni uzoqmi? – deb so‘radim va Subantoning suratlaridan esimda qolganlarini gapirib berdim. Bang-Bang rasm san’ati haqidagi suhbatning quli ekan. O‘zini yo‘qotib qo‘yay dedi.

– Qishlog‘imiz yaqin, ho‘-o‘-o‘, kauchuk plantatsiyasining shundoq yonginasida! Bobom o‘n yildan beri suratning nima ekanini biladigan biron odam bilan suhbatlashganim yo‘q, deb zorlangani-zorlangan. Bormasangiz bo‘lmaydi, o‘tiring!

Bang-Bang bu gapni ham bir nafasda tizib soldida, egarga chiqib o‘tirdi. Uning „ho‘-o‘-o‘“ degani kamida yigirma chaqirim yo‘l bo‘lib chiqdi. Qomatli

xurmo daraxtlari bilan o'ralgan vodiyga chiqdik. Havoda kokos yong'og'ining hidi anqir edi. Qizil papayaning quyuq barglari chirmashib, oftobni to'sgan qorong'i xiyobonlardan o'tdik.

– Tropik sel quyganda ham bu xiyobonlarda bir tomchi yomg'ir o'tmaydi, – deb tushuntirib borardi Bang-Bang. U quvonganidan ancha sergap bo'lib qolgan edi. Atrof ko'm-ko'k, biron qarich yalang'och tuproq ko'rinnmaydi, o't-o'lan, daraxt jungli, bari serbarg, yaproqlari kattakatta, qalin, mo'rt, sersuv. Havo nam, odamning badani ham doim nam. Men Bang-Bangga qishda bahorni, yozda oltin kuzni orziqib kutish tuyg'usini tushuntirolmadim. Bu yerda fasllar tushunchasi yo'q. Tabiat yil-o'n ikki oy, doim, mangu bir xil: namiqib turadigan beg'ubor yashillik! O'simliklarning biri bodroq bo'lib gullasa, biri ayni zamonda sharbatga to'lib pishgan, biri g'uncha yozib nishona tugsa, biri sakson yillik yaprog'ini selga tutib, yasharish payidan... Tabiat har zumda yangilanadi, hamon gurkiraydi, tinmay g'ovlaydi, bu bitmas-tuganmas yashillik bahor toshqinlari singari, go'yo butun olamni g'arq etmoqda edi, nazarimda.

Yengil bambukdan yasalgan yakkacho'p – ko'priknинг naryog'ida allanimani yerga yoyib quritayotgan dehqon xotinlar savat qalpoqlarini silkib, biz bilan salomlashdi. Bang-Bang to'xtab, sakrab tushdi-da, o'shalar tomonga yugurdi.

– Hozir, suv ichamiz-da, shu bilan yetib olamiz!

U xotinlar yoniga yugurib borib, o'roqqa o'xshash bir asbobni qayerdandir olib bilagiga ilintirdi-yu, yonboshlabroq tikka osmonga chiqib ketgan kokos daraxtiga borib tirmashdi. Shox-butoqsiz daraxtga, xuddi yerda o'rmalaganday, yugurgilab chiqib ketdi. Qarasam,

birpasda ikki terak bo‘yi balandlikda kichkinagina qora nuqtaday bo‘lib turibdi. U kokosning eng uchida, besholtitagina bargi yelpig‘ichday bo‘lib, mevalarini oftobdan to‘sib turgan joyda to‘xtadi-yu, nimasidir yoqmadni shekilli, nariroqdagi kokosning uchiga arqon tashladi. Maymunday tirmashgancha, lip etib unisiga o‘tdi.

Sarongiga qistirgan o‘roqni olib bir siltadi-yu, tarvuzday-tarvuzday uchta yong‘oqni o‘sha yerdan tashlab yubordi. Sakson metr joydan qattiq yerga tushsa ham pachoqlanmas ekan jonivor. Qo‘limga olib salmoqlab ko‘rgunimcha bo‘lmay, Bang-Bang ham yonimda paydo bo‘ldi. Bu qop-qora, cho‘g‘day ko‘zli, paylari cho‘zilib ketgan o‘smir endi ko‘zimga juda ham boshqacha bo‘lib ko‘rindi. Tanishish vaqtida u bilan bolalarcha gaplashishga uringanimni eslab, o‘zimdan o‘zim xijolat bo‘lib ketdim.

Bang-Bang o‘roq bilan kokosning poynagini shartta chopib tashlab, menga tutdi. Tavba! Tabiatning tayyor limonadi! Shirin, muzdek. Horg‘in vujudim yayrab ketdi.

– Endi men haydayman! – dedim g‘ayratga kirib. Bang-Bang muloyim jilmaydi. U menga allaqachon mehr qo‘yib bo‘lgandi.

Kintamoniga yetib keldik. Bu quyuq tropik o‘rmonga ko‘milib yotgan, bir nechtagina qizil cherepitsa tomli, mo‘risiz uylardan iborat qishloqcha edi.

Bang-Bang ichkariga kirib, mening kelganimni va kimligimni aytdi shekilli, u yerdan keksa odamning juda xushchaqchaq, lekin buyruq ohangidagi o‘ktam tovushi eshitildi.

– Qani, qani, darrov olib kir, darrov!

Uyga kirishim bilan, to‘rdagi savat kursida o‘tirgan keksa, juda siyrak, oppoq soqoli ko‘ksiga taralgan, baland bo‘yli, uzun oq yaktak kiygan odam o‘rnidan turdi. U

xushchaqchaq tovushi bilan uyni to‘ldirib, tinmay baqirib gapirar edi.

– Agar Bang-Bangning gapi rost bo‘lsa, men hovlimdagi keksa papayani kesib gulxan yoqaman, o‘lay agar! Rosa o‘n yildan beri rasm san’atini tushunadigan chinakam mutaxassis bilan suhbat qilganim yo‘q, ishonasizmi? Qani, qani, tortinmang, kiring...

Men bu shovqin solib gapirayotgan quvnoq boboning harakatlariga qarab hayron qoldim, u stol yoniga kelib, qo‘llarini bo‘shliqqa cho‘zib, hech narsa yo‘q joyda bir nimani paypasladi. Boshini baland ko‘targan edi, qo‘l bersam, bag‘riga yaqinroq tortib, yelkamni ushlab ko‘rdi.

U ko‘r edi.

Kutilmagan bu holdan yuragim hovliqib tepa boshladi. Nima deyishimni, nima qilishimni bilmasdum. Lekin uning bamaylixotir quvnoq ovozi meni bu holatdan tez qutqardi.

– Mening „Oq gul bahori“mni qayerda ko‘rgansiz?

Men shu mamlakat arboblaridan birining shaxsiy galereyasidan ko‘chirilgan albomni atadim.

– Yo‘q, men sizga asl nusxasini ko‘rsataman! Men sizga hamma rasmlarimni, butun galereyamni ko‘rsataman. Hammasini! Bitta-bitta! Ko‘rmasdan ketmaysiz, men sizni endi qo‘lga tushirdim!

Bu istarasi issiq qariyaning odamning yurak-yuragiga yetib boradigan ovozi bor edi. Subanto! Mashhur Gadja Subanto! Ko‘zi sog‘ vaqtida uning yuzidan nur yog‘ilib turgan bo‘lsa kerak. Bu fojea qachon yuz berdiykin? Rassom – ko‘r! Yog‘du va soyadan, ranglardan mahrum rassom! Bu mamlakatning bahor toshqinlariday yashil o‘rmonlarini, qalpoqday katta oq gullarini, ekvator

osmonining tubsiz zangoriligini o‘z ko‘zi bilan ko‘rolmagan rassom! Men uning suratlarini eslab: „O‘sha Subanto sizmisiz?“ deb qayta so‘rashimga sal qoldi. Qachon yuz berdiykin bu fojea! U galereyasi haqida shunday gapiryaptiki, xuddi hozir ham har kuni rasm chizish bilan shug‘ullanadigan kishidek.

— Bang-Bang! Mehmonga qahvang tayyormi? Biz hozir boshlaymiz. Agar charchamagan bo‘lsangiz, galereyani ko‘rishga hozir kirishamiz.

— Yo‘q, yo‘q, bobo! Mehmon charchagan... — men ostonada turgan Bang-Bangni ko‘rib, hayratda qoldim: u sarosimada, nimadandir chochib ketgan, qo‘li bilan menga bir nimalarni ishora qilar edi. — Yo‘q, u kishi bechak haydab keldilar, aytdim-ku, hozir cho‘milib kelishlari kerak... — u yana nimadir demoqchi edi, bobosi xaxolab kulib, rozi bo‘ldi.

— O‘zining cho‘milgisi kelyapti bu tirmizakning. Ha, mayli. Cho‘milib kela qolinglar. Ammo keyin kechgacha ishlaymiz, bilib qo‘ying! — dedi u menga. Uning gaplari hazilmi, chinmi — men hali ham tushunib yetmas edim.

Qahvadan keyin Bang-Bang meni shoshiltirib, sharsharaga olib ketdi. Daryo bo‘yiga borib, oq toshga o‘tirganimizdagina u o‘zini yengil tortganday chuqr nafas oldi.

— Uff, qo‘rqib ketdim-a! Imo-ishoramga tushunmay-siz, deb qo‘rqib ketdim.

— Men hali ham tushunganim yo‘q, nima gap o‘zi? Cho‘milmaysanmi?

— Cho‘milish bir vaj edi. Zarur gap bor. Shuning uchun boshlab chiqdim sizni.

Bang-Bang sharsharaning aylanib turgan ko‘piklariga tikilib, o‘ychan hikoya qildi.

– Bobomni kempetaylor<sup>2</sup> tutib ketganda men olti yashar edim. Buning sababini ham, jiddiyligini ham, mening tiyrak ko‘zli quvnoq bobomni butunlay olib ketganlarini ham tushunmasdim. Bir-ikki yildan keyin qo‘snilarimizning „Subantoday odamga u yerdan qaytish yo‘q“, deganlarini eshitib, vahimaga tushdim. Uni o‘z yurtimizning chiroyli manzaralarini suratga solgani uchun qamashgan ekan. Keyin gollandlar kelishdi, ba’zi qo‘snilarimiz „Tirik bo‘lsa, endi albatta qaytib keladi“, deb menga tasalli beradigan bo‘lishdi. Men bechak haydab, o‘z tirikchiligidagi o‘zim o‘tkazadigan bo‘lib qoldim. Savodimni chiqarib oldim. Bobomning bo‘yoqlari bilan surat chizishni mashq qila boshladim. Uning suratlarini hali o‘zingiz ko‘rgan uyning ichkarisiga qulflab asrab qo‘ydim. Agar shu suratlar uchun odamni qamash mumkin bo‘lsa, demak, arziyadigan narsalar ekan, ehtiyyot qilish kerak, deb o‘yladim-da, o‘zimcha.

Lekin gollandlar kelganda ham bobom qaytmadi. Bir kuni partizanlar varaqasida mana bunday gap chiqib qoldi.

Bang-Bang qo‘ynidan sarg‘ayib ketgan bir varaqani chiqarib, menga uzatdi. Unda rassom Subantoning sudda golland mustamlakachilariga qarata so‘zlagan nutqi bosilgan edi.

„Sud janoblari, siz mening ongimga ta’sir etgan odamlarning otini atashimni talab qilyapsiz. Xo‘p, aytaman. Lekin ular siz o‘ylagan odamlar emas, balki golland xalqining o‘zidir. Golland xalqining fashizmga qarshi kurashdagi qahramonligini eshitib qoyil qoldim. Golland xalqi o‘z Vatanini, o‘z ozodligini qalbidan sevar

---

<sup>2</sup> Kempetaylor – yapon josuslari

ekan. Minglab golland o‘g‘lonlari o‘z Vatanining ozodligi uchun jon berdilar. Sudya janoblari, mening ongimga ta‘sir etgan narsa, avvalo, golland xalqining mana shu namunasidir!“

Men bu so‘zlarni o‘qib, Subantoning jasur nuroniq qiyofasini yana ko‘z oldimga keltirdim: baquvvat, quvnoq ovozi qulog‘imda jaranglab eshitildi.

– Shu suddan keyin, – dedi Bang-Bang asta davom etib, – uyimizga tintuv keldi. Golland ofitserlari qulfni buzib, kula-kula bobomning galereyasini titishdi, eng yaxshi suratlarni tanlab, mashinalariga yuklashdi. Men ularning shum qahqahasidan vujudim titrab, mango soyasida yig‘lab o‘tirardim. Bobomni kempetaylar tutib ketganda ham bunday yig‘lagan emasman. Ofitserlar ketgandan keyin uyga kirib qarasam, 54 ta akvareldan 7 tasi qolibdi, xolos. Yana bir nechtasi yirtilib, yerda tuproqqa qorishib yotibdi. Endi nima qilaman? Bobom kelsa, nima deyman?

Lekin yana ikki yildan keyin bobom qaytib kelganda suratlardan gap ochmadi. U kasal, terisi suyagiga yopishgan, darmonsiz, ikki ko‘zi ko‘r edi...

Gunoh bo‘lsa ham, sizga iqror bo‘lay, o‘sha vaqt uning qaytib kelmagani ham tuzuk edi, deb o‘yladim.

Chunki unga o‘sha rasmlar ko‘z-jondan aziz ekanini bilardim. Uning bu dunyoda hech qanday ilinji qolmagan edi.

Ammo xato o‘ylagan ekanman. Bobom darmonga kirgan sari ovozi tetik eshitila boshladи. Hikoya aytar, gazeta o‘qitib eshitar, tanishlarini so‘rar edi. Keyin u suratlarini tilga ola boshladи. Men bo‘lgan gapni aytishga botina olmadim. Bu gapni unga aytish mumkin emas edi. Ko‘p o ylab, bir fikrga keldim. Bu shafqatsiz aldov,

berahmlik bo'lsa ham, boshqa ilojim yo'q edi: suratlarning quruq papkalariga oddiy karton qog'oz solib, galereyani xuddi ilgarigi tartibi bilan tuzib chiqdim-da, bobomga: „Ha, hammasi joyida, saqlab qo'yibman“, dedim.

Shundan keyin ishonsangiz-ishonmasangiz, bobom ikki kunda tuzalib o'rnidan turdi, galereyasini paypaslab tekshirib chiqdi, raqamlar qo'ydirtirdi, har zamonda ba'zilarini olib, zehn ko'zi bilan uzoq tomosha qiladigan, bambuk guli bilan kunda changini artib turadigan odat chiqardi. Har birining o'rmini, raqamini yod biladi, ranglarini ko'rib turganday, ba'zan boshini qiyshaytirib, ba'zan jilmayib yorug'ga solib tomosha qiladi.

— Endi sizdan iltimos, jon amaki, bildirib qo'y mang. U sizga hammasini bitta-bitta ko'rsatadi, uzoq gapiradi, siz indamay ma'qullab tursangiz bo'lgani. O'tib ketadi.

Bang-Bangning tovushi tovlanib, yig'i eshitilganday bo'ldi. O'zim ham ta'sirlanib, ko'nglim to'lib ketdi. O'tirgan yerimda yigitchaning yelkasidan quchib, birpas ko'ksimga bosib turdim. Uning vujudi yonib ketayotganday edi.

— Cho'milib olsang-chi, — dedim gapni sal chetga burishga urinib. Lekin u cho'milmadi. Mening „artistlik“ qila olishimga imoni komil emas edi, chog'i.

Lekin men „artistlik“ni o'rniga qo'ydim. Chol ichkari xonaga yetaklab kirib, papkalarni bir-bir ocha boshlaganda, har birini xuddi uning o'ziday, zehn ko'zi bilan uzoq „tomosha“ qildim. Papkalarning hammasi ham bo'sh emas edi. Men payqadimki, suratlarni Bang-Bangning o'zi qo'lidan kelganicha tiklashga harakat qilgan. U albatta yoddan chizgan.

Qari Subanto ularni shunday cheksiz faxr bilan qo'lga olib, shunday mehr bilan tikilar ediki, agar bularning

o‘z suratidan qanchalik uzoqligini, orgimchak qo‘l bilan chizilgan jo‘ngina nusxalar ekanligini bilib qolsa, chindan ham, nazarimda, uning uchun hayot birdan so‘nib qo‘ya qolardi.

– Mana buni qarang, maestro! – dedi u bir papkani ehtiyyotlik bilan qo‘liga olib. Papka ichidan qup-quruq kulrang karton chiqdi. Aftidan, Bang-Bang bu mashhur suratni yoddan tiklashga jur’at etolmagan edi. Gadja Subanto o‘z qadrdon farzandini, o‘z qalb ijodini yoddan ta’riflab ketdi.

– Siz mana bu nurga qarang! – dedi u barmog‘i bilan kartonning bir nuqtasini turtib, – mana, kechki oftobning quyuq barglar orasidan tushib, banan po‘stlog‘ini yoritgan nuri! Nilufar gulidagi mana bu rang shu po‘stloqdan aks etgan nur. Men bu rangni tabiatda topganimdan keyin palitradan yetti oy qidirdim. Axir topdim, qarang-a, qarang!

U shunday zavq bilan gapirardiki, agar Bang-Bangning iltimosini bir zum yodimdan chiqarib, biron harakatim yo so‘zim bilan xunuk haqiqatni bildirib qo‘ysam, bu hassos keksaning yuragi yorilib, bir fojea bo‘lishi hech gap emas edi. Men ko‘zimga kelgan tomchi yoshni yutdim-da, ma’qullab bosh silkidim. U gapirganda quruq kartonga shunday tikilardiki, ro‘paramda go‘yo zulmatdan boshqani ko‘rmaydigan ojiz chol emas, har bir harakatimni kuzatib turgan tiyrak ko‘zli yosh Subanto turganday edi.

– Ha, bunday rang faqat sizning yurtingizda afsonaviy ming orol junglilaridagina bo‘lishi mumkin! – dedim men.

– Siz endi mana buni qarang! – dedi u navbatdagি bo‘sh papkani olib. – Bu sizning eski oshnangiz, – chol

yana kulrang kartonni ko'rsatarkan, chehrasida nihoyatda baxtiyor kulgi porlab turar edi. Men bu papkada nima bo'lishi kerakligini fahmladim.

– E-ha, mening qadrdom „Oq gul bahori“-ku! – dedim. Bu asar yodimda edi, hozir u ro'paramda turganday cholga navbat bermay gapira ketdim: – Olam bahorining tipirchilab turgan qalbi bu! Zangor tepaliklar ko'pirib toshgan sutday oq gul bilan qoplanguanda yetuk qizlar ko'ksiga ham sut to'lib kelarkan. Men buni mana bu yuzida hayajon o'ynagan qizlaringizning qomatiga qarab o'zim to'qiyapman, – dedim kulib. Men tasavvurimdag'i ajoyib va mashhur asar haqida gapirarkanman, o'zim ham to'lqinlanib ketdim. – Mening qo'shimchamga nima dedingiz? Sizda shunday rivoyat ham bo'lsa kerak: bahorda tabiat qizlar ko'ksini ham mana shunday oq sutga to'ldirganda, sut chayqalib jungliga tomchilari tirqirab, sachrab, o'rmonlar mana shunday oq gul bilan bezanib gurkiraydi. Topdimmi?!

Chol meni quchoqlab oldi. Keyin yuzini chetga burib, yelkasidagi katta qiyiq bilan burnining yonini artib qo'ydi.

– Kechirasiz, – dedi, – men rasmlarim haqida ko'pdan beri bilarmon odam bilan gaplashganim yo'q edi. Ko'p qo'shnilarimga ko'rsataman-u, ular savodsiz, sodda odamlar, „Yaxshi ekan“, deb ketishaveradi. Siz bo'lsangiz, men rasmga tushirolmay ko'nglimda qolib ketgan narsalarni ham gapirib beryapsiz. Bugun men uchun katta bayram. Rahmat sizga.

– Men asaringizda bor gapni aytyapman, xolos.

– Rahmat sizga. Mana endi 37-rasmni olamiz. Siz bunga bir qarang-u, keyin shundoq hovlidan chiqib, buning asl nusxasini, naturani ko'rasiz. O'zimizning

tomdan turib chizganman. Yaxshilab ko'rib oling. Naturada hozir bu yo'q, uni kelgindilar to'pga tutib, yondirib poymol qilishibdi. Mening bu asarim go'zal Yavaning bir vaqtlardagi fusunkor husnini adabiyotga olib kirgani bilan qimmatlidir.

Bu Subantoning omon qolgan bir nechtagina suratlaridan bittasi edi. Unda, haqiqatan ham, rassomning o'z yurtining husniga mahliyo bo'lganligi, uni hatto ilohiyashtirishga uringanligi ham bilinib turardi. Yava – chindan ham ming orolning go'zal malikasi. Bu surat esa uning tengsiz manzaralaridan birini aks ettirgan. Abadiy yashil azim daraxtlar junglida bosqich-bosqich bo'lib o'sgan. Pandanus va bambuklarning qilichday yaproqlari havoni tilib ko'kka intilgan, ikki metrli yaproqlarini yoygan paporotnik, mimoza va manguston daraxtlari ikkinchi bosqich, pastda esa o'tib bo'lmaydigan yashil lianalar chirmashib ketgan. Suratga tikilib tursangiz, bu junglidagi nam, tig'iz havoni ko'ksingiz bilan sezgandaysiz, undagi ming xil sirli tovush qulog'ingizga chalinganday bo'ladi.

Bobosining buyrug'i bilan Bang-Bang meni bu suratning naturasiga olib chiqdi. Jar yoqalab yurib, yalang'och tepalikka o'rладик. Uzoqda yovvoyi yashil o'rmon qimir etmay, ko'lmak suvday dimiqib, tiniqib yotardi. Yaqin orada esa juda katta vodiy dahshatli yong'inda qovjirab, kul va tuproqqa aralashib yotar, kuygan to'nkalar, o'pqonlar qorayib ko'rinar edi. Bang-Bang shu yerni qo'li bilan ihota qilib ko'rsatdi: „Rasmdagi – shu joy edi“, dedi g'amgin ko'z qarashi bilan. Haqiqatan ham, bu vodiyning aslini suratda ko'rgan menga shunchalik ta'sir etdi-yu, abadiy gurkirab turgan o'rmonning bahorini ko'rgan, unda tug'ilib o'sgan, sira

xazon ko‘rmagan odamga vahshiy yong‘indan keyingi bu shum xaroba nihoyatda fojeali tuyulsa kerak.

Bang-Bang ikkimiz xazon bo‘lgan vodiya tepalikdan uzoq tikilib turdik. Qorayib ketgan to‘nkalar orasida uzoqdan sharpalar ko‘rindi. Men yana yaxshiroq tikildim: uzoqda, zina-zina bo‘lib chiqqan qiyada anchagina maydon lalmikor bug‘doy yerlariday ko‘karib ko‘rinardi.

— Sholi ekishyapti. Yaqinda mana bu joylar ham ko‘karadi... tinchlik bo‘lsa, — dedi Bang-Bang. Uning gapida, tovushida kattalarga xos salmoq, ulug‘ armon bor edi.

Ha, yosh bo‘lsa ham ko‘pni ko‘rgan, qalbi pok do‘stim! Bu joylar albatta ko‘karadi. Endi inson dahshatli yonginlarga yo‘l qo‘ymaydi. Mana bu mehnatkash sholikorlar poymol bo‘lgan yerlarni ko‘kartirsa, sen donishmand bobongning ajoyib manzaralarini tiklaysan. Bunga mening imonim komil! Faqat bobongdan qolgan, bobong himoya qilgan bu jabrdiyda tuproqni, bobongdan senga meros qoladigan zahmatkash mo‘yqalamni qadrla, e’zoz et, kichkina Bang-Bang.

Ertalab Subantoning yoniga kelganimda „artistlik“ qilishni eplarmikanman, degan tashvishda edim. Lekin kechqurun u bilan xayrashganimda o‘sha tashvishim o‘zimga bachkana ko‘rindi. Men keksa rassom bilan bugun „artistlik“ qilib emas, rasmana samimiyl, chin qalbimdan, haqiqat haqida gaplashdim. Chunki yurtining jonajon manzaralarini kelgindilar o‘g‘irlab ketolmagan, bu manzaralar uning qalbiga naqsh etilgan edi.

## CHODIRXAYOL

Bu yerda hamisha shovullab tuproq to‘kilib turadi. Tepalik o‘yilgan joyda tikka devordan, belkurag-u ketmondan, sho‘r bosgan yelkalardan, cho‘kich zarbidan, kajava zambillardan shitirlab to‘kilardi. Bu shovullah o‘n besh-yigirma yil naridan kelayotganday, bo‘g‘iq, doim bir maromda allalab eshitiladi.

Tepalik o‘yilib, qo‘raday katta kovak hosil bo‘lgan, ichi nimqorong‘i, hurmat taxtasining tepasida yonib turgan ikkitagina lampochka bilan sal yorishib turibdi. Bu yerda ish tabiatning injiqliklariga qaramay, qor-u qirov, sel-u jalada ham, sovuqda ham, issiqda ham tinmay davom etadi, tuproq to‘kiladigan jargacha so‘qma yo‘l yaxshi shibbalangan, o‘sha yerdan tepalikning qovjiroq shumg‘iya-yu shilvi, bujg‘un cho‘kirtaklari chirmashib yotgan sirti bemalol ko‘rinadi.

Ishlayotganlarning biri eng ichkarida, orqa devordan tuproqni metin bilan o‘yib berib turibdi. U o‘rta bo‘yli, qorachadan kelgan baquvvat odam, har zarbidan rosa yarim zambil tuproq to‘kiladi, ko‘zlarini timqoraligidan g‘ira-shirada ham yiltillab ko‘rinadi. Ikkinchisi tuproqni bel bilan zambil kajavasiga tashlab turibdi. Yorug‘lik orqadan tushgani uchun, miyonagini tiqmachoq gavdasi chodirxayolning qo‘g‘irchoq soyasidek lipillab ko‘rinadi, yaqiniga borgan odam qoracho‘g‘larida ishga astoydil ixlosning o‘tini payqaydi.

Ular o‘zi yetti kishi, ikkitasi, ya’ni uchinchi va to‘rtinchisi zambilda. Bular aka-uka bo‘lsa kerakmi, bir-biriga juda o‘xshash: qorachadan kelgan yuzlari ham,

pishiq-puxta jussalari ham quyib-qo‘yganday. Bir-birlarini ko‘z qarashlaridan tushunishadi.

Qoracho‘g‘ yilt etdimi – „ko‘tar!“ degani, bilinar bilinmas im qoqdi-mi – „ag‘dar!“ degani. Tuproq to‘kiladigan joyga mokiday qatnab, so‘qma yo‘lni shular shibbalagan.

Beshinchisi yorug‘roqda, kiraverishdagi eski yozuv stoli yonida... ha, darvoqe, to‘xtang-chi, yaxshisi bunisini oltinchi deyaylik. Chunki u...Beshinchisi esa ketmonda. U boshqalardan shu bilan ham ajralib turadi, o‘yilgan g‘orning yerini qirib tekislaydi, tuproqdan, dumalagan tosh-u kesaklardan tozalaydi. O‘zi keksaroq bo‘lsa ham hali baquvvat, girdig‘um gavdasiga chog‘ ketmon obdan yarashib turibdi.

Endi oltinchisiga kelaylik. U, aytganimizday, eski yozuv stoli yonida (stol ustida chang-g‘ubor qo‘ngan telefon apparati ham bor) taxtaday qotib turadi. Ko‘zi qandayligi ma’lum emas, chunki u ko‘zoynak taqadi. Qoracha yuzida odamga lop etib ko‘rinadigan narsa shu ko‘zoynak. Lekin u boshqalardan bu bilangina farq qilmaydi. Farqi yana shundaki, avvalo, hali aytganimizday, stol yonida qotib turadi, shunga bog‘lab qo‘yilganday. So‘ngra ishlamaydi. Bir zamonlar, yoshligida, mana bu „Hurmat taxtasi“ni tashkil etib uni hamma ko‘zlarning suratlari bilan, g‘orning peshtoqini esa shior bilan bezab qo‘yan. Endilikda shularning ta’sirini kuzatib, qimir etmas miyasini ishlatib turibdi.

Yettinchi kishi, qo‘lida ketmoni bilan, keyinroq yetib keldi. Uning bo‘yi past ham emas, baland ham emas, o‘zi ketmon bilan quchoqlashib tug‘ilganday, yumaloq. Tepalikning orqa tomonidan chiqib kelib, pastga yumalab tushganday birdan paydo bo‘ldi.

– Ha, shu yerni kovlash kerak ekanmi? – deb so‘radi kelasolib: – Nega kovlash kerak ekan?

– Hokim To‘rayevich aytganlar! – dedi Ikkinchı.

– Ha unday bo‘lsa... – deb kaftiga tufladi-da, barini beliga qistirib, ishga tushdi. Endi unga shu yerni kovlash kerak ekanligi ham, nega kovlash kerakligi ham ayon edi. Oftobda qoraygan peshonasiga sharros ter qalqidi.

Lekin unda yana savol tug‘ildi. U boshqalardan mana shu o‘rinsiz savollari bilan ajralib turardi.

– Ana u kishi nimaga ishlamayapti? – dedi u yozuv stoli yonida taxtaday qotib turgan Oltinchiga ishora qilib. Uning bu qadar sersavolligiga ham hayron bo‘lib, ham g‘ashi kelib turgan Birinchi ishdan bosh ko‘tarmay to‘ng‘illadi:

– Tepadagi shiorni o‘qimadingmi?

– O‘qish kerakmi? – deb so‘radi Yettinchi.

– Yana savol beradi-ya. Muncha savoli ko‘p ekan?

Keyin shiorni o‘qidi: „Qo‘srimcha majburiyatni mud-datadan oldin bajaramiz!“ Uning ovozini eshitgach, qizil alvondagi bezaklar birdan jonlanib ketgandan, hamma anqayib tepaga qaradi.

– Ana endi tushundingmi? – dedi Birinchi Yettinchiga. Keyin qotib turgan Oltinchiga ishora qildi: – U ana shuni g‘oyaviy jihatdan ta’minlaydi.

Aftidan, Birinchi ko‘p narsani bilar, shiorni ham o‘qigan ekan shekilli-yu, kamtar ekan-da. Tarbiya ko‘rgan odam kamtar bo‘lishi kerak. Katta odamlar bor, kichkina odamlar bor. Kichkina, kamtar odam hargiz o‘z xayollariga izn beravermasligi kerak.

Hadeb savol ham beraverma, dedi o‘ziga o‘zi Yettinchi.

Shu bilan gap-so‘z tinib qoldi, astoydil mehnat qilishga shart-sharoit tug‘ildi.

Tuproq shovullaydi. Betinim, bir maromda, hamma yerda tuproq shovullaydi. Telefonli stol yonida turgan Oltinchining xayoliga „Mehnat poeziyasi!“ degan tanish so‘z birikmasi keladi, qoracha yuzlari yorishadi.

Shunday jimlikda g‘ayritabiiy bir shitirlash eshitiladi. Ikki marta eshitildi. Savol beraverish naqadar noqulay bo‘lsa ham, Yettinchi o‘zini tiyolmadi:

– Bu, deyman, juda ichkariga o‘yib kirib ketdik-ku, tepamiz o‘pirilib bosib qolmasmikin?

– Bosmaydi. Bosmaydi deyishgan, – dedi Uchinchi bilan To‘rtinchi barobariga bo‘s sh zambilni yerga qo‘yib.

– Ha unday bo‘lsa... – deya, xotirjam bo‘lib kajavaga tuproq tashlay boshladи Yettinchi. Tepalikning bosib qolmasligiga endi ishonchi komil edi, qoracha manglayidan mehnat terini sidirib tashladi.

Lekin bir pastdan keyin haligi shitirlash yana eshitildi. Ilhombaxsh mehnat jarayonida bunga kim ham e’tibor berardi. Xiyol o‘tib, kiraverishda tepadan to‘p etib ikkita kesak tushdi. Kesaklar ushalib, sochilib ketdi. To‘p etgan tovushga qayrilib qarashgan ham ediki xuddi o‘sha joyda tepadan gup etib lo‘mbazday tuproq o‘pirilib tushdi. Chang to‘zg‘ib, tashqari ko‘rinmay qoldi, yana allanimalar gursilladi. Zimistonday qorong‘ida changdan n afasi qaytgan odamlar jon holatda avval uyoq-buyoqqa yugurishib, keyin gursillash-u shovullashlardan quloqlari ham bitgach, bir-birlaridan najot istaganday qo‘l ushlashib o‘rtaliqda g‘uj bo‘lib qoldilar. Dahshatli gursal-gurslar tinganda ham, quloqlariga ishonmay, bir-birlarini qo‘yib yuborishdan qo‘rqandek, tirik jon taftidan umid uzolmasdan shu holatda uzoq turib qoldilar. Hech narsa

eshitilmas, hech narsa ko‘rinmas, u dunyodami – bu dunyodami ekanliklarini bilolmaganday garangsib, qimir etgani jur’at topolmay turaverdilar.

Anchadan keyingina quyuq to‘zon asta bosilib avval yon devorda „Hurmat taxtasi“ tepasidagi ikki chirog‘ xiragina bo‘lib ko‘rindi. Odamlar o‘z nafaslarini eshitib, bir-birlarining changga belangan afti-angorlarini ko‘rdilar. Hammaga go‘yo qaytadan jon kirdi, tirik ekanliklariga quvondilar, ko‘zlari ham asta-sekin qorong‘iga o‘rganib o‘rab olgan qora devorlarni ilg‘ay boshladilar. Chor atrof ko‘r-25u gumgurs edi. Yugura borib devorlarni bir-bir ushlab, itarib, tepib ko‘rdilar. Ilgari ochiq turgan tomon ham butunlay bosib qolgan, ular tiriklay ko‘milgan edilar.

– E... endi... nima qilamiz? – dedi Yettinchi.

Bu cheksiz jimlikda qora devorlardan titroq aks-sado bergen birinchi jur’atli tovush edi. U ham bo‘lsa – savol. Shu holatda ham savol beradi. Yettinchi o‘zi biron jo‘yali fikr taklif qilolmaydi-yu, savol tashlagani tashlagan.

Ammo shu birinchi sado hammani hushiga keltirdi. Qimirlab qoldilar, kimdir ust-boshini qoqdi, kimdir sal o‘ziga kelib zambilg‘altakka o‘tirdi, yana kimdir og‘zidagi loyni tuflab tashladi...

Nima qillardik... Hech kim topshiriqni bekor qilgani yo‘q, har qanday ob-havo... toyes har qanday sharoitda...

– O‘zi qaysi tomonni qaziyotuvdik? – dedi bu vahimali zimziyoda boshi aylanib qolgan Ikkinchi.

– Mana bu tomonni... – Beshinchi qoqla-surila orqa devor tomonga yurdi.

– Mana bu yoq ochiq edi. Mana bu „Hurmat taxtasi“ – yon devor, demakki... – U gapidan to‘xtab qoldi. „Hurmat taxtasi“ yonida Oltinchi ishga tushgan edi. U „Hurmat taxtasi“ni maxsus latta bilan artib, unga Yettinchining ham suratini osib ulguribди.

O‘zi taxtada hamma bor, faqat bitta joy bo‘s sh qolgan edi. Endi qarabsizki, taxta ochilib ketibdi, xuddi shundan siqilib turgan ekanmi... Chiroyli! Chirog‘lar ham uning tepasida. G‘orni yoritib turgan chirog‘larmi, ilg‘orlarmi – Oltinchining yuzida mana shu zavqli va hayratomuz xitob porlar edi. U ommaning kayfiyatini ajoyib tezkorlik bilan payqaydi. Tuproq tagida qolgan shiorni ham yangittan yozib osishi kerak. Stol tortmasidan tish paroshogini olib, ishga tushdi.

– Tuproq tashiydigan yo‘l bekilib qolibdi-ku... – deb barobar gap boshlashdi Uchinchi va To‘rtinchi! Lekin Oltinchi ishni g‘oyaviy jihatdan ta‘minlash uchun jon chekayotgan og‘ir sharoitda ortiqcha obyektiv vajh-u karsonga jim quloq solardi. Aka-ukalar tarbiya ko‘rgan odamlarga xos odob bilan, jim bo‘lishdi. Ammo savolning boshingdan qolgur Yettinchining isyonkorligini tiyib bo‘ladimi! U savol bersa bo‘lgani, kimga savol beryapti – o‘zigami, birovgami, javob oladimi – yo‘qmi, bu bilan ishi yo‘q, ichini bo‘shatib oladi shekilli-da. Yana so‘radi:

– Axir, avval bu qora go‘rdan qanday chiqib qutulishni o‘ylamaymizmi?

– Buni o‘ylaydiganlar bor, akasi, – dedi barini beliga qistirib, ketmonni qo‘liga olgan Beshinchi. Hozir uning ishi ko‘p – hamma joyda shiftdan tushgan kesaklar sochilib yotibdi. – Tepada sendan katta odamlar o‘tirishibdi. O‘ylashadi.

– Sizning gapingiz ham gap, – dedi Yettinchi, – biz kichkina odamlarmiz.

Endi hamma o‘z ishiga kirishgan edi hamki, stoldagi telefon chang-g‘uborni to‘zg‘itib jiringlab qoldi. Yaqinroqda turgan Oltinchi trubkani oldi.

– Ahvol qalay? – degan ovoz eshitildi.

– Ahvol yomon emas...

Trubkadan kelayotgan ovoz, shubhasiz, Hokim To‘rayevichni edi. Hamma jim bo‘ldi. Biroq telefon simlari shikast yegan ekanmi, qancha nafas yutib qulog olishmasin, baribir uyog‘ini yaxshi eshitishholmadi. Lekin Oltinchi topshiriqnni yaxshi uqqan edi, ommaga yetkazdi.

– Hokim To‘rayevich, avvalo, qora ko‘zlarga mening salomimni yetkazing, dedilar.

– Ana, aytmadimmi, o‘ylaydigan kattalarimiz bor, akasi, – dedi Beshinchi kipriklarini qo‘lqop bilan artib.

– Ha, o‘ylashyapti, – davom etdi Oltinchi. – G‘ordagilarni qutqarishni o‘yladik, dedilar. Ammo biz tashqaridan qaziylik desak bu xavfli ekan, tepalikning biror joyi butunlay bosib qolishi bor. Shuning uchun topshiriq bunday: o‘zlarining sharoitga qarab ehtiyyot bilan mustaqil harakat qilinglar, dedilar.

Topshiriqni olgandan keyin hamma erkin, chuqur so‘rab olib, xotirjam bo‘ldi. Xuddi qora yer qa‘rining zim-ziyo tutqinligidan bir mo‘jiza bilan qutulib, birdan yorug‘likka chiqqanday, yayrab o‘tirib qoldilar. Hokim To‘rayevichning ovozidan eribroq o‘tirgan Birinchi Yettinchiga qaradi:

– Hammamiz uchun hurmatli Hokim To‘rayevich dono odam-da, topganini qarang: „Qora ko‘zlar!“ Muomala deb buni aytadi. Qarang, hech kimni boshqalardan ajratib ham atamaydi, hech kimni xafa ham qilmaydi. Hammaga yoqimli – „qora ko‘zlar“! Shu kengligi ommaga ma’qulda kattamizning.

– Zo‘r, zo‘r. Gapga jubbo kiydiradilar.

– Hech-da. Chunonchi, mana seni oting bilan aytib, alohida atas, sen hovliqib, bir qarich o‘sib, yana, Xudo

saqlasın, ochilib ketib, hamma yoqni savolga to‘ldirib tashlarmidin! Shunday emasmi?

– Shunday.

– „Qora ko‘zlar“ deganda esa hamma bir qolipdan chiqqanday bab-baravar. Hech kim hovliqmaydi ham, kamsitilmaydi ham.

– Ha.

Yettinchi „ha“ dedi-yu, lekin yana savolparastligi tutib, o‘rnidan turib ketdi.

– Hay, birodarlar, aytgancha, bu mustaqil harakat harakat qilinglar, degani qanaqa bo‘ladi?

– O‘zlarining bilib yo‘lini topinglar deganidir-da.

– O‘zimiz qayoqdan bilamiz, ko‘rsatma bo‘lmadi-ku?

Yettinchining „savolchi“ligiga o‘rganib, bunga parvo qilmay qo‘ygan odamlar bu safar hushyor tortishdi. Chindan ham, o‘z bilgicha ish qilish mumkin ekanmi, bunisi qanaqa bo‘ladi?

– Telefon qilish kerak, aytishsin! – dedi Ikkinci.

– Telefon qilib bo‘lar ekanmi. Telefon bir tomonlama-ku.

– Qanday „bir tomonlama“? – dedi Yettinchi.

– U tomondan gapirib bo‘ladi, bu tomondan – yo‘q. Uqdingmi?

– Qanday? – dedi. Sira tinchimadi bu „savolchi“. Go‘yo faqat u hamma narsani bilishi kerak. Darrov bila qolishi kerak. Birinchi unga yana tushuntirib qo‘yishga majbur bo‘ldi:

– Menga qara, telefon ikki tomonlama ishlasa, tartib bo‘ladimi! Sen telefon qilsang, men telefon qilsam, sen bilan menga o‘xshaganlar nechta? Hokim To‘rayevich bo‘lsa...

„Nima qilamiz bo‘lmasa?“ – bu savol hammaning ham ko‘nglida bor edi. Bu „savolparast“ podani bulg‘atdi

shekilli-da. Birinchi marta bunday bezovta bo‘lishlari. Ruhiy bezovtalik yomon ekan, halovat qochdi. Bu qiyonoqdan ko‘ra, tepalikni o‘sha ko‘rsatilgan joydan qaziyvergan osonroq edi. Kavlayverilsa bir joydan chiqiladi-ku axir.

– Biz yangi ko‘rsatma oldik, demakki, eskisi bekor bo‘ldi. Yangi ko‘rsatma shundan iboratki, mustaqil harakat qilish kerak, – dedi Oltinchi qog‘oziga qarab qiroat bilan.

– Bu avvalgisidan mushkulroq albatta. Ammo shunday bo‘lishi qonuniy. Chunki topshiriqlar tobora og‘irlashib bormasa olg‘a qarab siljish bo‘lmaydi.

– Bir joydan kovlab, teshib chiqishi kerak. Havo kirsin, yo‘l ochilsin.

– Unday ko‘rsatma bo‘lgan emas...

– Qaysi tomonni kovlaymiz?

– Ha mana, o‘pirilib tushgan tomonni. Yo‘l o‘sha yoqda.

– U tomonni kovlashga kim ko‘rsatma beradi?

– Bo‘lmasa bir boshliq saylaymiz. O‘sha nima desa – shu.

– Yo‘g‘e... – dedi Birinchi qo‘rqib. – Tepada boshlig‘imiz turib, yana birovni saylash uni tan olmaslikka o‘xshab ketmaydimi?

– Kichkina... Kichkinagina bir boshliqcha saylaymida. Bizga bo‘laveradi.

– Kimni?

– Mana, sizni, masalan, – deyishdi aka-ukalar. Birinchining mo‘yi tikka bo‘lib, sapchib tushdi.

– Meni?.. Seni kim tayinladi, desa... Yo‘q, tarbiya ko‘rgan odammiz, o‘zboshimchalik bo‘ladi. Avvalo yu-qoridan menga ishonch bildirilishi... – u bir tomonlama telefonga mung‘ayib qarab qo‘ydi.

— Yo‘q, birodarlar, — dedi Ikkinci, — saylovi nimasi. Har kim o‘ziga boshliq saylab olaversa... Topshiriqning har bir so‘zini diqqat bilan eshitdinglar: „Ehtiyot bilan“ degan joyi bor. Bu donolik bilan aytilgan. Ehtiyot bo‘linmasa, mustaqillikning mana shunday xavfli tomonlari bor.

— Juda mushkul narsa ekan-da... — dedi Beshinchi ketmonini suyab o‘tirarkan. Keyin u bo‘xhasidan non, mayiz, talqon olib, qiyiqchasini yerga yozdi. Buni ko‘rib boshqalar ham ochiqqanini sezdi chog‘i, biri belbog‘dan, biri to‘rxaltadan u bu olib o‘rtaga to‘kdi. Tortishuvlardan charchaganliklari ham endi bilindi. Shuncha tepalikni o‘yib, shuncha turpoq tashib munalik charchamagan edilar. Chindan ham mushkul ekan...

U bu tamaddi qilgandan keyin, a’zoyi badanlari bo‘shashib, uyqu tortib tursa ham, xotirjam bo‘lolmas, behalovat edilar.

Oziq-ovqatning hidini oldimi, poygak tomonga kalamush yugurib o‘tdi.

— Huv, padaringga la’nat! — dedi ishtahasi qochib, ko‘ngli betinch bo‘lib o‘tirgan Yettinchi. Endi uning savoli ham qolmagan edi. To‘g‘rirog‘i — bir-biriga mingashgan chigal-chirmov savollar uni yenggan, darmonini quritgan edi. U ham endi loqayd bo‘lib qoldi, ko‘pga kelgan to‘y, boshqalarga nima bo‘lsa, unga ham shu-da.

— To‘xta, to‘xta! — dedi Ikkinci shu mahal hovliqib. Aka-uka Uchinchi-To‘rtinchilarining „dasturxon“ qilib yoygan ko‘k qog‘ozini tortib oldi. Undagi piyola yumalab, ikki hovuch jiyda, turshak, yana allanimalar sochilib ketdi. Aka-ukalarning og‘zi ochilib qoldi. Ikkinci qo‘lidagi ko‘k qog‘ozga tikilgan edi. Qog‘oz g‘ijimlanib, yirtilib ketgan, cheti ho‘l, bir burchagi butunlay yo‘q.

– Menga qaranglar! Mana bu... Axir bu... Hamma unga qarab engashdi. Ikkinci g‘ira-shira qog‘ozdag'i katta harflarni hijjalab o‘qishga harakat qilardi.

– Ins... Ins...

– Insi-jins!? Voy-dod!

– O‘zingni bos, xursandchilik-ku qaytaga... „Ins... instr... „Buyog‘i sal yirtilibdi, attang“, – dedi. Ikkinci qog‘ozning yirtilgan, buklangan joyini barmog‘i bilan tekislab, o‘qidi: – „Instr – ukuksiya“ Instruksiya!

– A? – dedi aka-uka barobariga, hamma oldidagi taomini unutgan edi.

– Instruksiya?

– Ha-da. Mana! Instruksiya topildi, birodarlar! – dedi Ikkinci atrofida charaqlagan qora ko‘zlarga tikilib. O‘zi ham xazina topganday, o‘limga mahkum etilgan do‘sclarining najotkoriday baxtiyor edi, ochilib ketdi: – Madaniy jamiyatda yashaymiz, azizlar. Bunday jamiyatda inson hech qanday vaziyatda ham yo‘l-yo‘riqsiz qolmaydi!

Instruksiya – bamisolli mushkuli kushod. Toliqqa vujudlarga halovat qaytib keldi. Ovqat, charchoq, ruhiy xotirjamlik, bu omad hammani elitdi. Kechadan beri uxlamagan odamlar g‘am-tashvishdan arib, oyoqlarini bemalol uzatdilar, a’zoyi badanlari rohatdan halimday bo‘shashib uyquga toldilar. Endi miriqib orom olsa ham bo‘ladi, aha, yaxshilab hordiq chiqarish kerak, ertaga aniq, tayinli ishlar turibdi. Qayoqdadir kalamush shitirlayapti. Shitirlasa shitirlayversin...

Ertasiga nonushtadan keyin hamma bel bog‘lab yeng shimarib bo‘lganida Ikkinci chirog‘ tagiga borib „Instruksiya“ni o‘qiy boshladi.

Hamma tilovat somedek jim o‘tirardi.

– „Instruksiya“ – deb o‘qidi Ikkinchi, – „Birlamchi modda. Massani...“

– Massani?

– Ha, ommani degani. „Massani harorat selsiya bo‘yicha -5° dan past bo‘limgan salqin joyda saqlash kerak“.

– Ha salqin joyda.

– „Ikkilamchi...“ bunisi yirtilibdi. „To‘rtlamchi modda. O‘ylab bo‘lgandan keyin... qo‘llarni albatta, yuvib tashlash kerak“

– Yuvdik, yuvdik!

– To‘xtanglar! – dedi aka-ukalardan biri, To‘rtinchi – To‘xtanglar, birodarlar... bu... „o‘ylab“ emas, „o‘ynab“, „o‘ynab bo‘lgandan keyin“ ya’ni, kichkina o‘g‘lim qo‘g‘irchoq-odam yasayman deb xarxasha qilaverGANidan, plastelin olib berib edim, bu o‘slicing qog‘oz... Non o‘rab kelgan ekanman, birodarlar!

Yuzlaridagi shu’la o‘chdi. Bekorga xursand bo‘lishgan ekan. „Aldanib qolg‘on yomon“, deb bekorga aytmaydi ashulachi. Kechagi tashvishli, so‘lg‘in holat yana qaytib keldi. Hatto Yettinchi ham biron savol topolmadi. Ikkinchi „Instruksiya“ni jahl bilan tashlab yuborgan ekan. Beshinchi uni asta olib, avaylab taxladi-da, ichki cho‘ntagiga solib qo‘ydi. Nima bo‘lsa ham instruksiya axir. Hurmat qilishi kerak tarbiya ko‘rgan odam...

Jimjitlik eza boshladi. Yalang yerga kechagiday g‘uj bo‘lib o‘tirib qolishgan edi. Qaerdadir yana kalamush shitirlagani eshitildi. Har zamonda stoldagi telefonga qarab qo‘yishadi – ko‘rsatma bo‘lib qolar degan ilinj, sira o‘lmaydigan umid bor-da...

Jimlik qulqlarda zing‘illab, sabr-bardoshni egovlaydi. Shu yerda dimiqib o‘lib ketasizlar desa ham... ishqilib,

biron bir ko'rsatmacha bo'lsa... Tavba-astag'firullo, shunday o'yga kelganlar ham bo'ldi-da. Axir odamni ham o'z-o'ziga qo'yib beradimi!

Bir payt bir chinqiriqdan sukut darz ketdi.

– Anuni qaranglar!

Mizg'ib o'tirganlarning quti o'chdi. Chinqirgan aka-ukalarning biri – Uchinchi edi. Uning alohida ovozini endi eshitishdi, ovozi o'tkir ekan. Hamma u ko'rsatgan poygak tomonga qaradi, o'sha yerdan kichkinagina bir nuqta yorug'lik qorong'i g'orni teshib kirgan edi. Ingichka shu'la, bir chimdimgina nur ichkari tomondagi ko'r devorga o'qday qadalib turibdi.

– Yorug'lik! Yorug'lik! – deb qichqirishdi.

– Kalamush teshibdi! Kalamush!

Birinchi shu nafis nur tasmasiday sehrlanganday, asta o'sha tomon yurib, devor yonida to'xtadi. O'ylab turib, etigi bilan bir tepgan edi, ikki zambil tuproq o'pirilib, shovullab tushdi-da, odam bo'yi teshik ochilib ketdi. Kun kirib kelganday bo'ldi g'orga.

Jo'ra-jamoat shovqin suron bilan o'sha tomon oshiqdi. Birinchi tashqariga qaradi:

– Og'izlaringdan gullab qo'ymalaring, kalamush yo'l ko'rsatdi deb! Kattamizning ori kelib, bizni noto'g'ri tushunib o'tirmasin!...

## EH, KATTALAR...

Egnimdag'i dxotining<sup>3</sup> chokidan ketganiga qaramang, men braxmanlar toifasidan bo'laman. Ishonmasangiz, mana, peshonamda asl sandal bo'yog'idan qip-qizil tamg'a. Ko'rdingizmi?

Bu yil yomg'ir faslida o'n ikkiga kiraman. Otim – Bajdat. Braxman bo'lsak ham kambag'almiz-da. Boy bo'lganimizda otim Bajdat emas, Bajradatt bo'lardi. Dadam shunchaki tabib. Muyulishda o'tirib, bambuk cho'p bilan odamlarning qulog'ini tozalaydi. Oyim bo'lsa bostirmaning tagida qolib o'lgan. Qo'shnimiz Xiromon babu o'sha kuni menga qarab turib shunday degan edi: ona o'limidan keyin bola uchun eng xayrli ish otaning o'limi...

To'g'ri aytgan ekan. Dadam o'shandan beri har kuni meni xivich bilan...

Hay, bu gaplarni men sizga nima uchun gapiryapman? Rostdan ham juda mahmadonaman. Nima qilay, og'zim ochilsa gapim gapga ulanib ketaveradi. Odamning ichida gap ko'p bo'lar ekan. Gapirmasam koptokday shishib, xuddi dam bo'lib ketayotganga o'xshayman.

Gapirgan yaxshi-da! Nima dedingiz? Odamning yaxshi ko'rgan narsasi bo'ladi, yomon ko'rgan narsasi bo'ladi. Gapirmsa buni birovlar qayoqdan biladi?

Men, masalan, yomg'irni yaxshi ko'raman. Nega deyapsizmi? Ana, o'zingiz ham qiziqib qoldingiz. Gapiroman-da.

Yomgirni yaxshi ko'rganim... Osma bog'chani ko'r-ganmisiz? Juda chiroyli, hamma vaqt ko'm-ko'k;

<sup>3</sup> Dxoti – erkaklar kiyimi

daraxtlarni tarashib har xil hayvonlarning suratini qilib qo'yishgan. U yerdan butun Bombay xuddi kaftingizda turganday ko'rinadi. Hindiston darvozasi ham, okean ham ko'rinadi.

Men oyimning eski zontini qo'lтиqqa urib, har kuni bog'ga boraman. U yerda sayohatga kelgan juda ko'p sohiblar, xonimlar sayr qilib yurishadi. Hammasi biram nozik, oppoq, ko'ylaklari xil-xil ipak. Birdan yomg'ir quyib bersa, tipirchilab qayoqqa borishni bilmay qolishadi. O'shanda men, xuddi ertakdagiday lip etib paydo bo'laman-u, zontni shartta ochib:

— Madam! Sohib! — deb shundoqqina ro'parasida iljayib turgan bo'laman.

Yomg'ir, baxtimga qattiqroq savalab bersa bormi, uch paysa, besh paysalab baxshish qilishadi.

Har kuni yomg'ir yog'maydi-da, esizgina...

Endi, yomon ko'radigan narsang nima, desangiz, buni qisqagina qilib aytib berolmayman. Gapisaveraymi? Bo'pti. Yaxshi sohib ekansiz. „Mahmadona“ deb og'zimga urmagan sohibni endi ko'ryapman, Ram-ram<sup>4</sup>!

Yomon ko'rgan narsam – kattalarning biz, bolalarga hadeb xo'jayinlik qilaverishi. „U mumkin emas! Bu to'g'ri kelmaydi!“ ming xil qonun-qoidalarni o'ylab chiqarishadi. Bular bo'limganda men hovlimizdagi hamma bolalar bilan allaqachon o'rtoq bo'lib olardim. O'shanda biz eng ajoyib o'yinlarni o'ylab chiqargan bo'lardik. Dengiz sohiliga chiqib, cho'kib yotgan kemaga yoki g'ordagi ehromlar oroligacha suzib borardik. Odam bitta o'zi qo'rqadi. Eh, siz kattalar, o'rtoq bo'lishning qanday yaxshi ekanini bilmaysizlar-da...

<sup>4</sup> Ram-ram — Ajablanish xitobi. Ram hindchasiga xudoning nomi

Biz hov ana shu uyda turamiz. Olti qavatli uy, ko‘rdingizmi, oldida ko‘kalamzor maydoni ham bor. Bu uyning hammasi bizniki emas, albatta. Dadam bilan biz uning eng tagida – yerto‘lasida turamiz. Bizdan teparoqda Xiromon babu turadi. Uning Lekxa degan qizi bor. Undan teparoqda do‘kondor Pars turadi, o‘g‘lining oti – Avrang; undan narida Shoislom degan kishi turardi, cho‘loq o‘g‘li bilan. Pokistonga ketib qolishdi. Undan yuqorida soqolini o‘rib yuradigan panjoblik Sinks turadi – uning ham Moxan degan o‘g‘li bor. Eng yuqorida bo‘lsa, hov tomida hovuzi, gulzori bor joyda sohib Mak Sitli turadi. Baqalog‘ining otini bilmayman. Biz uni kichkina mister deymiz. Uning botinkasidan ham atir hidi...

E, to‘xtang, men hali bularning hammasini bir-bir gapirib beraman. Buning uchun bir boshdan aytishim kerak.

Puntidan boshlaymiz. Ana u, savatdan tushib qolgan ko‘mir parchasiday bo‘lib, maydonda – oftobda o‘riribdi. Bal daraxti tagidagi bo‘yra bilan to‘silgan chayla o‘shalarniki. Katta uyda turmasa ham, Punti biz yashaydigan hovlining bolasi hisoblanadi, chunki ularning chaylesi shu yerda. U doim yolg‘iz. Onasi katta ko‘prik tagidagi shahar kirxonasida mag‘zava to‘kadi. Dadasi taxtiravonchi. Bu nima deganing, deysizmi? Ezgu maymunlar ehromini ko‘rganmisiz? Uch yuz pillapoyali zinadan chiqiladi. Sohib sayyoohlar kelganda bu pillapoyadan piyoda chiqishga bo‘yni yor bermay, hammollarning yelkasidagi taxtiravonga o‘tirib chiqishadi. Taxtiravon – yog‘ochdan qilingan, to‘rt dastalik, tobutga o‘xshashroq narsa. Faqat ikki kishi o‘tiradigan joyi bor. Puntining dadasi bolaligidan beri shuni ko‘tarib, bukri bo‘lib qolgan. Ular kamar degan past tabaqadan. Shuning

uchun unga boshqa ish berishmaydi. Mumkin emas. Shuning uchun Puntiga ham hech kim yaqinlashmaydi. Biz braxmanlarga u bilan qo'l ushlashish, gaplashish to'g'ri kelmaydi. Biz ular tekkan idishni sindirib tashlaymiz. Etagimiz tegib ketsa, uch kun ovqat yemay, dam soldiramiz.

Mana shu Puntiga juda rahmim keladi. U mendan kichik, juda mo'min, indamas. Kamar toifasidan bo'lgani uchun yonidagi quduqdan suv olib icholmaydi. Ularga mumkin emas, paqirni harom qilib qo'yishadi. Shuning uchun, chanqasa, sopol kosasini ushlab yoniga kelib turadi. Ertadan-kechgacha turadi. Bironta rahmdil braxman suvga kelganida xumchasidan jindak suv quyib bersa – yaxshi, bo'lmasa bola ikki-uch kun ham kosasini tutib, tilanchiday turaverishi mumkin. Quduq tepasida tashnalikdan tili shishib o'lsa o'ladiki, o'zining suv olib ichishga haddi sig'maydi.

Bir kuni uning oyisini ilon chaqdi. Mag'zavadan burishib ketgan qo'lini qo'ltig'iga suqib, chayla yonidagi bo'yrada kechasi bilan yumalab, to'lg'anib chiqdi. Azonda qarasam, Punti quduq yonida turibdi. Onda-sonda suvga kelganlarga yolvorib tikiladi, oyisining ingraganini eshitganda kichkinagina vujudi titrab ketadi. Kun ertalabdan qizitar edi. Punti quduq yonidan jilmaydi. Quruqshab ketgan lablarini yalab, odamlarga tikilganida yoshli ko'zlarida...

Yana, meni mahmadona deyishadi-yu, eng kerak joyda so'z topolmay qolaman.

Xullas, men chidamadim. Yugurib borib Puntiga quduqdan bir paqir suv tortdim-da, ko'tarishib, chaylasiga eltishib berdim. Oyisi uchun shuncha jon kuydirganiga qoyil bo'lib, yelkasiga qoqib qo'yganimni

bilmay qolibman. Dadam qayoqdandir halloslab kelib, ulog‘imdan burab qolsa bo‘ladimi!

– Harom bo‘lding, itvachcha, kimligingni bilmaysanmi? Braxmanmiz-a, braxmanmiz!

Shu kuni dadam meni xivich bilan rosa...

Bunisiyam mayli, gap dadamda ham emas, kattalar hammasi shunaqa: qayoqdagi qonun-qoidalarni pesh qilishgani-qilishgan.

Gap shundaki, Punti yaxshi bola bo‘lsa-da, u bilan o‘rtoq bo‘lolmadim. O‘rtoq bo‘lishim mumkin emas, tushundingizmi? U kamar toifa, men bo‘lsam braxmanman.

Braxmanlardan bizning hovlimizda Lekxa degan qiz bor. Haligi aytganim Xiromon babuning qizi. Men ana shu bilan o‘rtoq bo‘lishim mumkin deb, bir kuni unga kaftlarimni juftlab, egilib salom berdim:

– Pronam!<sup>5</sup>

– Ha, kxoka<sup>6</sup>, oting nima? – dedi.

U ham juda yaxshi qiz ekan, salom berganimga quvonib ketdi, birpasda ancha gaplashdik, u ham dengiz sohiliga cho‘kkan kemaga, fillar oroliga borishni orzu qilib yurar ekan. Zap o‘rtoq bo‘ladigan bo‘ldik.

Ikkinci kuni Lekxa menga hamma taqinchoqlarini ko‘rsatdi. Men bunaqalarni faqat magazinning derazasidagina ko‘rganman. Lekxaning dadasi boy pandit<sup>7</sup>, nufuzli munajjim. Nima? Munajjimni bilmaysizmi? O-o! Yulduzlarga qarab fol ochadi. „Ved“ degan kitobi bor, shuni har kuni o‘qib, baxt xudosi Lakshmi bilan gaplashar ekan. Yulduzlarga qarab shartta aytib beradi: omadingiz kelganmi, yo‘qmi?

<sup>5</sup> Pronam – hindchasiga „salom“ degani

<sup>6</sup> Kxoka – hindchasiga „ey bola“ degan so‘z

<sup>7</sup> Pandit – braxmanlar toifasining imtiyozli kishisi

Safarga otlanganlar, qiz uzatadiganlar, qimorga katta pul tikkanlar, ishqilib, baxtini sinamoqchi bo‘lganlar Xiromon babuning eshididan uzilmaydi. Lekxa bilan biz bo‘lsak bu orada inoq bo‘lib qoldik.

Lekin bu uzoqqa cho‘zilmadi. Bir kuni ertalab muyulishda Lekxani kutib qoldim.

Biz Osma bog‘ga borishga va’dalashgan edik. Birdan achchiq qarg‘ish eshitilib qoldi. Yuqoriga qarasam, Lekxalarning derazasidan eshitilyapti ovoz. Xiromon babuning tovushiga o‘xshaydi. Ha, xuddi o‘sha.

– Badbaxt yulduz soyasida tug‘ilgan gado! U senga teng emas!

– Ular ham braxman axir... – Lekxaning yig‘-lamsiragan ovozi eshitildi.

– Ha, osmon-u falakning qahr-g‘azabiga uchrangan braxman. Ko‘cha-ko‘yda tuproq yalab o‘sgan bolasi senga oshna bo‘lar ekanmi? Yoniga borganingni ko‘rsam, sochingni qirqaman, bilib qo‘y!

Tamom! Bu ham bo‘lmadi. Yana yolg‘iz qoldim. Endi umidim anavi Avrangda edi. U ham ammo-lekin yaxshi bola. Chiroyli bola. Qoraqosh, qirraburun, kipriklari uzun-uzun. Ular gado emas – dadasi do‘kondor. Hamma uni „do‘kondor pars“<sup>8</sup>, deydi. Ular past toifadan ham emas. Avrang bilan oshna bo‘lishimga hech qanday to‘sinq yo‘q. Oshna bo‘ldim ham. Bu juda oson ko‘chdi, ochiq bola ekan. Tanishganimizning ikkinchi kuniyoq uyida bo‘lgan hamma gaplarni gapirib berdi. O‘sha kuni kechasi uning amakisi o‘lib qolibdi. Shuning uchun butun oilalari, qarindosh-urug‘lari – hammasi bugun Sukut minoriga borishar ekan.

---

<sup>8</sup> Parslar – Hindistondagi zardushtiyalar jamoasi.

– Yur, seniyam olib boraman, juda qiziq bo‘ladi, ko‘rasan! – dedi Avrang.

Hamma azada-yu, Avrang bilan biz xursand edik. „Qiziq bo‘ladi!“ dedi Avrang. Ko‘pchilikka ergashib ketaverdik. Haqiqatan ham, parslarning odati juda qiziq ekan.

Osma bog‘dan o‘tib, katta qorg‘onga kirdik. Qorgonning o‘rtasida baland minora. Uning tepasida to‘da-to‘da quzg‘unlar salmoq bilan qanot qoqib gir aylanib turibdi. Qo‘rg‘on devoridan minoraning tepasiga chiqiladigan yakka cho‘p ko‘prikka kelganda bizni to‘xtatishdi, ko‘priordan faqat tobut ko‘targanlar o‘tib ketdi.

Quzg‘unlar murda kelganini sezib, osmonda bezovta bo‘lib qolishdi, yana ham ko‘payishdi. Avrangning dadasi yana bir qarindoshi bilan, o‘likni minora tepasiga qo‘yib tushishdi-yu, hamma qavm-qarindoshlar yoniga, devor tepasiga kelib o‘tirishdi. Hech kim indamas, hamma yerga qaragancha og‘ir qayg‘uda o‘tirar edi. Avrangning biqiniga turtdim: „Nima bo‘lyapti?“

– Hozir muqaddas quzg‘unlar amakimni yeyapti, jim o‘tir, ularning g‘azabi keladi.

Avrangning pichirlagan tovushidan etim uvishib ketdi. Minoraga qarab qo‘ydim, qonli ko‘zlarini, yovvoyi, qayrilma tumshuqlarini aniq ko‘rganday bo‘ldim. Bularniki qiziq ekan. Biz o‘lgan qarindoshlarimizni yondirib, kulini Gang daryosiga sovurib keta qolamiz. Parslarniki qiziq ekan... Birpas jimlikdan keyin minora ichida bir nima gumbur etib, anchagacha yer tagidan chiqqanday bo‘g‘iq yangroq eshitilib turdi.

O‘tirganlar hammasi yengil tortib, o‘rinlaridan turishdi, yuzlari yorishib ketdi.

- Nima bo‘ldi? – deb so‘radim men Avrangdan.
- Quzg‘unlar amakimning go‘shtini yeb bo‘lishdi, suyagi minoraning tagiga, yer qariga tushib ketdi: ruhi jannatga qabul qilindi. Ko‘rdingmi, hamma xursand.

Men esimni yo‘qotguday bo‘lib, anqayib tursam, birov yoqamdan mahkam ushladi.

- Bu kim?! Sen, bo‘yning uzilgur, kimni olib kel ding Sukut minoraga?

Bu Avrangning dadasi edi. U meni qo‘yib, Avrangning yoqasidan oldi. Shovqin ko‘tarildi.

Avrangning dadasi bilan oyisi faryod solib yig‘lay boshlashdi. Ularning ko‘ngliga dahshatli shubha tushgan edi: men tufayli marhumning ruhi jannatga qabul bo‘lmasligi mumkin. Buni payqab, o‘zim ham titrab ketdim. Avrangning qarindoshlarining avzoyini ko‘rib, o‘zimni qayoqqa urganimni bilmayman. Osma bog‘da, kenguru shaklda tarashlangan hulya daraxtining tagida pusib yotganimda hushimga keldim. Kech kirib qolgan edi. Oqshom salqin bo‘lsa ham butun a’zoyi badanim terdan jiqla ho‘l. Uyga qaytib, to‘rt kun isitmalab yotdim. Juda qo‘rqan ekanman, shekilli.

Endi Avrang bilan oshna bo‘lish qayoqda, tasodifan duch kelib qolishdan ham qo‘rqaman. U o‘zi ham o‘shandan beri ko‘rinmaydi. Qisqasi, bu ham bo‘lmadi. Endi boshqa o‘rtoq qidirish kerak. Shoislomning cho‘loq o‘g‘lini olib, Pokistonga ketgani ham tuzuk bo‘ldi. Men u bilan baribir o‘rtoq bo‘lolmasdim.

Panjoblik Sinksning o‘g‘li Moxan bilan oshna bo‘lishni o‘zim ham istamayman, chunki u, avvalo, katta, o‘n oltiga kirib qolgan. Undan keyin, zo‘ravon, maqtanchoq: panjobliklardan boshqalar odam emas emish. Faqat panjobliklar kuchli, jangovar, chiroyli, hunarmand

bo‘lar emish. Boshqalar xunuk, lapashang, dangasa bo‘larmish. Uning dadasi ham shunday deb o‘ylasa kerak – men ko‘chada o‘tirsam, xuddi kuchukka qaraganday qarab, salom bersam, yerga tuflab o‘tib ketadi.

Moxan Bombayni ham yomon ko‘radi. Shunday katta, chiroyli shaharni-ya! Ha, mayli, o‘zining ishi. Men baribir u bilan oshna bo‘lmayman.

Endi faqat bitta baqaloq qoldi. Kichkina mister. Botinkasidan ham atir hidi kelib turadi. U bilan oshna bo‘lsam bo‘ladi. U doim menga uzoq iljayib qarab turadi. Shuning uchun ishonamanki, yomon bola emas.

Kichkina janobning mushukdekkina oppoq iti bor. Xuddi bir yumaloq paxta deysiz. U har ikki kunda bir marta o‘shani yetaklab ko‘kalamzor maydonga tushadi. Sof havoda sayr qildiradi.

Bir kuni men maysada yotsam, itchasinip ipak tasma bilan yetaklab tushib qoldi. U tushganda hamma vaqt biz uyimizga kirib ketar edik. Chunki oq sohiblar ularning yonida turishimizni yoqtirishmaydi, burnilarini jiyirib, darrov ro‘molchalarini olishadi. Lekin bu safar men maysada yonboshlaganimcha yota berdim. Negaki, oshna bo‘lmoqchiman u bilan. Bilaman, kichkina janob haydamaydi, iljaygancha tikilib turaveradi.

Men o‘rnimdan turib, ta’zim qildim. Kichkina janob bosh irg‘adi, aytganiday, iljayib tikildi. U dam itiga, dam menga tikilardi. Nega desangiz, qiziq-da, it – paxtaday oppoq, mening tanim bo‘lsa qozonkuyaday qop-qora. Buni solishtirish kichkina janobga juda qiziq tuyuldi chog‘i. U qarab tura berdi. Lekin itchasi tinchlik bermadi: menga qarab ingichka, o‘tkir tovushi bilan hamma yoqni yangratib hura boshladi. Kichkina janob unga qand berdi,

erkaladi, lekin it hamon menga qarab huraverdi. Oxiri, kichkina janob ham bunga e'tibor bermay qo'ydi.

Bu vaqt baqaloqning oyisi paydo bo'lди. U yugurib kelib, itchani qo'liga olib, og'zidan o'pdi.

– Sen nima qilyapsan? – dedi menga.

– Shundoq... o'ynab, – dedim uning ko'z qarashidan chochib.

– Senga boshqa joy qurib ketganmi o'ynagani?

Uning avzoyi juda yomon edi. Xuddi bolasi o'layotgan xotindek, tovushida yig'i, gazab, baxtsizlik, alam, musibat ohanglari eshitildi. Men nima qilishimni bilmay, sekin qayrilib, jo'nab qoldim.

– Oyi, oyog'i ham qop-qora-ya... – degan ovoz eshitildi orqamdan.

Bu kichkina janobning tovushi edi. Oyisi meni itchalik ham bilmay, xo'rlab haydayapti-ku, bu unga sira ta'sir qilmabdi, oyog'imni gapirib o'tiribdi. Shunaqa esi past bilan oshna bo'lamanmi, o'zingiz o'ylang? Baribir, baqaloq esli bola bo'lganida ham, oyisi oshna bo'lishimizga qoymasdi. Men buni uning ko'z qarashlaridan angladim.

Mana shunaqa, hovlimizda shuncha bolalar bor-u, birontasi bilan oshna bo'lolmadim. Kattalarga hayronman! Nima qilar kin, ming xil qonun-qoidalarni o'ylab chiqarib? Mana, o'zingiz ayting, kitobda bormi shu qoidalarni? Yo'q! Hammasi o'ylab chiqarilgan. Tag'in meni mahmadona deyishadi, kuyganimdan gapiraman-da...

## UCHRASHUV

Men bu yil yozda o‘g‘lim Temur bilan birga Volga bo‘ylab paroxodda sayohat qildim. Shu sayohat vaqtidagi bir uchrashuv to‘grisida hikoya qilib beray.

Biz Paroxodda Kuybishev dengizini kechib, bir kuni shomga yaqin mashhur GESga yetib keldik. Hali to‘g‘on ustidan Volga orqali o‘tgan mashina yo‘llarida, shlyuzlarning darvozalarida chiroqlar yonganicha yo‘q, kechki jimlikda to‘g‘ondagi sharsharalarning vahimali shovullashi uzoq-uzoqlarga eshitilar, to‘g‘on tepasida terak bo‘yi ko‘rарilgan suv changi kumush bulut singari yiltillab ko‘rinar edi.

Paroxodimiz dengizdan Volgaga o‘tish uchun shlyuzlardan biriga kirib to‘xtadi. Shlyuz suv bilan to‘ratilgan kattakon qutiga o‘xshar ekan. Bu „quti“ning ichida hozir biznikiga o‘xhash bir necha paroxod, sollar, kemalar, qayiqlar tebranib turibdi. Ular hammasi dengizdan Volgaga o‘tish uchun shlyuzga kirishgan. Daryoning yuzasi dengizdan 25 metr pastda. Shlyuzdagi suv asta kamayib, biz hamma paroxod va kemalar bilan birga, turgan joyimizdan 25 metr pastga, daryo yuzasiga tushishimiz kerak.

Paroxod shlyuzga kirishi bilan hamma sayohatchilar yugurib palubalarga chiqishdi. Ikki yonimiz qalin sement devor, orqa-oldimizda temir darvozalar, tagimizda dengiz suvi qorayib, tinmay chayqalib turibdi. Paroxod parragiga urilib, o‘lib qolgan chavoq baliqlar oppoq qorinlarini osmonga qilib, suv ustida suzib yurishibdi.

Chap tomonimizdagi devorning usti hali bitmagan, uning tepasida kranlar, betonchilar ishlamoqda edi.

– Dada, uni qarang, yozyapti! – deb qichqirdi yonimda turgan Temur devorning tagini ko‘rsatib. Paroxodimizning yonginasida, devoriga urilgan to‘lqinlarga zo‘rg‘a dosh berib bir qayiq tebranib turardi. Men qayiq ichida yuqoridagi betonchilarday kombinezon kiygan bir yigitni ko‘rdim. U uzun dastali cho‘tka bilan, haqiqatan ham devorga bir nima yozayotgan edi.

– O‘qi-chi, – dedim men.

„Stroyim nave... – deb o‘qidi Temur, – bu yog‘ini endi yozadi: „Nave...“, bu yog‘i nimaykin? Biz ketguncha yozib bo‘larmikin, dada?

„Nave...“ning nima ekanini men ham bilolmadim. Qayiqdagi yigit zax sement devorga odam bo‘yi keladigan harflarni qizil bo‘yoq bilan astoydil chizmoqda edi. Sal o‘tmay qosh qorayib, darvozalar tepasida kuchli projektorlar charaqlab yondi. Men qayiqdagi yigitdan ko‘z ololmay qoldim. Uning keng peshonasi, sariq baroq qoshlari, allaqanday qiyg‘och yara izi, ko‘karib turgan baquvvat iyagi, umuman, uning issiqliqina chehrasi menga tanishday tuyulib ketdi. U yenglarini shimargan, bo‘yoq tomgan yonog‘ida ter tomchilari yiltillar, kulib turgan ko‘zlar bilan bizning palubaga qarab-qarab qo‘yar edi. Har qaraganida uni qayerdadir ko‘rganligimga tobora qattiqroq ishona boshladim. Ayniqsa, ko‘zlar... ha, ha, tanish. Albatta, tanish. Lekin qayerda ko‘rgan edim? Qachon? Yaqindami? O‘tgan yilimi? Yoki yoshligidami? Yoxud shunchaki, ko‘zimga tanishday ko‘rinyaptimi? Bo‘ladi-ku, shunday odamlar: istarasi issiq, eskidan qadronday, gaplashging kelib ketaveradi kishi. Yo bu ham shundaymikin?

Ana, u yana bizga qaradi. Palubadan kimdir unga gap otdi, u kulib javob berdi. Yo‘q, bu yigitni men taniyman. Albatta, bir joyda ko‘rganman. Lekin qayerda, qachon? Kim o‘zi bu?

Oylayverib, chakkam og‘rib ketdi, lekin baribir topolmadim.

Bir vaqt shlyuzda suv kamaya boshladi. Uch-to‘rt daqiqada biz ham, boshqa paroxod, sol va kemalar ham yigirma besh metr pastga tushib ketdik. Tagimizda to‘lqinlar hamon devorga urilib chalpillar, lekin endi bu dengiz suvi emas, Volga suvi. Biz daryo sathiga tushib qolgan edik. Endi yonimizdagи devor xuddi tepamizda osilib turganday ko‘rinar, undan sharsharaday suv oqib tushar, sovug‘i yuzlarga urmoqda edi. Biz xuddi chuqur quduq tubiga tushib ketganday bo‘ldik.

Temur tikkaga qarab, boshidan do‘ppisi tushib ketganini ham sezmay, qichqirib yubordi.

— Dada, uni qarang, yozib tugatibdi! O‘zi qani?

Yigit so‘zni yozib tugatgan edi. Biz, palubadagilar – hammamiz xor bo‘lib o‘qidik: „Stroyim navechno!“

Stroyim navechno! Mangulikka qurayotirmiz! Bu juda tabiiy xitob edi. Kuybishev GESning to‘g‘onlarini, shlyuzlarning mana bu yetti metr qalinlikdagi tog‘day baland devorlarini ko‘rgan kishi haligi kombinezonli yigit yozgan so‘zlarning haqiqat ekaniga chin ko‘ngildan ishonadi. Mangulikka! Boshqacha bo‘lishi mumkin ham emas. Bunday katta inshootlarni qurish uchun odamlarda shunday buyuk ishonch, shunday buyuk maqsad bo‘lmasa bo‘ladimi?!

Mana, oldimizda yuksak temir darvozalar ochildi. Paroxod yarqirab yotgan, bag‘rikeng Volga suviga suzib chiqib, yo‘lga tushdi.

— Ana u! Ana, ana! — deb qichqirdi Temur. Uning ham xayoli haligi yigitda ekan. Yigit o‘z qayig‘lda baland beton qirg‘oq tagida suzib borar, bizning paroxod izida paydo bolgan to‘lqinlarda maza qilib tebranar edi. Projektor shu’lasida men uning kulib turgan chehrasini so‘nggi marta yana bir ko‘rib qoldim. Ko‘rdim-u, „Kim bo‘ldi? Qayerda ko‘rganman?“ degan xayol yana miyamga chirmashib oldi. Men bu xayolni boshimdan shuncha quvsam ham, sira ketkizolmas edim.

Mana, doimo ko‘m-ko‘k archalar bilan qoplangan Jiguli tog‘lari orqasidan to‘lin oy ham balqib chiqdi, sokin ona daryo yuzida jimirlab turgan kumush so‘qmoq yo‘l paydo bo‘ldi, tumshug‘ida gulxan yongan katta solda o‘rmonchilar garmon bilan qo‘sish yangratib o‘tib ketishdi. Tikka qirg‘oqlar tagida baliqchi qayiqlar tebranar edi.

Tongga yaqin Kuybishev shahrining yorqin chiroqlari, marmar sohillar ko‘zga tashlandi. Men bo‘lsam mijja qoqmay, hamon o‘ylardim: „Qayerda ko‘rganman? Taniyman yo shunchaki tasodifmi?“

Yo‘q, bu tasodif emas edi. Men bu yigitni ko‘rganman. Taniyman. Paroxodimiz pristanga yaqinlashganda, nima ham bo‘ldi-yu, hammasi birdan esimga tushdi. Topdim. U – Petro Karachenko degan yigit. Men uning bolaligini yaxshi bilaman.

O‘tmishdagi og‘ir kunlar yodimga tushdi. Men bu haqda sizga keyingi hikoyamda gapirib beraman, kelishdikmi, bolalar.

Shunday qilib, Petro Karachenko edi uning ism-familiyasi. Men u bilan bundan o‘n yetti yil avval Toshkentda tanishgan edim.

...1942-yil. Ukraina, Belorussiya yerlari dushman qo‘liga o‘tib ketgan payt. Jangda, fashistlar tutqunligida halok bo‘lgan qardoshlarimizning bolalari, yuzlab yetimlar eshelon-eshelon bo‘lib kelib, bizning Toshkentimizda boshpana topishdi. O‘g‘il-qizlarini frontga uzatgan keksa ota-onalar bu og‘ir kunlarda ularni tarbiyasiga olib, issiq bag‘irlariga bosdilar; ko‘plab bolalar uylari, yetimxonalar ochildi. Ammo non yetishmas edi, kiyim-bosh yo‘q, o‘tingko‘mir yo‘q...

Shu kunlari yozuvchilar shaharda katta adabiy kecha o‘tkazadigan bo‘lishdi. Adabiy kechalar sira pulli bo‘lgan emasdi, lekin bu safar chipta sotib, yig‘ilgan pulni ota-onasiz qolgan bolalar foydasiga, yetimxonalarga beramiz, deb qaror qilishdi yozuvchilar.

Toshkentlik bolalar Shevchenko maydonini yaxshi bilishadi. O‘sha maydonda Davlat universitetiga qaraydigan ikki qavatli bino bor. Adabiy kecha ana shu binodagi katta zalda o‘tkaziladigan bo‘ldi.

Ko‘chalarga, muyulishlarga afishalar yopishtirilgan edi: „Katta adabiy kecha. To‘plangan pul, dushman bosib olgan yerdan keltirilgan ota-onasiz bolalar foydasiga beriladi. Kechada ishtirok etadilar: Aleksey Tolstoy, G‘afur Gulom, Hamid Olimjon...“

Marhum Hamid aka o‘sha vaqtida yozuvchilarning raisi edi. Men bo‘lsam, havaskor shoir edim u paytda. U kishi meni chipta sotishga qo‘ydilar.

Kiraverishda stol qo‘yib o‘tirdim-u, chipta sotishimning mazasi bo‘lmadi. Bir soatdan beri bor-yo‘g‘i o‘n to‘rtta chipta sotibman. Bunday ishni qilganim yo‘q edi, yo eplolmayapmanmi, deb xijolat torta boshladim. Nima qilish kerak?

Maydonda odam ko‘p edi. Lekin har kim o‘z ishi bilan band: birov baliq do‘konida navbatda turgan, birov eski-tuski sotgan. Adabiy kecha ko‘ngilga sig‘adimi, shu tobda?!

Kallamga bir aql keldi. Yugurib ichkariga kirdim. Parda yopiq edi. Sahnaga chiqdim-da, minbardagi mikrofonni maydondagi radiokarnaylarga ulab, G‘afur G‘ulomning o‘sha vaqtida hammaga yod bo‘lib ketgan she’rini o‘qiy boshladim.

*Sen yetim emassan,  
Tinchlan, jigarim,  
Quyoshday mehribon  
Vataning – onang...  
Onang xo ‘rlandimi,  
Otang o ‘ldimi,  
Sen yetim qoldingmi,  
Qayg ‘urma, qo ‘zim,  
Ko ‘zim usti,  
Minnating boshimga durra...  
Tong yaqin, tong yaqin,  
Oppoq tong yaqin.  
Bir nafas orom ol,  
Uxla, jigarim...*

Maydonda yangragan ovozimni ochiq derazadan eshitib, ta’sirlanib ketdim. Chinakam ilhom bilan o‘qir edim, o‘zimning ham ko‘zimdan yosh chiqib ketdi.

*Oq oydin,  
Tong otdi, uxlamoqdasan,  
Lablaring shivirlab  
izlamoqdalar -  
Balki bir erkakash,  
Bir ona bo ‘sasi.  
Sen yetim emassan, jigarim...*

Qaytib chiqsam, chiptaga shunday odam ko‘payib ketibdiki, navbatning oxiri ko‘rinmaydi. Xotinlar, qariyalar, bolalar... Chipta yirtishga shoshib qoldim. Katta zal yarim soatda to‘lib ketdi.

Hamid Olimjonni she‘r o‘qishda Mayakovskiyga tenglashtirishardi. Haqiqatan ham, u minbarga chiqqanda zax, qorong‘i zal birdan isib, yorishib ketganday bo‘ldi.

Undan keyin Aleksey Tolstoy chiqdi. Bu keksa rus yozuvchisi, buyuk san’atkorning nuroniy qiyofasi hozir ham shundoq ko‘z o‘ngimda turibdi. U azamat gavdali, tovushi ham o‘ziga o‘xhash salobatli, peshonasi keng kishi edi. Doim beliga osib yuradigan katta termosdan yaxna choy ho‘plab, „Ivan Grozniy“ dostonidan parcha o‘qir ekan, odamlar dam ko‘ziga yosh olar, dam beixtiyor o‘rnidan qalqib qo‘yar edi. Men bo‘lsam, o‘lmas asarlarning muallifini o‘z ko‘zim bilan ko‘rib turganim uchun o‘zimni benihoya baxtli hisoblab, hayajonda o‘tirar edim.

Shu kuni katta pul tushdi. U pulning qadri ketgan, bir quti gugurt bir so‘m bo‘lgan paytlar edi. Shuning uchun chorsiga tugib olib, bemalol yelkalab ketaverdim.

Taxtapuldagi bolalar uyiga olib bordik pulni. Bolalar uyi, bag‘ri keng bir hovlida bundan uch-to‘rt kungina avval ochilgan ekan (hozir bu hovli yo‘q, o‘rniga maktab tushgan).

Men o‘zim ham bolalar uyida katta bo‘lganman, lekin bunaqasini ko‘rganim yo‘q edi, yuragim orqaga tortib ketdi. Katta-kichik bolalar burchak-burchakka pisib, dahshat to‘la ko‘zlarini javdiratib turishardi. Ular odamdan, bir-birlaridan qo‘rqishar, to‘satdan biron narsa taraqlab ketsa, chinqirib yerga yopishishar, osmondan samolyot o‘tib qolganda esa ko‘plari telba bo‘lib qolganday kun bo‘yi burchakdan chiqishmas ekan.

– Bombardimonda yuraklarini oldirib qo‘yishgan, – dedi tarbiyachi yig‘laguday bo‘lib va yasatilgan stolni ko‘rsatdi, – ovqatga ham qarashmayapti. Bo‘lmasa, doktorming aytishicha, hammasi ochlikdan darmonsiz...

– Hech qaysisining ota-onasi yo‘qmi?

– Yo‘q... Ba’zilari, hatto, o‘z otini ham esidan chiqarib qo‘ygan. Boshini silasang, telbaday qichqirib yuboradi. Ba’zilari ho‘ngrab yig‘lagani-yig‘lagan. Ba’zilarining ko‘zida yosh yo‘q...

Men bolalarning birini imlab chaqirdim, kelmadi. Uning o‘rniga boshqasi, tetikrog‘i yonimga keldi. Tanamdan sovuq ter chiqib ketdi. Sizlar, balki ishonmassizlar, lekin men oshanda to‘qqiz yashar bolaning sochi oppoq oqorganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. Aytgani til bormaydi: bu kichkinagina bir chol bola edi...

Hozir ham eslasam, tomog‘imga bir narsa tiqilganday bo‘ladi, ko‘zimga yosh to‘ladi. O‘sanda shu bola bilan qanday gaplashganimga hayronman.

Aftidan, u birov bilan tanishganda, avvalo sochi qanday qilib oqorganini tushuntirishga o‘rganib qolgan edi (bo‘lmasa, odam daf’atan unga tikilib tildan qolishi hech gap emas)...

– Dadamni, oyimni, opamni fashistlar tutib ketishdi. Men pech ostiga berkinib, omon qoldim. Ertalab hovliga chiqsam, tepamda uchalasining ham oyog‘i silkinib turibdi. Osib ketishibdi. O‘sha kuni bir o‘rtog‘im ko‘zini katta ochib menga qaradi-yu, „Petro, soching oppoq!“ deb, qochib ketdi qo‘rqidanid. O‘shandan beri sochim shunaqa, siz qo‘rqmang, men Petroman.

– Nega qo‘rqay, Petro. Sen juda yaxshi bola ekansan, familiyang nima?

– Petro Karachenko! – dedi bola. Kulganday bo‘ldi. Bu ayanch kulgidan, oriq yuzidagi ajinlar orasidan men

uning bolalik chehrasini ko'rdim. Ko'rdim-u, qiyofasi bir umr yodimda qoldi. Volgada ko'rganim, shlyuzning baland sement devoriga „Stroim navechno!“ deb yozgan yigit, albatta o'sha Petro edi! Albatta, o'sha, Petro Karachenko! Men adashgan bo'lishim mumkin emas. Endi uning sochlari oq emas, oltinday sariq, quyuq! Yuzida ajin yo'q, dengiz shamolida yonoqlari sal qoraygan, pishgan, kulgisidan nur yog'ilib turibdi. Endi u chol emas, kuchga to'lgan navqiron yigit! Mening ko'nglimga allaqachonlar o'rashib qolgan bir g'ashlik shu kuni yo'qoldi, birdan yengil his qildim o'zimni. Palubadan yugurib kelgan Temurning belidan ushlab baland ko'tardim, chaqnagan ko'zlariga tikildim.

– Bilasanmi, o'sha yigit kim? Petro Karachenko! Albatta, o'sha! – dedim men.

– Petro Karachenko kim? – dedi birdan bu qadar xursand bo'lib ketganimga hayron bo'lgan Temur.

Ha, u bilmaydi. Temur ham, siz ham u vaqtda hali yo'q edingiz, bolalar. U vaqtlarni bilmaganingiz ham yaxshi. Bilmang ham. Lekin Karachenkoning kimligini bilishingiz kerak. U, mening bolaligim hech kimning boshiga tushmasin, deb tinchlik inshootlarini mangulikka qurayapti.

## JINNI

Saidumarni olti-yetti yildan beri ko'rganim yo'q edi. Kabobxonada bir yarim soatcha o'tirib, miriqib gapplashdik. Maktabdoshlardan biri qizini uzatibdi, biringning o'g'li askardan qaytibdi, falonchi bobo, joyi jannatda bo'lqur, o'tgan yili kuzda tom bosib qazo qilibdi, falonchi kelinoyi bo'lsa ikki bolasining ustiga... Ishqilib, bir dunyo xabar, naq borib kelganday bo'ldim qishloqqa. Yaxshi-yomon tanishlar qatori, Halim domlani so'rab qoldim.

– ... domla chatoq... – dedi Saidumar kabob chaynab turib.

- Ha, nima, kasalmi?
- Undan battar.
- Yo'g'-e, nima... qamoqdamni?
- Yo'q... koshkiydi.

Garangsib, Saidumarga tikilib qoldim. Halim domla eng yaxshi muallimimiz edi, ijtimoiyatdan. Ko'z o'n-gimga keltirdim, endi saksonlarga borgandir, nima bo'lishi mumkin?

– Tirikmi, ishqilib domla, gapirsang-chi, mujmal qilmay! – dedim toqatsizlanib.

– Kirdi-chiqdi bo'lib qolgan domla, – dedi Saidumar ko'rsatkich barmog'ini chakkasiga bigiz qilib.

- Qo'ysang-chi... jinnimi?

U g'amgin bosh irg'adi.

Men jiddiy qabul qilmadim bu gapni, ishonmadim ochig'i. Bunga ishonish qiyin, nihoyatda esli, sog'lom, ehtiyyotkor odam edi. Haytovur... qariganda nimalar bo'lmaydi.

- Nimadan iborat... jinniligi? Nimalar qiladi?
  - Nima qilardi... g‘irt, sho‘ring qurg‘ur.
  - Yo‘q, menga qara, aniqroq gapir, balki tushunmagandirsanlar uni... Axir, ular... – „ular“ dedim-u, domlaga xiyonat qilayotgandek o‘zimdan g‘azablanib, anchagacha asabiylashib jim o‘tirdim. Ruhiy kasallar haqida o‘qiganlarim yodimga tushdi. – Har xil bo‘lishadi: biri Napoleonman, deb da’vo qiladi, biri...
  - Ha, ha, buning ham davosi zo‘r – yozuvchiman, deydi. Yozgani-yozgan.
  - Nimani yozadi?
  - Har baloni, jinnining gapi-da, nima bo‘lardi, qalinqalin daftarlarni to‘lg‘izib tashlagan.
  - O‘zing o‘qib ko‘rdingmi?
  - Ko‘rdim-da.
  - Xo‘sh?
  - Masalan, qarg‘a haqida... velosiped haqida...
  - Nima debdi... qarg‘a haqida?
- Saidumar kulib yubordi:
- Qarg‘a... tumshug‘i falon santimetrik. Kuzda janubdan uchib keladi. Qanoti... e, qo‘ying-chi, hamma biladigan shunday gaplarni daftar-daftar qilib... jinnining ishi-da.
  - Velosiped-chi?
  - Egari uch burchak, ikkita g‘ildiragi bo‘ladi. Rezinkadan. Rezinka esa... hay, jinni bo‘lsa ham biladi-ey. Masalan, sen rezinkaning nimadan bo‘lishini bilasanmi? Yo‘q, u biladi. Gafur G‘ulom hazillashardi: falonchi shiringina jinni bopti, deb. Bu ham esligina jinni bo‘lgan. – Saidumar lablarini artib, selkillab kului. – Ko‘rinishdan binoyiday, qilgan ishlari bo‘lsa... Axir, o‘rik haqida butun bir daftar-a! O‘zimizning oddiy o‘rik haqida. Dovchaligida bolalar talashib yeysi emish. Iyun boshida

pishadi, ichida danagi bor, chaqib mag‘zini yeyiladi, mag‘zida yog‘ bor. Quritib, turshak qilish. Hokazo. Kim bilmaydi buni! Kimga kerak, ayting! Balki, chukchalar, eskimoslar uchundir! – yana tebranib kului Saidumar. – Qisqasi... domla bechora chatoq.

Turdik. Saidumarning domlamiz ahvoliga beparvoligi menga yoqmadı. Shunaqa ham bo‘ladimi! „Ishqilib“ „qisqasi“... Masxaraomuz gaplar. Shunday fojea haqida-ya!

Yo‘q, men domlani borib ko‘rishim kerak. Ertasigayoq qishloqqa jo‘nadir.

Halim domlaning hovlisida deyarli hech narsa o‘zgarmabdi. Choyxonaday keng ayvon. Uy orqasi molqo‘ra, suvsizlikdan qurib yotgan o‘rikzor. Biz bolaligimizda domлага qarashib, tomga g‘o‘zapoya g‘aramlar, chipta qopga tezak qoplab, o‘choq boshidagi bostirmaga g‘amlab qo‘yar edik. Shuncha yil o‘tishiga qaramay, hali ham hammasi o‘sha-o‘sha. Halim domla bo‘lsa sira qarimabdi, ajabo, saksondan oshgan odam... yuzlari qip-qizil, o‘zi jonsarak, serharakat... Tavba deyishim kerak, kallamga bir fikr keldi: telbaning miyasi ishlamaydi-da, nimaga ham qarisin. Demak, Saidumarning gapida jon...

Domla meni juda xursandchilik bilan kutib oldi, qayoqqa o‘tqazishni bilmaydi: „yozuvchi o‘g‘lim... yozuvchi inim!..“ Nazarimda, shoshib ham qoldi. Men o‘z o‘yimdan xijolatman-u, lekin domlani hamon zimdan kuzataman...

Yo‘q, domla tappa-tuzuk gaplar gapirayapti. Bola-chaqalarimni surishtirdi, yozganlarimni o‘qib turar ekan – xursandchiligini aytdi. Men esa, o‘z shubhalarimda o‘zimni noqlay sezib, gapimni yo‘qotib o‘tiribman-u,

hamon sinamoq bo'lib, savol qidiraman: nima desam nima derkan? Unga o'zim jinni bo'lib ko'rinmasam edim.

Domla kamtargina dasturxon tuzadi, men bir vaqt lardagiday, unga qarashgan bo'ldim – bu uyda hamma narsaning joyini bilar edim. Ayvonnning poli – yer, bo'yra ustida namat tashlangan, xontaxta yonida eski ko'rpacha, shu yerda o'tirib bir piyola choy ichdik.

- Domla, siz ham... yozar emishsiz, deb eshitdim.
- Ha, bizning yozishlar endi... – deb kamtarona jilmaydi, – bizning yozishlar boshqacha. Ko'p yozaman, ammo-lekin. Ana...

Domla kitob javoni qatidagi tokchani ko'rsatdi. U yerda o'nlab qalin daftarlар taxlog'liq edi. Saidumarning gapi yodimga tushdi: „Yozgani-yozgan. Qalin-qalin daftarlarni to'lg'azib tashlagan... Aqlligina jinni....“

- Bir ko'rsam maylimi? – dedim choydan keyin o'rniidan turib.
- Sen albatta ko'rishing kerak, – dedi domla, nazarimda, quvonib ketdi. „Yozganlarini hech kim so'rab o'qimasa kerak-da“, deb o'yladim ichimda.

Daftarlardan birini olib, varaqladim. Chindan ham, hamma sahifalar to'latib, hafsala bilan yozilgan edi. Boshqa daftarlarni ham olib, ochib ko'rdim, ular ham shunday. Tig'iz, puxta yozuv bilan to'la.

- Bularning hammasi... bitta asar bo'ladimi?
- Bitta kitob... bo'lishi kerak. „Ezgu kitob“.
- „Ezgu kitob“?! Nomi shunaqami?
- Ha, hozircha, taxminan. Ammo, bilib qo'y, bu adabiy asar emas. Aslo! Badiiylikka da'vo qiladigan jinni emasman.

Badanim jimirlab ketdi: nahotki, o'zi ham tushunsa? „Ezgu kitob“ emish... Ezgu kitoblar yozilib bo'lgan, ular

asrlardan buyon yashab kelayapti. Buni tushunmaydigan odam...

Dastlab birinchi daftardagi sarlavhalarga ko‘zim tushdi: „Zig‘ir“, „Parovoz“, „Dallol“, „Chumchuq“, „Bezak“, „Nosvoy“... I-ye, biri tog‘dan, biri bog‘dan-ku! Domlaga qarab qo‘ydim. Qarashimda qandaydir shubhani payqadi shekilli, zo‘r berib tushuntira boshladi:

– Bu mavzular keyin sohasiga qarab, alifbosi bilan tartibga solinadi: tabiat, texnika, ijtimoiyat, siyosat, ashyolar, jismlar, mavhum tushunchalar...

– Lug‘atmi? Lug‘atlar, qomuslar bor-ku!

Domla oychan jilmaydi.

– Sen ham meni barcha lug‘at-u qomuslarni qayta yozib chiqishgaahd qilgan jinni ekan, deb o‘ylayotgan bo‘lmaq tag‘in, yozuvchi inim... Bu kitobda narsalarning, ashyolarning, hayvonlarning oddiy va batafsil ta’riflari bo‘ladi.

– Ko‘rib turibman... Mana, arava. Mana, qurbaqa... unga yarim daftar ta’rif. Haqiqatan ham oddiy...

– Hatto jo‘n.

– Ha... Ham keng ta’rif. Kechirasiz, sizni jinni deb o‘ylash xayolimga ham kelgani yo‘q. Bu – uzoq avlodlar uchun bo‘lsa kerak, hoynahoy?

– Uzoq, juda uzoq avlodlar uchun, – dedi domla tetiklanib. – Uzr, men seni ba’zilarga o‘xshatmoqchi emas edim, qaytaga meni tushunishingga aminman. Bilasan, dunyoda hech narsa abadiy emas. Faqat so‘z, yozuv uzoq yashaydi... So‘z, yozuv bo‘lmaganda biz, masalan, qadim dunyo qiyofasi haqida tasavvurga ham ega bo‘lmasdik.

– Qadim yunon eposlari...

– Barakalla!

– Lekin, domla... Mana, chunonchi, eshak... Unga yarim daftar bag‘ishlabsiz...

Halim domla jilmayib, nimalarnidir esladi chog'i, dam o'tib, davom etdi:

– Buni... Xrushchev davrida, yodingdami, bu joni-vorlarga qiron kelib... hamma qo'rasidan dashtga, sahroga haydavorib, juda xor qilishgandi. O'sha kunlari yozganman. Bilasanmi, inim, yer yuzida mamontlar yashagan vaqtida bir senga o'xshagan azamat qalamkash hafsala qilib, ularning ta'rifini qog'ozga tushirganda edi...

– U zamonlar qog'oz, yozuv bo'limgan-da.

– Hozir esa bor! Mamont ta'rifi yozilmagani uchun hozir olimlar uning bir suyagi topilsa katta kitob yozishayapti. O'z taxminlari uchun fan doktori unvonini olishayapti. Iloji bor ekan, dunyoda avlodlar uchun har narsaning ta'rifi qolishi kerak, deb o'ylayman. Mana, hozirgi yoshlarning hammasi ham Qo'qon aravaning qanday bo'lganligini bilavermaydi. Ming yil o'tib, hozirgi „Jiguli“ning qandayligini kim bilarkan, aytolasanmi?

– Ha, ming yilda ko'p narsa o'zgaradi, ko'p narsa izsiz yo'qolib, ko'p yangiliklar...

– Ming yilni aytasan, yozuvchi inim. Mana „Qoraqalpoq qissasi“ degan kitobing bor-a?

– Ha.

– O'shani yozganingga necha yil bo'ldi?

– Yigirma besh-o'ttiz yil bo'lgandir.

– Ana! Unda sen Mo'ynoq ko'chalarida turib dengiz to'lqinlari, chagalay galalari, teploxd gudoklari haqida gapirasan. Qo'ng'irotdan boshlangan qamishzorlar, tutash ko'llar, jing'il chakalaklari, to'qaylardan o'tadigan ko'cha yo'llari haqida yozasan. Shu kunda Qo'ng'irot, Moynoq bolalari yuz kilometr narida dengiz, hatto dengiz ham emas, sho'r botqoqlar borligini eshitibgina biladilar! Qissangni o'qib hayron bo'ladilar. Ba'zan arzimagan bir

narsaning ta'rifi butun bir tarixiy-madaniy qatlamni qayta ochish uchun kalit bo'lishi mumkin. Magnit tasmasi, mikrotka, komputer davri kelayapti. Bola „pero“ nima deb so'raydi. G'oz pati bilan dohiyona kitoblar bitilgan zamonlar uning uchun ertak.

– Sizning rejangizga ko'ra... butun borliqni ta'riflab chiqish kerak... bu, kechirasiz, ertakdan battar, utopiya-ku, domla?

– Buni jinnilik deb baholamaganingga xursandman. Utopiya esa, to amalga oshmagungacha utopiya bo'ladi.

– Buni bizdan keyin ham kimlardir davom ettirar, demoqchimisiz?

– Xuddi shunday. Eng muhimi – boshlash. Keyin borib.... balki shu bilan maxsus shug'ullanadigan uyushma, ehtimol, butun bir akademiya paydo bo'lar...

Bunga men o'zim ham qiziqib qolib, suhbatni maroq bilan quvvatlay boshladim.

– Domla... Nazarimda, bu ishning bir qismi bajarilgan ham, barcha tillardagi so'zliklar, qomuslar... ularni bir joyga to'plash... yo „Ezgu kitob“ga qo'shish, jamlash...

– Balli!..

– Lekin, domla, axir tillar ham borib-borib o'zgaradi, yo'qolib ketadi. „O'lik tillar“ degan tushuncha bor.

– Gap shunda-da... – Halim domla o'yga toldi. Umidsiz, asabiy... nazarimda, sal... jinniroq ham bo'lib ko'rindi. – Gap shunda-da... Odamning o'zi yo'qolib ketmasdan burun qilish kerak buni...

## KURASHAMAN VA YENGAMAN

Bu safar sizni Villem degan bola bilan tanishtiraman. Uning yoshi o'n to'rtlarda bo'lsa bordir. O'zi ozg'in, chayir, novcha. Katak shimming torgina pochasi boldiriga yopishgan, qora beretining tagidan oq-sariq sochlari qo'ng'iroq-qo'ng'iroq bo'lib, osilib turibdi. Qo'lida doim eshkak, qirg'iy burni bo'lsa, terlagani-terlagan...

Villem – gollandiyalik. U siz ko'rmagan ko'p g'alati narsalarni boshidan kechirgan. Siz daryoning teskari oqqanini ko'rganmisiz? Villem ko'rgan. Uning mamlakatida ko'priklar soyning ustida emas, ostidan o'tadi. Shamol tegirmonlar g'alla tortmaydi... suv tortadi. Villem turadigan shaharda ko'cha yo'q, o'rnida kanallar...

Ertak deysizmi? Yo'q. Villem uchun bularning hammasi oddiy bir hol. Qaytaga o'zgacha bo'lganda unga ertak bo'lib tuyulardi.

Villem bilan yaxshiroq tanishishingiz uchun uning o'sgan yurti haqida biroz gapirib beray.

Bir zamonlar okean suvlari ko'tarilib, Britaniya orolini Yevropadan ajratuvchi Pa-de-kale bo'g'ozi paydo bo'lganda, hozirgi Gollandiya yerlari dengiz ostida bo'lgan ekan. Golland xalqi o'z yurtining tuprog'ini dengizdan tortib olibdi. Bu jajjigina go'zal mamlakat asov dengiz to'lqinlari bilan ming yillik uqubatli kurashlarning natijasi ekan.

Shuning uchun ham bu xalqning qadimgi gerbida to'lqinlar bilan olishayotgan yo'lbars rasmi bor, uning tagiga „Kurashaman va yengaman!“ degan so'zlar yozilgan. Tabiatning halokatli kuchlariga qarshi bu kurash hali ham har kuni, har soat davom etmoqda.

Mamlakatning yeri dengiz sathidan pastda. Gollandlar o‘z yurtlarini Niderlandiya, bir qismini esa Zerlandiya, deb atashadi. Niderland – pastlik yer, zerland – dengiz tubi, degan so‘z.

Mamlakatning 1075 kilometrlik dengiz qirg‘og‘i 50-60 metr balandlikdagi tabiiy to‘sqliar (dyunlar), sun’iy damba va to‘g‘onlar bilan qurshab olingan. Inson qo‘li bilan qurilgan dengiz to‘g‘onlarining qalinligi ba’zan yuz metrga yetadi. Toshbeton to‘g‘onlarning umumiyligi uzunligi esa uch ming kilometr ekan, ya’ni mamlakatning barcha temiryo‘llaridan ikki baravar uzunroq. To‘lqin qaytaruvchi to‘sqliar, damba va plotinalarga yog‘och, toshbeton, temir, sement, shag‘al tashish hozir ham tinmay davom etyapti.

Dengiz to‘lqinlaridan suniy g‘ovlar bilan himoya qilingan yerlar marsh deb ataladi. Gollandiya – dengizdan past marshlar mamlakati. Damba va to‘g‘onlar dengiz qirg‘og‘idagina emas, marshlarning chegaralarida ham bor. Marshdan turib qarasangiz, keng dambalar tepasidan o‘tib borayotgan poyezdlar, avtomobilarni ko‘rasiz. Daryolar, kanallar ham dambalar ustidan oqadi. Shuning uchun damba tagida qurilgan „ko‘prik“dan o‘tar ekansiz, tepangizdan daryo pristanlarida paroxod sirenalari yangraydi.

Dengiz suvi qaytgan vaqtida juda katta yer maydonlari qurib qoladi. Bunday yerni vatt deyisharkan. Xalq mana shu vattlarni dengizdan uzib olib, qo‘lda saqlab qolishga intiladi. Dengiz tublarini qo‘lga olish uchun bo‘lgan zahmatli mehnat hali ham davom etyapti. So‘nggi bir necha o‘n yilda Zeyder-ze bo‘g‘ozida yigirma ming hektar yer quritilgan.

Lekin toshqin halokati doim dahshatli xavf solib turarkan. Shimol dengizining bebosh to‘lqinlari ba’zan

xalqning yuz yillar davomida qurgan to‘g‘onlarini birpasda o‘pirib, marshlarni dengizga qo‘sib yuborarkan.

Villem toqqiz yashar chog‘ida mana shunday bir halokatni o‘z boshidan kechiribdi. Biz uni Amsterdamning kanal-ko‘chalarida suzib yurganimizda, katerda uchratdik. Motoristga shogird ekan. Villemning tarixini bizga o‘sha motorist gapirib berdi. Motorist ruschani chalakam-chatti qilib gapirarkan, Villem gap o‘zi haqida ketayotganini payqab, hasratli ko‘zlarini yaltillatar, qandaydir fojeali onlarni eslardi shekilli, yuzining qayeridandir asabi tortilib, titrab qo‘yar edi. Biz uning yuziga qarab, og‘ir hikoyani uning o‘zidan eshitganday bo‘ldik...

Villemning bobosi ham, bobosining bobosi ham dengiz bilan olishib o‘lgan, dedi motorist. Bundan bir necha yil avval ular qirg‘oq shaharchalaridan birida baliqchilik qilib kun ko‘rar ekanlar. Bir kuni ertalab turishsa, olam qop-qorong‘i, tomlar tuproq bilan aralashib osmonda uchib yuribdi, daraxtlar yer bag‘irlab, qo‘porilgan ildizlari tarvaqaylagan, daryolar teskari oqib yotibdi... Bu dahshat alomatini odamlar yaxshi bilishar ekan, shuning uchun hech narsaga qaramay, bola-chaqalarini opichlab, bir necha daqiqada shaharni tashlab jo‘nashibdi. Tahlikaga tushgan minglab oilalar yo‘lda qochayotib to‘lqin bilan yuvilib ketibdi. Villem otasining boyniga chirmashib, sochidan tishlagancha olti soat girdobda tentirabdi. Loyqa to‘lqinlar ota-bolani dam daraxt tomirlariga, dam suzib yurgan bochka, dam mурдаларга, dam toshga eltib urarkan. Otaning ko‘zi o‘yilib, qo‘li sinib, og‘zidan ko‘pik aralash qon kela boshlabdi. Lekin shunda ham og‘lini qo‘ymay, bir xodaga tirmashib suza beribdi. Nihoyat, ular bir dambaning

yonbag‘riga tirmashib, to‘lqinlar xurujidan qutulishibdi.  
Holdan toygan ota boshini yerdan ko‘tarolmay:

- Oying... oying ko‘rinmaydimi? – deb so‘rabdi.
- Dada, atrofda hech kim yo‘q... – debdi Villem.
- Ukang-chi?
- Hech kim!
- Uzoqqa tikil... – debdi dadasi yerdan yuzini ko‘tarmay, – shahrimizning tomlari ko‘rinayaptimi?

Villem atrofga uzoq tikilibdi. Ko‘zi qorong‘ilashib, boshi aylanib, ko‘p qiynalibdi, qusibdi. Yana tikilibdi.

– Dada, uzoqda ham dengizdan boshqa hech narsa ko‘rinmayapti.

Lekin ota endi uning gapini eshitmabdi. Bu yuz emas... tuproqqa qorishgan o‘lik go‘sht edi...

– Shunday qilib, uning otasi ham bobolari yo‘lidan ketdi, dengiz bilan olishib o‘ldi, – dedi motorist. – Mening qutulishim ham noyob bir mo‘jiza bo‘ldi. To‘rt kun piyoda yurib, yarim-yalang‘och bolalarim bilan Amsterdam ko‘chasiga kelib yiqildim. Bolalarim ichida bu ham bor edi, – dedi u sal jilmaygancha Villemni ko‘rsatib. Keyin u Villemga o‘z tilida bir nima dedi. Shunda bola bizni endi ko‘rganday, hammamizga bir-bir qarab chiqdi. Ko‘zlarida yosh miltilladi. Yonida turgan hamsafarlarimdan birini mahkam quchoqlab, yuzini uning ko‘ksiga bosdi-da, ho‘ngrab yig‘lab yubordi. Biz buning sababiga uncha tushunmay, andishada qoldik. Lekin motorist yoqimli jilmayar, Villemning yelkasiga qoqib, yupatishga urinar edi. Keyin brezent qo‘lqopi bilan Villemning ko‘z yoshini artdi-da, bizga tushuntira boshladи:

– Villem bilan meni oyoqqa turg‘izgan, oilamizni ochlik halokatidan qutqargan siz bo‘ldingiz, aziz mehmonlar, – dedi u bizga qarab. Uning zahmat chekkan

oriq yuzida mehr shu'lasi porladi. U bizni katerga o'tqizayotganida ham shunday mehr bilan jilmaygan edi. Biz uning o'sha holatini endi tushundik.

– 1953-yil fevral halokati qurbanlariga yordam uchun sizning olivjanob xalqingiz katta mablag' yuborgan edi. Yodingizdami? Ana oshanda mening oilamga ham, Villemga ham jindek tegdi. Men bolalarimga, shular qatori Villemga ham non, kiyim oldim, ish topdim, Villemni eshkakka o'rgatdim.

Biz xalqimizning 1953-yilda „Gollandiya milliy fondi“ga million gulden pul yuborganini esladik. Gollandiyaliklar bu muruvvatni hozir ham minnatdorlik bilan eslar ekanlar.

Katerda jimlik cho'kdi. O'yga toldik. Biz ko'p qavatli binolar tagiga kirib ketgan kanal-ko'chalarni tomosha qilar edik. Villem esa bizning qanday kishilar ekanligimizni bilmoxchi bo'lganday, hasrat izi ketmagan yaltiroq ko'zlar bilan hammamizga bir-bir tikilmoqda edi...

## ABUL ALI VATANINI O'RGANYAPTI

Bundan bir necha yil avval Ramzis ko‘chasidagi katta mehmonxona muyulishida chayirgina jingalak bolaning chinqirishidan quloqlar qomatga kelardi... Abul Ali qora terga tushib, ertadan-kechgacha baqirgani-baqirgan edi:

– Yallo, zaytun! Yallo, zaytun!

Endi Abul Ali zaytunfurushlikni tashladi. Bunga sabab bo‘lgan narsa shuki, Vatan degan yangi so‘z chiqib qoldi. Ilgarilar bu so‘z yo yo‘q edi, yo bo‘lsa ham Abul Ali uni bilmasdi. Bir vaqt mehmonxona muyulishidagi jaridilar<sup>9</sup> bu so‘zni tez-tez tilga oladigan, ba’zan esa gazetalarini baland ko‘tarib, uni havo da siltab, chopqillagancha, shu so‘zni aylib, qichqirib o‘tadigan bo‘lishdi. Gazetalarda bu so‘zni har kuni yozishardi.

Nazarida, jaridilarning obro‘sni juda oshib ketdi. Endi ular orasida „yallo, zaytun!“ deb qichqirib yurish bachkanalikdek tuyuldi. Shuning uchun Abul Ali ham jaridi bo‘ldi.

Juda katta o‘zgarishlar bo‘ldi. Ilgarigi kichkinagini, chinqiroq isqirt zaytunfurush endi o‘n olti yashar, kelishgan, jingalak sochli jaridiga aylandi. Abul Ali ilgari Vatan so‘zini bilmasdi, endi bo‘lsa u Vatanini o‘rgana boshladi. Gazetada o‘qib ham o‘rganadi, mактабда ham o‘rganadi, muzeyda ham, sayohatda ham o‘rganadi, tarixini ham, kelajagini ham, goho g‘urur bilan, goho alam bilan, lekin doim sevib o‘rganadi.

Uning ko‘ziga hamma narsa boshqacha ko‘rina boshladi. Masalan, ilgari do‘konchining do‘koni pesh-taxtasida koka-kola shishalari botayotgan quyoshdan

<sup>9</sup> Jaridi – gazeta sotuvchi bolalar

kulayotganday yaltillar edi. Endi Abul Ali biladiki, quyosh nur sochmasa, shisha tugul, odam yuzida ham kulgi bo'lmashdi. Abul Ali tizzasigacha tushgan uzun oq ko'yak, boshiga qizil fas kiyib, qo'iida ot dumi bilan pashsha qorib yuradigan badjahl qo'shnisini hech narsadan qo'rqlaydigan ulug' odam deb yurar edi. U kishi itim qopag'on bo'lsin, deb qulog'ini kesib, tuzlab, murchlab o'ziga yegizgan. Shu iti Foruq poshoning garajidagi 185 ta shaxsiy avtomobilga qorovullik qilar, o'zi bo'lsa podshoga mahram edi. Abul Ali endi o'ylab qarasa, bu odam shunchaki bir qul ekan. Hozir juda yuvosh bo'lib qoldi, eshigi tiq etsa, yuragini hovuchlaydi.

Abul Ali Vatanini mana shunday o'rganmoqda. Nil yoqasidagi ehromlar etagi ham bir vaqtlar Abul Ali uchun ajnabi sayyoohlarga zaytun sotiladigan bir joy edi, xolos. Endi bo'lsa...

Yaqinda u Gizaga yana bordi. Kechki payt edi. Qadim ehromlarning ulug'vor ko'lankasi allaqanday sirli tuyuldi. Sahro quyoshining so'nggi nurlari Sfinksning nuragan yuzini yoritib turardi. Lekin Abul Alining nazarida endi u besh ming yillik tilsiz tosh emas, jonli narsaday ko'rindi. U tilga kirdi. Sfinksning ovozi sahro qaridan chiqqanday bo'g'iq, so'zları toshday og'ir edi.

– Men olamdag'i yetti mo'jizaning biriman. Tarixning ellik asri ko'z oldimdan saf tortib o'tib ketdi. Fir'avnlar baxt tilab oyog'imga tiz cho'kkani. Iskandar Zulqarnayn ot choptirib o'tgan yonimdan, Napoleon peshonamga qarab o'q uzgan... Bari olamdan o'tdi, ammo men turibman. Hozirgacha zamon faqat menga hukmini o'tkazolmagan.

Sahrolar qa'ridan yuz ming qulning ayanchli nolasi eshitiladi, qulqoq sol, Abul Ali! Asrlar davomida mana bu ehromlar uchun tosh tashigan qullar nolasi!

Eshityapsanmi? Bu yuksak ehromlar inson suyagidan tiklangan tog'lardir. Firavnlarning shuhrat chiqarish, ovoza taratish dardi insoniyat uchun mana shunday fojea bo'ldi.

Ammo qulning qalbida ham insoniy armonlar so'nmagan edi. Inson o'z armonini mening qiyofamda ifoda etdi. Ko'ryapsanmi, mening boshim – erkak bo-shidir, yuzim esa – ayol jamoli, qaddimda sher turqi mujassam. Aql, husn, quvvat birligi!

Mana shunday haroratli qalb armonlaridan yasaldim, o'zim bir sovuq tosh bo'lib qotdim. Vaqt hamma narsaga hukmron, ammo menga hukmi o'tmasdi. Mening tengim yo'q edi...

Men qadim Misrning ramzi, guvohi, dahosi va tarixi edim. Olam meni hayrat bilan tomosha qilishdan to'ymasdek edi. Men davrlarga, asrlarga abadiy hukmronman, deb oylar edim.

Ammo yo'q, men ham qaribman. Menga inson e'tibori mutlaq kamaydi. Zamon keldiki, men unga taslim bo'lishga majburman. Yonginamda raqibim paydo bo'lib, olam diqqatini o'ziga oldi, ulug'vorlikda, abadiylikda, arab baxtini, qudrati va husnini ifodalashda meni soyada qoldiradigan boshqa bir ramz, boshqa bir tarix yaratilmogda.

Uning oti Saddal-Oliy.

Mening ismimni tarix otaxoni Gerodot qo'ygan edi. Uning ismini sen qo'yibsan, Abul Ali.

Sening uyingda to'rtta ko'za ko'targan ayol haykali bor. Ko'zalarning birida – suv, birida – non, birida – meva, birida – gul. Ota-onang Nilni mana shu ayol qiyofasida tasavvur etar, unga tikilar, arzi-hol aytar, yolvorardi.

Sen esa bu yerga kelayotib Nil sohilidagi xurmozor xiyobonda „Uyg‘onish“ haykalini ko‘rding. Qohiraning dorilfunun maydonida qad ko‘targan bu haykal xonadonlarda yashirinib emas, butun Vatan ko‘z oldida mag‘rur turibdi. Unda dardli umid va yolvorish hissi yo‘q, ulug‘ ishonch, isyonkor talab ruhi ifodalangan. Bu haykalda men, Sfinks sher qaddimni ko‘tarmoqdaman va yonimda haligi ayol uzoqlarga ko‘z tashlamoqda. Misr va Nil!

Sen Misrning farzandisan, Abul Ali. Misr esa Nilning farzandi.

Nil bo‘ylab yur, sahrolarni kez. Bu yerlarda har asrda ikki marta yomg‘ir yog‘adi, toshbaqaday katta „ezgu“ qo‘ngizlar chayon tutib yeb, yurib yetiladigan „shayton alafi“ni so‘rib o‘sadi. Ammo endi bu yerlarga inson iz soldi. Yovvoyi mushukni ovga o‘rgatib, tirikchilik qilgan badaviylar ham, Uralda tug‘ilgan gigant qadamli ekskavatorlar ham, oq tuya mingan fallohlar ham – bari Saddal-Oliy yo‘llarida oqib bormoqda.

Saddal-Oliy fir‘avnlar maqbarasimas. Uning oldida misr ehromlari cho‘kib ketadi. Uning poydevorlariga yotqiziladigan qoyatosh o‘ttizta Huf ehromiga yetib oshardi. Ammo bu toshlar qonli yosh bilan emas, inson ko‘zining quvonch nuri bilan sugorilmoqda. Nur sahrosi zangor mavjli dengiz bo‘ladi, sohillari yashil bog‘lar, xurmo, zaytun bilan to‘ladi...

Mening umrim oldida sening yoshing – tog‘ oldida gard. Saddal-Oliy sening yoshingda. Ammo siz – kelajaksiz, men esa – o‘tmish. Keljak o‘tmishni yengishiga shu zamonga kelib inondim.

## KO'KTOSH

Men toshman, ko'k tosh. Otim – Yashm. O'n ming yillardan beri ko'rmagan tomosham qolmadi. Birov boshiga ko'taradi, birov sirtimga minib o'tiradi, birov to'riga qo'yadi, birov – go'riga. Yurmagan yo'lim, ko'r-magan elim yo'q. Bir Yer yuzining qaysi bir nuqtasida yotsam, menga-ku baribir, lekin odamlarga hayronman, tog'-u tosh demay, daryomi-dengiz demay, dam dunyoning u chekkasiga, dam bu chekkasiga sudragan-lari-sudragan meni. Chiroyli ekanman, asil ekanman, shaffof ekanman, xo'sh, kelib tomosha qilaver. Yo'q-da, meniki bo'lsin. Shu „Seniki-meniki“ degan faqat odamda bo'ladi, nazarimda – urush-janjali ham, qirg'ini ham shundan, o'limi ham, kulfati ham.

Tag'in, buning gunohini o'zlaridan soqit qilish uchun, mening tog'rimda mudhish afsonalar to'qishganini aytmaysizmi!

Keyingi bir necha ming yil davomida-ku Chin-Mochinning hashamatli saroylarini bezab, ancha tinch o'tirdim. U xoqonning qasridan bu xoqonning saroyiga surgalib ancha sayqallahib qolgan bo'lsam ham, bus-butun edim, birov jon bergani ham yo'q meni deb. Ammo, mana endi, Chingiz degani kelayotgan mish tuman-tuman lashkari bilan dala dashtni dud-u to'zonga chulg'ab. Meni deb kelayotgan mish. Men kerak bo'lsam, mana, turibman-ku, kel, ol. Nima qilasan butun bir mullatni o'tga tutib, shaharlarni ko'kka sovurib, lak-lak lashkarni qirib, begunoh elatlarni qora qaqshatib! Yo, Rab!!!

Aytdim-ku, dunyoning qaysi chekkasida yotsam – menga baribir deb. Mana endi, tag'in sudrab ketishayapti.

Chin-Mochinda meni muqaddas hisoblar edilar, mana endi tinchligim buzildi, meni deb yuzta ot, uch yuzta navkar ovora. Ko‘p o‘tmay, qumda sudraydigan yog‘och chanaga tushdim. Chunki ustiga xoda qo‘yib meni lo‘killatib olib ketayotgan to‘rtta fil kecha kechasi o‘lib qoldi. Cho‘lga yaramas ekan-da jonivorlar. Keyin to‘rtta tuyu o‘rkachiga joylab ko‘rishdi, bo‘lmadi, sirg‘alib tushib, qumga yumaladim. Oltita navkarni bosib qoldim, yerga chalpakday yopishib jon berishdi sho‘ring qurgurlar. Bu voqeadan keyin xoqonning o‘zi yana to‘rttasini ehtiyotsizligi uchun qamchilab o‘ldirdi. Endi mana „chana“daman. Ey, aziz jonini ayamagan odamlar... Menga-ku, ming yil cho‘t emas, bu gumrohlarning umri axir bir nafas. O‘ylab ko‘rsa-chi, qadriga yetsa-chi!

Meni joyimdan qo‘zg‘aganning o‘zi bir falokatga duchor bo‘ladi. Bu afsonani, hali aytganimday, odamlarning o‘zлari to‘qib chiqargan, o‘zлari shunga ishonishadi ham. Asli o‘zi shunday, shekilli-da, necha marta sinaganman, o‘zim ham ishonib qoldim afsonaga. Qo‘l tegizishsa xavotirlanib turaman. Lekin odamlar... hamon joyimda tinch qo‘yishmaydi-da.

Haligi Chingiz degani ham mana meni ne azob bilan olib keldi-yu, o‘zi, o‘sha afsonada aytiganiday, bekordanbekor shamollab, to‘satdan qazo qildi. Mening Chin-Mochindan Movarounnahrga ko‘chib olganim qoldi.

Bu yerning xo‘jayini ham, uning oti Chig‘atoy edi, nafimni ko‘rib-ko‘rmay o‘lib ketdi. Odamlar buni ham mening kasofatimga yo‘yishdi, albatta.

Inson o‘tmishdan saboq olmas ekan-da. O‘sha Chigatoyning nevarasi yana menga qo‘l urib, Naxshabda taxt qilib ustimga minib o‘tirdi. E... bunga ham yorlaqagani yo‘q. Ochig‘i, gap mening haqimdagি

afsonada emas, hammasi odamlarning ochko‘zligidan. Axir, Chin-Mochin xoqonlari meni qaytib olib ketish uchun ne-ne hiyla-nayranglar ishlatishmadi, ne-ne pora-yu boyliklar va’da qilishmadi, oradagi sotqinlik, xiyonatlar g‘oyib bo‘lgan, o‘lib ketgan ne-ne odamlar.

Axiri, meniki bo‘lg‘usi xo‘jayinim ulug‘ Temur bariga chek qo‘ydi, ochko‘z urushqoqlarning nafsiyi, boshini qo‘sib, bir toj ostiga jipslashtirdi. Bu mashg‘ulotlar bilan bo‘lib, u zot mening taqdirimni jilla ko‘zdan qochirdilar. Ammo bir donishmand nabiralari qadrimga yetdi. Meni topib, poytaxtga ko‘chirish uchun maxsus yo‘l soldirdi. Shikast yetmasin, degan-da. Kesh-dan Samarqandgacha dastlab men yurgan o‘sha tekis yo‘l hali ham bor, balki ko‘rgandirsiz.

Donishmand meni buyuk bobosining qabriga qo‘ydirdi. Mangulik toza husnim shu zotning abadiy shuhuratiga monand edi, bir necha yuz yil odamlarga shu fikrni eslatib, tinch yotdim.

Afsus, ulug‘lar o‘lar ekan-u, odamlarning badnafsligi o‘lmas ekan. O‘zini jahongir hisoblagan yovqur hukmdor Nodirshoh yana menga ko‘z tikdi. Samarqandning boshqa ganjinalari bilan birga meni ham Mashhadga ko‘chirib olib ketishni buyurdi. Ulug‘ zot qabridan qo‘porib... Ammo o‘z amri o‘z ko‘ngliga g‘ulg‘ula soldi, mening haqimdagи mudhish afsona yodiga tushib, hukmdor sust ketdi. Qo‘rroq yuragiga tasalli qidirib, ulug‘ Temur xotirasiga fotihalar o‘qitib, meni poytaxt qasrida muqaddas tosh deb e’lon qilishga va’da berib, o‘z dilini ovutdi. Biroq u, baribir, qo‘rroq bir o‘g‘ri edi. Dilidagi hadik-halovatini oldi. Avliyolarning arvohlari, oh sohibqironning qo‘porilgan qabri, maqbara vayronalari tushlariga kirib, badanini sovuq ter bosib uyg‘onib

ketardi. Qo‘rquvdan telba bo‘lishiga sal qolganda axiri meni Samarqandga qaytarib, o‘rnimga qo‘yishga farmon berdi. Yana safar, yana sudra-sudra, yo‘l azobidan darz ketgan kunim, Nodirshohni o‘z odamlari so‘yib qo‘yibdi, degan gap tarqaldi. Buni ham odamlar, noiloj, mening kasofatimdan ko‘rdilar.

Shundan keyin qabr tepasida yana bir necha asr tinch qo‘yishdi. Sag‘anada yastanib yotish men uchun yangilik emas, yotaverdim. Maqbara muhtasham, hamisha gavjum, to‘da-to‘da bo‘lib dunyoning har chekkasidan kelib ziyorat qilishadi. Mundoq bo‘pti-da, kelib ko‘rish mumkin bo‘lgandan keyin, seniki-meniki qilib talashish, qo‘porish, buzish, urushishga na hojat! Yuqorida aytdim-ku, yer yuzining qaysi nuqtasida yotish mening uchun baribir, deb.

Shunday qilib, odamlarga es kiribdi, deb bamaylixotir yotsam, e-voh, nadomatlar bo‘lsinki...

Bir kuni yana kelib qolishdi. Bu safar ular ko‘pchilik edi, na afsonaga, na qismatga, na Xudoga, na arvohga ishonadigan odamlar. Kelishdi-yu, bismillosiz, qo‘llariga mirsang-u cho‘kich olishdi.

Ular hali... ertasiga jahon boylab qonli qirg‘in boshlanishini, to‘rt yil davomida ellik milliondan ortiq inson yer tishlashini bilishmas edi.

Bu 1941-yilning 21-iyuni edi-da. Hali tarixning eng fojeali tongi otmagan edi.

## MUNDARIJA

Insonga qulluq qiladurmen.....	3
Dahshatli maxluq.....	35
Kaktus.....	46
Qanoti singan orzu.....	53
Quyosh doim musaffo.....	65
Bobo va nabira.....	75
Chodirxayol.....	90
Eh, kattalar.....	103
Uchrashuv.....	113
Jinni .....	122
Kurashaman va yengaman.....	129
Abul Ali vatanini o'rganyapti.....	134
Ko'ktosh.....	138

**Asqad Muxtor**

# **DUNYO BOLALARI**

## *hayotidan hikoyalaz*

,,Pharos ambition“ nashriyoti  
Toshkent – 2022

Muharrir Sunnat Xo'jaahmedov  
Badiiy muharrir Shohrux Toshturdiyev  
Kompyuterda sahifalovchi Shahnoza Sobirova

Bosishga ruxsat etildi 06.10.2022. Bichimi 84×108  $\frac{1}{32}$ .  
Kegli 12. „Times New Roman“ garniturası.  
Shartli b. t. 9,00. Adadi 5 000 nusxa.  
Buyurtma № 49

,,Pharos ambition“ MChJda tayyorlandi.  
Murojaat uchun tel.: (93) 386-03-22  
„GTC“ MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahar, Uchtaba tumani TXAY 11/10

UO'K 821.512.133-31

KBK 84(5O')

H 71

ISBN 978-9943-7586-1-2

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-7586-1-2.

9 789943 758612